

Mirach Chag'ri Oqtosh



To'siqlarga qaramay
sevdik

Mirach Chag'ri Oqtosh

TO'SIQLARGA QARAMAY SEVDIK

**"Factor press" nashriyoti
Toshkent – 2021**

UDK 821.512.161-31

KBK 84(5Туц)

O 98

Mirach Chag'ri Oqtosh

To'siqlarga qaramay sevdik [Matn] / Mirach Chag'ri Oqtosh -Toshkent: «Factor press», 2021. – 168 b.

Mirach Chag'ri Oqtosh Antaliyaning Manavgat tumanida tavallud topgan va boshlang'ich o'quv yillarini Manavgat o'rta maktabida tamomlagan. Mirach Chag'ri Oqtosh o'zining ilk mualliflik kitobini maktabda yuqori sinflarda o'qib yurgan kezlari kitobxonlarga taqdim etgan.

Butun Turkiyada o'zining minglab muxlislariga ega bo'lgan Mirach Chag'ri Oqtosh hozirda ham o'qish, ham o'z mualliflik kitoblarini ommaga taqdim qilish bilan mashg'ul va mashhurdir.

“To'siqlarga qaramay sevdik” yozuvchining eng talabgor va eng ko'p adadda chop etilgan kitoblaridan sanaladi.

Turk tilidan

Nodirabegim Jamshid qizi tarjimasi

UDK 821.512.161-31

KBK 84(5Туц)

ISBN 978-9943-7253-1-7

© “FACTOR PRESS” nashriyoti, 2021-y.

© Mirach Chag'ri Oqtosh, 2021-y.



Mirach Chag'ri Oqtosh

Hech narsaga
qaramay sevganlar
uchun...



To'siqlarga qaramay sevdik


Mirach Chag'ri Oqtosh

Bu kitob tunda boshini yostiqqa qo'yar-qo'ymas uxlab qoladigan darajada beg'amlar uchun emas, baxti to'kis bo'lganlar uchun ham emas.

Qayta-qayta ishonch bildirib, oxiri alam va xomxayollari bilan qolganlar uchun, sariq chaqaga chiqqanlar uchun va shunga ham qaramay baribir sevganlar uchun, ishonganlar uchun, yarim yo'lda tark etilganlar uchun yozildi.

*O'zi yarim bo'lgan
holda, boshqalarini
to'ldirganlarga...*

Baribir sevdik.



To'siqlarga qaramay sevdik

Mirach Chag'ri Oqtosh

Inson sevishni boshlaganida yashashni ham
boshlaydi.

Ulyam Shekspir



To'siqlarga qaramay sevdik



Kechirish va unutish aqli insonlarning intiqomidir.

Friedrix Schiller

Ulardan mening bir farqim bo'lishi lozim edi. Xuddi ular kabi bo'lib, ularga o'xshashim mumkin emasdi. Mening ulardan mutlaqo bir farqim bo'lishi kerak edi. Ular deganda, masalan otam... Mening undan katta farqim bo'lishi lozim edi. Esimni taniganimdan beri, shu yergacha yashagan hayotimda undan mutlaqo farqim bo'lishi uchun o'ta ehtiyotkorlik bilan harakat qildim. Bu ehtiyotkorlikka yangi tug'ilgan chaqaloqni ilk bor qo'lga olishni misol qilish mumkin.

Bir ayolni ikki norasidasi bilan yarim yo'lida tashlab ketgan odamdan farqim bo'lishi uchun qo'limdan nima kelsa shuni qildim, qilyapman va bundan keyin ham shunday bo'ladi. Agar uylangan ayolimdan o'g'il farzand tug'iladigan bo'lsa, unga buni hayotining falsafasiga aylantirib olishi uchun "Kelajakda oila qurib, farzand ko'radian bo'lsang, ularni aslo yarim yo'lida tashlab ketmasliging kerak" degan nasihatni miyasiga singdirardim. Ehtimol, men bir ayolni ikki farzandi bilan ulkan hayot ummonining beshafqat to'lqinlarida yolg'iz tashlab ketgan bir otaning o'g'li bo'lishim mumkindir, ammo men aslo bunday ota bo'lmayman va mening ham o'g'lim bo'ladigan bo'lsa, uning bunday ota bo'lmasligi uchun tish-tirnog'im bilan kurashaman, kerak bo'lsa o'zimni fido qilaman! Siz ham bu so'zlarimning tirik guvohisiz...



Ba'zan qasos olish ham yaxshi, chunki insonlarga asl haqiqatni ko'rsatadi. Biroq qasos o'ti sizning jilovingizni o'z qo'liga olishiga yo'l qo'ymasligingiz darkor. Intiqom tuyg'usi sizni emas, siz uni boshqarishingiz kerak.

Eng avvalo meni otamdek e'zozlab, hurmat qilgan insonlarim qattiq ranjitishdi. Ko'nglimni og'ritishdi. Xayollarimni chippakka chiqarishdi. Hattoki, bularni amalga oshirganlaridan zavq olgandek ko'rinishardi. Oddiy bir inson bunday voqealardan keyin kin saqlab, nafrati qo'zg'ar ekan, ammo bularning hech biri mening qalbimga na kinni va na nafrat tuyg'ularini soldi. Chunki mening otamdan va menga zararlari tekkan insonlardan bir farqim bo'lishi kerak edi. Va men bu farqni ular kabi birovni ranjitib, chilparchin qilib, yarim yo'lda qoldirib, ortimga ham qaramay ketish bilan amalga oshirolmashdim. Tangrining har bergen kuni bir xil bo'lmaydi-ku, deya o'zimni ovutib, bir kuni, albatta, quyosh yuragimdag'i ezgulik va mehr-shafqat tuyg'ulari uchun qaytadan porlaydi deb ishontirardim. Meni ranjitgani uchungina bir insondan hech qachon nafratlanmadim. Aksincha, o'zimni qilgan ishlarini unutgandek ko'rsatib, sabr qildim va kechirdim. Chunki men bir insondan qasos olishning eng yaxshi usuli uni kechirish deb hisoblayman. Agar bivor kishidan qasosingni uni kechirgan holatda oladigan bo'lsang, ham qilgan xatosini o'zi tushunib yetadi, ham ichida aybdorlik hissi uyg'onadi. Ammo kechirishingga qaramay hanuz bir narsalarni tushunib yetmayotgan bo'lsa, u insonni Allohga havola qilishdan boshqa chorang qolmaydi.



Sen - o'zingdek bo'l. Seni ichingdagi mayda zarralaringgacha xafa qilib, ranjitganlarga qarshi xuddi ulardek muomalada bo'lma. Ularga bunday imkoniyatni berma. Nafrat ham bir tuyg'udir - uni hammaga ham sarflama! Arzimas insonlar uchun, hatto nafrat tuyg'uyingni ham zoye ketkazma.

Senga qilinganlarni unut, demayman. Zotan buning imkoni yo'q. Bor-yo'g'i o'zingni unutgandek ko'rsat va kechir. Bu seni pastga urmaydi, aksincha, yuksakka chiqaradi. Chunki sen, senga dardi va pushaymonliklari bilan kelgan insonni kechirib yuboradigan darajada bag'rikeng va muruvvatlisani! Chunki sen ular kabi emassan. Chunki sen hamma qatori emassan. Chunki sen-sensan va sening ulardan eng katta farqing shunda!

Mirach Chag'ri Oqtosh

Inson qismatim deb o'ylagani
ajali bo'lib chiqishi ham
ishqqa bog'liq ekan.



To'siqlarga qaramay sevdik

Endi sizga biz kabi sevadiganlar uchramaydi

Ketishlari mumkin. Bizni yo'q deb hisoblasalar ham mayli. Hammasiga nuqta qo'yishlari ham mumkin. Sevmasliklari mumkin. Behuda umid berishlari mumkin. Jonimizga azob berishlari mumkin. So'z berib, ustidan chiqmasliklari ham mumkin. Qo'ynimizni puch yong'oqqa to'ldirishlari mumkin. Faqat shuni yoddan chiqarishmasinki, ketgan joylarida biz ularni sevganimizchalik boshqa birov ularga muhabbat qo'yaydi. Chunki biz undan avval hech kim sevolmaydiganchalik go'zal va besarhad sevdik. Chunki biz undan avval biron kim ular uchun bir tukini ham qimirlatmas ekan, katta javobgarliklarning, buyuk fidokorliklarning ostida qoldik. Chunki biz ularga o'tirgan joyimizdan sevishimizni izhor qiladiganlardan emasdik. Chunki biz asl oshiqlikning nima ekanligini juda yaxshi bilardik. Qalbimizdagi ishqqa buyuk bir ehtirom ko'rsatdik. Ehtimol, sariq chaqaga chiqqandirmiz, balki og'ir yaralangandirmiz, ammo biz baribir sevdik! Ketish o'z ixtiyorlariga havola. Biz ularni isitish uchun jonimizga o't qalar ekanmiz, ular borib o'zgalarning yonida sovuq qotishadi. To'xtatmaymiz, ketishsin. Borgan joylarida zarracha ham sevilmaganliklarini ko'rishsin va buni suyak-suyaklarigacha his qilishsin. Qo'yavering, o'zları yashab ko'rsinlar.

Ketish o'z ixtiyoringga havola. Men seni isitish uchun o'z jonimga o't qalar ekanman, o'zgalar senga "Seni sevaman!" deydi, lekin sen sovuqqotasan...



O'rganmang

O'rganmang deganda ko'cha boshida ko'rgan itingizni yoki o'qiyotgan kitobingizni nazarda tutmayman. Insonlarni aytayapman, insonlarni. Ularga o'rganmang. Azob chekasiz, yarim qolasiz, xayollaringiz puch bo'lib chiqadi, pushaymon bo'lasiz. Keyin esa, boshqa birovga ishonishni qo'yib turing, hattoki ko'chadagi boshini slashni istagan mushugingizga ham ishonchingiz qolmaydi. Insonlarga ishonishning badalini har doim eng og'ir shaklda to'laysiz. Sevasiz, ammo sevilmaysiz. Sog'inasiz, biroq sog'ingan kishingiz tomonidan ko'rmaslikka olinasiz. Qadrlaysiz, lekin qadrlagan insoningizning hayotida eng qadrsizga aylanasiz. Butun borlig'im deb sevgan insoningizning hayotida zarracha o'rningiz yo'qligini ko'rib, buning azobini suyak-suyaklariningzgacha his qilasiz. Gapning indallosi shuki, hayotim davomida eng og'ir zarbalarni eng ishonganlarimdan qayta-qayta yeb, to'yganimdan keyin insonlardan kutadigan boshqa hech narsam qolmadi. Ularga qattiq o'rganmayman. Chunki kimga o'rgansam, har doim azob chekaman, aldanaman, bo'laklarga bo'linaman va keyin parchalarimni yig'olmay qiynalaman. Bularga giriftor bo'lishdan ko'ra, hech kimga bog'lanmayman. Siz ham insonlarga o'rganib qolmang. Ular o'ta shafqatsiz. Undan ko'ra biror mushukka o'rganing.

O'qiyotgan kitobingizga ovuning, ana o'shangan o'rganing. Masalan, o'tirganingizda orom topadigan arg'umchog'ingiz bo'lsin, unga ega chiqing. Agar sevishni

istasangiz, moychechaklarni seving. Osmonni seving. Chag'alaylarga non ushog'i ulashishni seving. Yoki bo'lmasa, ko'chadagi daydi itni seving. Ammo qaytarib aytaman, insonlarni sevmang! Sevishga arziyidigan shuncha go'zalliklar bor ekan, ichingizdagi toza sevgini noloyiqlar uchun isrof qilmang.

**Hamma narsa o'z yo'lida ketayotganida,
to'satdan eng ishongan kishing ishonchingni poymol
qiladi. Insonni eng ko'p qiynaydigan narsa mana shu.**

Mirach Chag'ri Oqtosh

**Hayot qisqa,
siz esa qalblarni
chil-chil sindirmoqdasiz...**



To'siqlarga qaramay sevdik

Tangri kechirmasin

Mening aslo insonlarni osonlikcha qarg'aydigan odatim yo'q. La'natlashga munosib bo'lgan insonlarga ham ko'z yumaman. Menda shunday bir vijdon bor-ki, qalbimni sindirganga zinhor ayni ishni takrorlay olmayman. Menda hech qachon "Mening jonimga azob berdi, endi men ham qalbini parchalayman", degan qasos tuyg'ulari bo'lmasdi. Men hamisha ilohiy adolatning odilligiga ishonib yashadim. Dilimni og'ritib ketganni qarg'ash o'rniiga, uni dilimning Egasi hukmiga havola qildim. Zero, U hamma narsaning eng afzalini biladi, dedim. Chunki biror insonni qarg'agan kunimning tunida ko'zimga uyqu kelmaydi. Ko'nglim g'ashlanadi...

Har doim boshqalar ranjimasin deya o'zimni xafa qilaman. O'sha boshqalar meni ranjitganlar, azoblaganlar, tilka-pora qilganlar bo'lsa ham, baribir ularga ozor yetmasin deb o'zimni qalqon qilaman.

Qarg'amayman, lekin pok qalbli insonlarning top-toza tuyg'ularini kirlatganlarni Tangri kechirmasin. Sevgani uchun qo'lidan kelganini emas, nafaqat qo'lidan, balki ko'nglidan kelganidan ham ziyodasini qilganlarning barchasini oyoq osti qilganlarni ham Tangri kechirmasin. "Nima qilsam ham, meni telbalarcha sevadi", degan o'yning bergen xotirjamligida tuyg'ular bilan o'ynashganlarni ham Tangri kechirmasin. Qalbidagi muhabbat sabab, hovuchida nima bo'lsa, to'kib-sochganlarni mensimagan insonlarni ham Tangri kechirmasin.



Hammadan qochib, sevgan insonini o'zining qalb ummonining sohili hisoblab, birgina unga oshiqqan va talpingan, oxir-oqibat uni bo'roni dahshatli ummon ichiga g'arq qilib ketganlarni ham Tangri kechirmasin. Sevgan insonlariga qo'rg'on bo'lishni istaganlarni ko'chada qoldirganlarni ham Tangri kechirmasin. Hayotida yagona suyanadigan ustuni hisoblab, ular suyangan ustunlarini qulatgan insonlarni ham Tangri kechirmasin. Ranjigan, ezilgan va tilka-pora qilingan holda, faqat sevgani sababli kechirib yuborgani uchun pushaymon qilganlarni ham Tangri kechirmasin.

Sevgan inson tark etmasin. Sevmaydigan inson aslo kelmasin. Sevadigan odam sevgisini his qildirsin. Quruq izhor bilan kifoyalanmasin.

Ey, Tangrim! Ko'pgina insonni vijdonim sabab kechirdim. Ammo o'tinaman, Sen kechirma. Chunki Sen qulingga bergan va Senga ishongan bu qalbga ziyon yetkazdilar. Men kechirdim, ammo yolvoraman, Sen kechirma.

Minnatdorman

Hayotimga kelib-ketgan insonlarning menga yetkazgan aziyatlari uchun ulardan minnatdorman. Agar hozir ulardan birortasi hayotimda mavjud bo'lganlarida, men bu minnatdorlik tuyg'usiga ega bo'lolmasdim. Nima uchun deysizmi? Chunki hozir ularning soyasida ehtiyyotkorman va qalqonlarim bor. Qadamlarimni yanada shaxdam bosayapman. Avvalgidek insonlarga osonlikcha ishonib ketmayapman. To'g'rirog'i, ishonolmayapman. Masalan, oldingidek qiziqqon emasman, hislarimni jilovlay olaman. Avvallari birgina sms xabar hayajonlantirgan meni, hozir, hatto quchishlar ham hayajonga sololmaydi. Shuncha vaqtidan beri "Shoshma, shunga ham ishonib ko'raychi, balki u ishonchimni oqlar, balki bu safar hammasi o'zgacha bo'lar", deb o'ylaganim boisidan orqamdag'i pichoq izlarining kolleksiyasi uchun ulardan qarzdorman. To'g'ri, bu azob beradi, og'ritadi, ammo ulg'aytiradi.

Ishonch bog'lab, ko'ngil qo'yan insonlaringiz sizni yolg'iz tashlab ketishidan g'azablanmang. Ulardan nafratlanmang. Balki ularga rahmat ayting. Sizni ulg'ayishingizda va o'sishingizda, o'zingiz uchun, munosibini tanlashingizda va bundan keyin yana ham ehtiyyotkor bo'lishingiz uchun yordam berishgani va beparvo insonlarning to'dasiga o'ylamay kirishning oqibati qanday bo'lishini o'rgatganlari uchun, hatto ulardan qarzdorlik hissini tuying. Agar ular bo'limgaganida, hech narsaning farqiga bormay, qalbimizdag'i xolis tuyg'ularimiz bilan qiyomsiz insonlarning qalblarida shu zaylda sudralib o'tib ketardik.



Ammo yaxshiyamki, ularga ishonganda bizni yolg'iz tashlab ketishdi, yarim yo'lida tashlab ketishdi. Jonimizning qiynalishi muhim emas. Asl masala kimning qandayligini vaqtida ko'rishdir. Hamma narsaning asl yuzini ko'rganingdan keyin, qayerdan boshlab ortga qaytma, buning senga zarari yo'q. Muhimi hissiz insonni butun qalbingdan chiqarib tashlappingdir. Shu bilan unga nisbatan tuygan qarzdorlik hissingni ham, unga qo'ygan muhabbatningni ham qaytarib olgan hisoblanasan!

**Meni umuman ahamiyatga olmaganing uchun
sendan g'azablanganim yo'q. Havotir olma,
qarg'ash sira xayolimga kelgan emas. Sening
soyangda qalbingning asl holatini ko'rdim.**

**Buning uchun sendan qarzdorman.
Bir paytlar senga butun borlig'im deya nazar solar
edim-ku, endi esa sendan sening sharofating bilan
voz kechayapman.**

Baribir ishonaman

Biz sevishdan va sevilishdan boshqa narsaga umid qilmaydigan insonlardan edik. Qalbimizni parchalashdi. Bir kuni qisqa bir jumla o'qigandim: "Ehtimol men har doim yoningda bo'lolmasman, ammo iforam hamisha sen bilan birga bo'lsin. Qo'llarimning taftini doimo qo'llaringda his qil. Bilaklarimizni har on bir-biriga yopishgan deb faraz qil. Buni shuuringga muhrla. Seni juda qattiq sevaman!" Shu jumla atab yozilgan insonning o'rnida bo'lishni va shu qadar kuchli sevilishni istardim. Ammo guvohi bo'lganiningizdek, kuchli sevilishni bir chetga qo'yib turing, qarshimizdan chiqqanlar qalbimizdagи tuyg'ularni abadiy deb o'ylab, ahamiyatga olishmaydi. Boshida o'zlarini hammadan boshqachadek his qildirib, oxir-oqibat, aslida, ularning ham hech kimdan farqi yo'q ekanligini ko'rsatishadi. Ehtimol buni uddaburonlik deb o'ylashar, lekin insonlarning tuyg'ulari bilan o'ynashish hech qanday insoniylik qonun-qoidalariga to'g'ri kelmasligini bilishmaydi.

Biroq shunday bo'lsa ham, men bir joylarda hanuz moychechakdek nozik qalb egalari borligiga ishonaman.

Agar unday bo'lmanida, moychechaklar bunchalik xushbo'y taratmasdi. Moychechaklarning bu qadar yoqimli ifor taratishining biror sababi bo'lishi aniq. U ham moychechak isi taralgan tuyg'ulardir. Balki boshqa bir insonlarning ichida, balki o'zga bir tuyg'ularning ichida, balki boshqa muhabbatlarning ichida, ammo mutlaqo bir joylarda moychechak misol nozik qalbli insonlar bor. Va



shubhasiz, eng chiroqli shaklda sevadiganlar mutlaqo moychechak misol zarif qalbli insonlardir.

**Taassufki, biz bir moychechak donasi edik va bizning
ko'z o'ngimizda boshqa gulni hidlashdi.
Bu ham bizning eng katta chorasizligimiz,
ularning esa eng og'ir aybi edi.**

Orzuimizdagilar

Bu hayotda atrofimizga go'zal qalbli insonlarni yig'ishimiz kerak. Mushkulotga yo'liqqa ningda ortini o'girib ketadigan emas, aksincha, senga bag'rini ochib, taskin beradigan insonlar lozim. Bergan mehrmuhabbatingni va qiymatingni his qilib, o'zgaradigan emas, yanada samimi bo'ladigan insonlar lozim. Qilar ishni qilib qo'yib, uzr so'raydigan emas, o'zini kechirim so'raydigan holatgacha olib kelmaydigan va qadrlagan insonni boshida ko'taradigan insonlar lozim. Biron joyga o'tirganingda, ikkita choy buyurib, choyni qachon tugaganini va o'tgan vaqt ni payqamay qoladigan darajada bir-birimiz bilan jipslashib ketadigan insonlar lozim. Faqatgina baxtiyor onlarda emas, qayg'uli kunda ham o'rtoq bo'ladigan insonlar lozim.

Eng mayda narsalardan bahona topib, ketadigan emas, qolib, barcha muammolarni yechish uchun birga harakat qiladigan insonlar lozim. Kishining yarasiga tuz bosadigan emas, o'sha yaraga malham bo'ladigan insonlar lozim. Ko'rgan har qanday aloqalarga aldanadigan emas, sadoqat va vafoning nima ekanligini idrok qiladigan insonlar lozim. Kuladigan voqeaga bir paytda kulib, g'amga botadigan biror voqeadan birga ta'sirlanib, birga kuyinadigan insonlar lozim. Birgina qarashimizdan bizni tushunadigan insonlar lozim.

"U buni yoqtirmaydi, u buni yemaydi, u buni kiymaydi," deydigan darajada yaqindan taniydigan insonlar lozim. Anglaydigan insonlar lozim. Tushunadigan



insonlar lozim. Tushunishni eplaydigan insonlar lozim.
Odam bo'lish oson. Bizga ko'chada, uyda, odamlar orasida,
yolg'izlikda, hech narsaga qaramay, inson bo'lib qolishni
uddalagan insonlar lozim. E'tibor bering, inson bo'lib
qolishni uddalagan deyapman. Insoniylikni faqat "inson"
so'zida qoldirmagan insonlar lozim.

**Xayollar bizniki. Hayot esa sizniki.
Biroq hammamiz hissizmiz.**

Yashab o'tilganlar

Bu hayotda atrofimizga go'zal qalbli insonlarni yig'ishimiz kerak, dedik, shunday emasmi? To'g'ri, lekin hech qaysimiz bu borada uddaburon emasmiz. Masalan, bolaligimda qo'limga tushgan pullarni yig'ishga harakat qilardim, ammo ikkinchi yo uchinchi kuni ko'nglim shokolad yoki boshqa biron narsa tusab qolardi va yiqqan pullarimni birpasda sarflab yuborardim. Bolaligimda men yig'ishni istagan va eplab yig'olmagan o'sha pullarga qilgan muomalamni, ulg'ayganimda insonlar menga nisbatan qo'llay boshlashdi va bu hanuz davom etmoqda.

Insonlar shu qadar shafqatsizki, senga orqalarini o'girib ketish uchun sening og'ir ahvolga tushishingni kutib o'tirmaydi. Insonlar shu qadar shafqatsizki, qadrlayotganiningni sezishi bilan darhol o'zgaradi va sendan uzoqlashishni boshlaydi. Insonlar shu qadar shafqatsizki, miyalarida uzr so'rashni fazilat deb o'ylab, qalbingni tilka-pora qilgandan keyin kechirim so'raydi va bu ham yetmagandek, qilgan ishi uchun o'zini juda olivjanob inson deb hisoblaydi.

Insonlar shu qadar shafqatsizki, buyurtirilgan choyni hamsovutishadi. Insonlar shu qadar shafqatsizki, hatto eng og'ir kuningda ham dard ustiga chipqon bo'lishadi. Insonlar shu qadar shafqatsizki, o'rtada tark etib ketishga arzirli sabab yo'q ekan, ketish uchun bahonalar izlashadi. Insonlar shu qadar shafqatsizki, umid berishadi, sevaman deyishadi, xuddi hech qachon ketmaydigandek harakat qilishadi va natijada yo'lning o'rtasida tashlab



ketishadi. Insonlar shu qadar shafqatsizki, yarangga malham bo'lishning o'rniغا, tuz bosib, joningni battar qiyashadi. Insonlar shu qadar shafqatsizki, ko'rsatilgan har bir e'tiborga nisbatan eshiklarini lang ochishadi. Insonlar insoniylikdan shu qadar uzoqki, ortga qaytish uchun ishlab chiqarilgan hech qanaqa chipta o'rtadagi masofaga chek qo'yolmaydi.

**Men orzu qilgan narsalar nomunosib insonlarga
tuhfa qilingan kundan buyon hayotning samimiyatiga
ishonmayman.**

Aldanganlar guruhi

Aldangan insonlarning yuragida ko'tarib yuradigan dardlarini yaxshi bilaman. Hattoki, juda yaxshi bilaman. Ushbu dardga qarindoshlik rishtalari qadar yaqinman. Bir insonning aldanishi faqatgina boshqasiga almashtirilishi yoki o'rniga boshqasi qo'yilishi degani emas. Sevgan insonga berilgan so'zning ustidan chiqmaslik ham aldashning bir ko'rinishidir. Aldashning va aldanishning ham bir qancha ko'chasi mavjud. Men o'sha ko'chalarining borsa kelmasiga kirgan va u yerdan soppa-sog' chiqqan bir insonman.

Insonlar menga "Sen hali juda yosh bo'lsang, bunchalik dard-alamni qachon ko'rib ulgurding?" degan tushuncha bilan qarashadi. Hammamiz ham odam bolalarimiz. Ahamiyatga olmaslik bizning fitratimizda bor, buni tushunaman. Ammo sizga bir tavsiya: hech kimning dardini zinhor kichik sanamang. Kun kelib, o'sha kichik sanagan dardingizni burningizning tagida ko'rib, keyin nola qilasiz.

Yaxshisi mavzuni burmaylik, aldanmoq dedik... To'g'ri, aldangan inson qayerga bormasin o'sha yuragida ko'tarib yurgan qaynoq va top-toza og'rig'i bor-ku, ha, ha, aynan o'sha og'riq... Bu og'riqni totganingiz bormi? Shu ham savol bo'ldi-yu, albatta, bor. Yo'qsa, aldanmagan inson qolibdimi oramizda?

Aldandik biz, al-dan-dik! Qo'limizda, hovuchimizda nima bo'lsa berdik, lekin aldandik. O'zimiz yarim bo'lган holda, yarim qolganlarni to'ldirdik, baribir aldandik. Biz



yana har doimgidek yarim qolganlar rolini o'ynadik va
hech kim tomonidan to'ldirilmadik. Bunga muhtoj ham
emasdik. Chunki yarim qolishga ham odatlangandik.

Niyatimiz toza edi - hamisha yoningdaman,
deganlarga aldandik. Ming shukrki, aldagani tomon aslo
biz bo'lmadik. Chunki aldanishdan ortib unga fursat
topmadik. Biroq topganimizda ham biz birovni zinhor
alday olmasdik. Chunki biz moychechak misol zarif qalbli
insonlar edik. Agar aldaganimizda moychechaklarning
yoniga sira yarashmasdik.

**Sizni sevgan insonlarni aldaydigan darajada
subutsiz bo'lmaning. Qolganini tuzatsa bo'ladi.**

Hammadan qochib, faqatgina bir inson bilan ovunishga Ishq deyilsa, Sen eng go'zal ishqsan

Yashab turib, o'lish nima ekanligini uni sevganimdan keyin bildim. Yuragim urayotgan bo'lishiga qaramay, qora tuproqning ostida yotgan jonsiz bir tanadan farqim yo'q edi. Ko'rmaganim bir shu qolgandi, buni ham ko'rdim, paymonam to'lди. Bu o'ta og'ir bir yuk edi. Sevgan insoningning ko'zlariga boqqan har lahzangda, uning ham sening ko'zlariningga har boqqanida, o'zingni emas, mutlaqo boshqa birini ko'rishning beradigan og'rig'ini izoh qilish o'ta mushkul va og'ir. U ko'zlarimga qaraganida, sevgan kishisini, o'lgan sevgilisini ko'rardi. Men ham unga boqqanimda, menda sobiq sevgilisini ko'rayotganini ko'rardim... Men u uchun bor-yo'g'i bir oyna edim. Yana o'sha film, yana o'sha yakun – ko'rinish turganidek men bu sevgida ortiqcha edim.

Ismimni qo'yib turing, hatto borligimdan ham xabari bo'limgan bir qizga nisbatan yuragimda o't bo'lib yonayotgan bu ishq meni har kuni o'z ummoniga cho'ktirardi. Cho'kayotganimning sababi suzishni bilmasligimda emas, unga meni cho'ktirishi uchun ruxsat bergenimda edi. Men har qancha urinib, bu jazavasi tutgan bo'ronli ummondan suzib, sohilga borsam-da, uning sevgan odami uchun ichiga oqizayotgan ko'z yoshlariغا cho'kib ketardim.

Yuragimdagи unga nisbatan tuyg'ularim sababli, uning ko'z yoshlariغا meni cho'ktirishi uchun har kuni ijozat berdim. Buni u xohlamadi, o'zim istadim. Jonimning



og'rig'ini suyak-suyaklarimgacha his qilsam ham, bizdan sira voz kechmadim. Balki biz degan narsaning o'zi yo'q edi, men shunday faraz qilgandirman. Hammasiga qaramay, agar cho'kayotgan paytimda qutilishga uringan bo'lsmam, nomardman. "Sevaman" dedim va faqatgina sevish bilan kifoyalanmay buni his qildirdim.

Natijadami? Yana yo'qotgan men bo'ldim...

**Insonlar tomon bir qadam tashlashga ham madorim
yo'q edi. Ammo sen tomon yugurishdan sira
to'xtamadim.**

Mirach Chag'ri Oqtosh

**Hech narsaga qaramay sizga ishongan
va sevishda davom etgan
insonlarni qo'ldan chiqarmang.**



To'siqlarga qaramay sevdik



Bu hikoya seni ko'rgan onimda boshlandi

Istanbulda ikki yil yashab, keyin Antaliyaga qaytib ketdim. Ko'chib yurish tashvishi meni yaxshigina charchatgandi. Istanbul juda go'zal shahar edi, ammo gavjumligi halovatimni olgandi. Antaliyaga joylashganidan keyin bamaylixotir nafas olishni boshlagandim. Qayerda bo'lmaylik, baribir insonning o'z tug'ilib o'sgan shahri chindan ham boshqacha bo'lar ekan. Bu o'tgan muddat oralig'ida buni juda yaxshi angladim.

Yangi uyga ko'chib o'tganidan keyin o'qishimni ham boshladim. Ammo negadir qayta ko'nikolmadim. Nimaiki yuz bermasin, bir narsaga boshidayoq ko'nglim isimasa, jahannamning otashi kelsa ham foydasi bo'lmaydi. Agar boshidayoq ko'nglim chopmasa, keyin ham chopmaydi.

Kasallik alomatlarining yanada ortishi natijasida bobomga limfoma saratoni degan tashxis qo'yildi. Bir qancha muddatdan so'ng kasallik avjiga olib, uni to'shakka mixlab qo'ydi va kimyoterapiya boshlandi. Bobom juda ozib-to'zib, suyaklarini sanasa bo'ladigan holga kelgandi. Ikki oydan ziyod kasalxonada qoladigan bo'ldi va keyin bu oylab davom etdi.

Nimani xohlasam, bo'lmaslikka qasam ichgan davrlarning yomg'irli bir chorshanba kuni soat 12:15 da bobom yotgan kasalxonaning sakkizinch qavati oxiridagi derazaning yonida uning yig'lab turganini ko'rib qoldim. Yomg'ir tomchilari derazaga tomar ekan, uning ko'zyoshlari



yanoqlariga tomardi. Biz turgan qavatdagi hamshiralar tushlik qilishga chiqishgani uchun koridorda hech kim yo'q edi. Beligacha tushgan tim qora sochlari bilan ko'z yosh to'kar ekan, derazaga kelib urilayotgan yomg'ir tomchilarini tomosha qilayotganga o'xshab ko'rinaridi.

Sekingina yoniga yaqinlashdim va "Senga nima bo'lди, ahvoling yaxshimi?" deb so'radim. "Meni holi qoldir", deya javob berdi. Boshqa hech narsa demay, u yerdan uzoqlashdim. O'sha damda u meni ko'rmaganga olgandi. Ammo men uni bobom yotgan palataning yon tomonidagi palatada ko'rgandim. Kasalxonadan turli xil dori-darmonlar hidi anqib turishiga qaramay, men uning iforini his qilgandim. Uning o'zgacha bir ifori bor edi. Bobomning yoniga kirdim va biroz muddat o'tganidan keyin palatadagilar bilan xayrlashib, kasalxonadan chiqdim. Bobomning yonida o'sha kuni xolam qolgandi. Xolalarim o'zaro kelishib olgancha, kunora navbatni kelgani bobomning yonida qolardi. Bu kelishuvga onam ham qo'shilgan edi.

Bir kuni bobom gazeta o'qishni yoqtirgani uchun, kasalxona do'konchasidan gazeta sotib olib, to'g'ri palataga chiqaman dedim. Do'kon yonida ko'zim yana unga tushdi. U ham nimalardir xarid qilayotgandi. Men gazetani olib, darhol do'konchadan chiqdim. Liftning yoniga kelganimdan bir ikki daqiqa o'tib u ham keldi. Liftga chiqib, sakkizinch qavatga birga ko'tarildik. Liftda to'rt kishi edik. Sakkizinch qavatga chiqquncha, qolgan ikki kishi boshqa-boshqa qavatlarda tushib qoldi. Yolg'iz o'zimiz qolganimizda ham gaplashmadik.



Liftning tovushi quloqlarimizni shang'illatar, ko'zlarim esa liftning ochiladigan eshigiga qadalgandi. Birdan lift eshiklari ochildi va u chuqur nafas chiqarib, "Rahmat", dedi. Ochig'i, buni hech kutmagandim. Biroz dovdiradim va bir og'iz ham so'z demay, bobomning palatasiga kirdim. Gazetasini berdim, bobom menga mamnun chehrasi bilan boqdi. "Nabira degani mana shunday bo'ladi" degandek past ovozda ming'irlab qo'ydi. Unga qarata men ham shunday deyishni istardim, ammo nachora, borligining o'zi yetadi deya ko'nglimdan o'tkazdim. Bir kun bo'lsa-da boboligini ko'rмаган bo'lsam ham, baribir u mening jondan aziz onamning otasi edi.

Palatadan chiqqanimda deraza yonida yana uni ko'rдим. Yana orqasini menga o'girib olgandi. Sochlari yana yoyilgan, beliga chirmashib turardi. Sochlаридан taralayotgan shampun hidini yo'lakning boshidan ham sezа olardim. Bir muddat unga tikilib turganimidan keyin ortiga o'girildi va nigohi menga tushdi. Jilmaygandek bo'ldi, keyin esa, "Bu yerga kelsangchi", dedi. Bir muddat dovdirab turganimidan so'ng "Shu turishda yaxshi, axir xoli qolishni xohlaysan-ku!" dedim. Keyin u qo'llarini pidjaginiн cho'ntagiga solgancha, menga yaqinlashdi va "O'tgan kun uchun aybga buyurma, juda tushkun edim. O'ylashimcha, seni biroz ranjitgan ko'rинаман", dedi.

- Bo'lishi mumkin, dedim.
- Qani, yur. Seni choy bilan siplayman. Meni yomon xotira bilan eslab qolma.
- Men choyni xushlamayman.



- Unda qahvaga nima deysan?
- Ma'qul.
- Unday bo'lsa, sen meni liftning yonida kut, men tezda ichkariga kirib chiqay, dedi.

Kelishib olganimizdan keyin men ham palatada bir ko'rilib, uni liftning yonida kutdim. U darrov keldi va kasalxonaning oshxonasida o'tirib, dildan suhbatlashdik. Jemre ichkilik va qimor sababli oilasidan yuz o'girgan va hozirda lemfoma saratoni tashxisi qo'yilgan bir otaning qizi ekan. U adabiyot fanining bitiruvchisi, ammo sohasini davom ettirolmaganlardan biri ekan. Otasining qilmishlari onasini va Jemreni adoyi tamom qilibdi.

Otasi ichkilik va qimorni deb ulardan yuz o'girgan, keyin uydan chiqib ketgan, qo'lidagilarini, cho'ntagidagilarini, umuman, bisotidagi bor-budini yo'qotganidan keyin pushaymon bo'lib, uyiga qaytib kelibdi. Jemre va uning onasi noilojlikdan ishonib, o'sha odamni yana qabul qilishibdi. Ilgari o'ziga to'q oila bo'lishgan ekan. Ammo otasining hayotiga ichkilik va qimor kirib kelganidan keyin butun bor-budlaridan ayrilishibdi.

O'sha kuni uning hikoyasini astoydil tingladim. Mening hikoyamga o'tish uchun fursat topolmadik. Men gapirishdan ko'ra ko'proq qarshimda o'tirgan insonni tushunish uchun butun diqqatimni jamlashni yoqtirganim sababli o'sha kuni ham faqat uni tinglagandim. Oxirgi vaqtlarda ichidagilarni birovga to'kib solmagani uchun to'lib ketgani ko'rilib turardi. U shunchalik shirali ovozda gapivardiki, jumlalarining birontasini ham bo'lmadim.



Bo'lolmadim. Gohida seni tushunishlarining o'rniga, sen kimnidir tushunishing ham insonni yaxshigina tinchlantira oladi. Uni shu tarzda tanidim. Bizning yo'limizni kesishtirgan narsa vijdonlarimiz edi. Jemre o'zidan yuz o'girgan otasini kechirgan va ayni damda kasalxonada uning yonida edi. Men ham yillar bo'yи onamga "Bu bolalardan senga foyda yo'q, ularni mehribonlik uyiga toshirib yubor" deya, meni va ukamni mehribonlik uyiga topshirishi uchun onamga bosim o'tkazib, bizni ko'chaga haydagan bobomning yonida edim. Yo'llarimizni vijdon birlashtirganidan tashqari, o'sha kuni tanishganimizda ikkimizning yuzimizda ham g'am zohir bo'lgandi. Jemre meni tanimas edi, lekin kitoblarimni ko'rgan edi. U kitob mutolaasi uchun ajratadigan har bir fursatini qadrlaydigan insonlardan edi. O'z sohasini davom ettirolmaganiga qaramay, oilasiga ko'mak berishi lozimligi uchun mayda yumushlar bilan band bo'lgan va otasining betobligi sababli oxirgi ishlaydigan joyidan ham bo'shashga majbur bo'lgandi.

Bir qancha vaqt o'tib, Jemrening otasiga kasalxonadan javob berishdi. Biz bo'lsa, yana bir necha kun kasalxonada qoldik. Ammo shu fursat ichida Jemre bobom va meni yolg'iz tashlab qo'ymay, bizni ko'rgani keldi. Uning bu harakati sadoqatli inson ekanligining belgisi edi. Kichik narsalarga ham katta ahamiyat beradigan inson bo'lganligim uchun u kasalxonadan chiqqanidan keyin bizni ko'rgani kelishi meni baxtiyor qilgani bilan birga juda ta'sirlantirgandi ham. Hattoki u bir kuni kasalxonaga kelganida bobomga o'qishi uchun gazeta olib kelib, bizni



hayratga solgandi. Aynan, o'sha kuni u hayotimdagи о'rnini chinakamiga mustahkamlagandi. U buni ko'zbo'yamachilik uchun emas, haqiqatan ham vafodor bir inson bo'lganligi uchun amalga qilgandi. Hozirgi vaqtida bunday insonlarni uchratish deyarli imkonsiz bo'lsa-da, men shunday qiz bilan tanishganim uchun ich-ichimdan sevinardim.

Kunora navbat almashib qolayotgan xolalarimning ancha horigan va ezilganlarini sezganimdan keyin, bobomning yonida ikki kun o'zim qoldim. Bobomning yonida qolgan kunimning yakshanba tongida Jemre kichkina savati bilan xonaga kirdi. U yakshanba kuni navbatchilik qiladigan hamshira bilan tanish bo'lganligi uchun biz turgan qavatga yeguliklar solingan savatni bemalol kiritgan, bobom ikkimizga nonushta uchun turli xil yeguliklar olib kelgandi.

Damolish kунидаги илк нонусхта мизни касалхона нинг онкология (sarotonga chalingan bemorlarni davolash bo'limi) qavatining bir xonasida qilgandik. Men bu nonushtani besh yulduzli mehmonxonadagi yoki boshqa biron hashamatli joydagi hech qanday nonushtaga almashmasdim. Almasholmasdim. O'sha kuni ichimda chinakam baxtni his qilgandim. Unga bu uchun qancha rahmat aytsam ham kam edi. Men birgina minnatdorchilik bilan kifoyalanib qololmasdim.

O'zimni undan qarzdordek his qildim. Kelasi hafta yakshanba kuni ertalab ko'zlarimni ochganimda soat to'qqizni ko'rsatardi. Uyg'onishim bilan o'z-o'zimga "Qani, bir quchoq moychechak ol. Eshigiga bor va uni olib, unutilmas bir yakshanba nonushtasini tashkil qil",



dedim. Fursatni boy bermay, o'rnimdan turdim va ustimni almashtirib, yo'limni gul do'koniga qarab burdim. U uchun moychechaklardan go'zal guldasta tayyorlatdim. Hayotimda ilk bor ayol kishi uchun moychechak xarid qilayotgandim. Buning hayajonida uyiga eltadigan yo'lni unutdim. Uning ko'chasiga kirganimda, ichimda ta'riflab bo'lmaydigan baxt-u saodat barq urar, qorin bo'shlig'imda go'yo kapalaklar parvoz qilayotgandek tuyilardi. Uyining yon tomoniga mashinamni joylashtirib, qo'limga telefonimni oldim va eng avval unga sms xabar jo'natib, keyin esa qo'ng'iroq qilmoqchi edim. Ko'zim bexosdan yon tomondagi o'rindiqda turgan moychechaklarga tushdi. Negadir jilmaydim. Keyin esa unga aynan shunday xabar yozdim:

"Jamol Surayyoning ta'kidlaganidek, baxtning nonushta bilan bog'liqligi bo'lsa kerak. Qolaversa, u yoningdaligida sen orom topadigan inson bilan qilinadigan nonushta bo'lsa ayni muddao... Qani, uyg'on. Uyingning yonidaman. Tayyorlanib chiq, birga nonushta qilishga keldim".

Sms xabarni jo'natganidan so'ng Jemrega qo'ng'iroq qildim, ammo u javob bermadi. Yana qo'ng'iroq qildim, baribir go'shakni ko'tarmadi. Kamida o'n marta qo'ng'iroq qildim, undan sado chiqmadi. Yarim soatdan ko'proq uning uyg'onishini mashinaning ichida kutdim. Soat o'n birga yaqin bir xabar keldi. Qarasam Jemredan ekan:

- Nimalar bo'lyapti?
- Nimalar bo'lyapti deganing nimasi? Chindan ham



yozgan xabarimga munosabating shumi? Birga nonushta qilamiz, sen xursand bo'lasan deb o'ylagandim.

- Afsusdaman, ammo borolmayman, degan javobni olganimdan keyin qo'llimda telefonni tutgancha bir muddat gangib qoldim.

Bir moychechaklarga, bir telefonga qaradim. Bu qanday tasodif bo'ldiki, o'sha paytda mayin tovush bilan radioda "Men eng katta xatoni senda qilibman, tosh qalbingdan ishqni izlabman, bunga noloyiq ekansan", deya xonish qilardi hofiz...

Jemredan kelmasligi to'g'risidagi xabarni olganimdan so'ng biroz sukut saqladim. Keyin esa birgina "Yaxshi", deya oldim. Moychechaklarni ham orqa o'rindiqqa tashladim. Chindan ham juda xafa bo'lgandim. Xursand bo'ladi deb o'ylagandim, yanglishibman.

Ba'zan baxtiyor holda ko'rishni istagan insonlarimiz uchun bir narsalar hozirlaymiz, keyin ularning bunga nisbatan befarqliklarini ko'rib shashtimiz tushadi va tomog'imizda achchiq bir ta'mni his qilamiz-k, o'sha tongda menda ham aynan shunday hol yuz bergandi. Undan ranjiganimni va g'azabimni oshkor qilmay, uyga borib uxladim. Uyg'organimda esa kun allaqachon qoraygan ekan. Telefonga qaradim. Jemredan xabar kelibdi, unda shunday yozilgandi:

"Mendan xafa bo'lmaiding, to'g'rimi? Xayolim senda qoldi. Agar kecha kechqurun ogohlantirib qo'yaningda, men ham shunga qarab tayyorgarligimni ko'rardim. Shunday bo'lsa ham uzr so'rayman. Buni to'g'irlasak bo'ladi deb o'layman". Men esa unga ranjigan bo'lsam



ham, xafa emasligimni aytdim. Ichki ovozim esa "Nega yolg'on gapiryapsan? Ertalab bo'g'zingda his qilgan o'sha achchiq ta'm haqida unga aytib bersang bo'lmaydimi." deya meni siquvga olardi.

"Xafa emasman. Bor-yo'g'i o'tgan hafta meni quvontirganing uchun men ham senga kutilmagan sovg'a qilishni istagandim. Ataylab ogohlantirmadim. Havo juda ochiq edi. Tashqarida qilingan nonushta ikkimizga ham xush yoqadi deb o'ylagandim. Pijamalaring bilan kelsang ham bo'lardi. Ammo mayli, o'tgan ishga salovat", deya xabariga javob berdim.

Undan esa, "Men u ishni evaziga nimadir qaytar yoki meni ham quvontir deb qilmagandim. Shunchaki ko'nglim shunga buyurgandi. O'zingni qarzdor deb hisoblama", degan javob keldi.

Bor-yo'g'i unga atab olgan moychechaklarimning qalbi singandi...

Mirach Chag'ri Oqtosh

**Yaxshiyam borsan, degan insonlarni
yo'qotish Insonni chinakamiga charchatadi.**



To'siqlarga qaramay sevdik



Gohida hech narsani istamaysan. Hech kimdan va hech narsadan umiding bo'lmaydi. Ko'zlarining hech kimni ko'rishni istamaydi. Faqatgina bir insonni orzu qilasan va birligina o'sha inson bilan ovunishni istaysan. Faqat o'sha inson bilan gaplashganingda, birligina uni yonidaligingda o'zingni xotirjam va kuchli his qilasan. Mendagi his ham xuddi shunday edi. Uning yonida o'zimni juda ahamiyatli va kerakli hamda kuch-quvvatga to'la his qillardim.

Kun o'tgan sari bir-birimizga o'rganib bordik.

Hozir turgan joyimdan o'tmishimga, sevgan insonlarimga, qadrlagan insonlarimga va muhim sanaganlarimga bir qur nazar soldim. Hammasi sariq chaqaga qimmat edi. Arzimaganlarga nimalarni va'da berdim, kimlarni sevdim, nimalarni fido qildim, nimalarni boy berdim. "Shu qadar qisqa muddat ichida meni baxtli qila olgan inson uchun nimaga borimni bermas ekanman?" deb o'zimdan so'radim. Hayotda koshki deyishdan nafratlanadigan inson ekanligim ham unga ishonishim uchun muhim ro'l o'ynardi.

"Ehtimol yana yo'qotarman, ammo bu gal yo'qotadigan men bo'lmasam yaxshi bo'lardi", dedim o'z-o'zimga. Chunki insonlarni yo'qotishdan juda charchagandim va shu boisdan ham ancha vaqlardan beri yana yo'qotish azobini totmaslik uchun hayotimga hech kimni kiritmayotgan edim.

Ulkan nurashlarni boshdan o'tkazganing uchun, yarim yo'lida tashlab ketilganing uchun, og'riqni suyak-suyaklarininggacha his qilganing uchun yana qayta bularga yo'liqmay deb o'zingni muhofaza qilishni boshlaysan va

hech kim hayotingga dahl qilishiga izn bermaysan. Yaqin yo'latmaysan, ishonolmaysan, hadiksiraysan. Ammo biroz vaqt o'tib, yana sevib qolasan. Qo'rqsang ham yuragingni sevishdan mahrum qilolmaysan va o'zligingni oshiqlikdan topasan.



Dard deganing so'z uqmaydi, faqat zabitiga oladi

Onamning ikkinchi turmushi besh yil davom etib, oxiri eri bilan ajrashishga qaror qilishdi. Bu xabarni eshitib, eng ko'p kichik ukam Yigit uchun juda qayg'uga botdim. Bu qayg'u meni ancha vaqt notinchlikka tushirib qo'ydi.

Yigitning ham boshdan kechiradiganlari meniki bilan bir xil bo'lishini sira istamas edim. Chunki otasizlik naqadar og'ir va achchiq bo'lishini juda yaxshi bilardim. Shu boisdan mening boshdan kechirganlarim Yigitning ham boshiga tushmasin deya onam va uning turmush o'rtog'inining yoniga borib, bu to'g'risida gaplashdim. Ammo devorga gapirgandek bo'ldim. Ular allaqachon bir qarorga kelishgan va o'zaro kelishilgan holda sudga ham ariza topshirishgan edi. Vaqt o'tib esa, onamning xiyonat ko'rganini bildim va o'sha kasni odam o'rnidagi ko'rib, yoniga borib gaplashganim uchun o'zimidan nafratlandim. Biroq u vaqtda bulardan bexabar edim-da... Insonlar shu qadar tuban, shu qadar jirkanchki, bunga o'sha damda yanada amin bo'ldim. Onam bilan u odam ajrashdi va Yigitning vasiyligi onamga berilgandi.

Yigitning esa hech narsadan xabari yo'q, hali bolaligiga borardi. Mening yonimda otam yo'qligini qo'yib turing, hatto akam ham yo'q edi. Albatta, ukam uchun otasining o'rnnini bosolmayman, lekin bir aka sifatida umrim boricha, qo'limdan kelganicha uning yonida bo'laman, ammo qaniydi bu ko'rgulik uning ham boshiga tushmaganida...



Bu dardni totishingni sira istamasdim, ammo nachora, ko'ngli yarim bo'lib ulg'ayadiganlarning karvoniga xush kelibsiz, ukajon...

Yarim ko'ngil bilan ulg'ayish nima ekanligini faqatgina ko'ngli yarim bo'lib o'sganlar biladi, qolgani safsata. Erkatoy-u tantiqlar, to'kis oilada mehrga cho'milib o'sayotganlar bu dardning nimaligini bilmaydi. Tunning qaysidir qismida, karavotining bir chetiga o'tirgancha, yostig'ini g'ijimlab yig'lash nima ekanligini ular bilmaydi... O'zini himoyasiga oladigan otasi yo'qligini, bu tamg'ani umrbod ko'tarib yurish nima ekanligini...

Bilishmaydi...

**Yarim ko'ngil bilan
o'sayotganlarga salom...**



Jemre bilan bir oyga yaqin ko'rishmadik. Oramizdag'i munosabat shunday holga kelgandiki, o'tgan shu oy oralig'ida bir-birimizni qattiqroq sog'inaylik deb hatto suratlarimizni ham jo'natmagandik. Shu holatda ham bir-birimizga bog'lanib bordik. Biz faqat ovozlarimiz bilan diyordorlashardik. Bu esa sog'inchimizni yanada oshirgandi. O'z uyimga qaytganimdan keyin Jemre meni sohil bo'yiga chaqirdi. Sohil bo'yidagi bir o'rindiqda o'tirib, bo'lib o'tganlar to'g'risida gaplashdik. Bir-birimizni chindan ham juda sog'ingandik. Bu ikkимизning har bir holatimizdan ko'rinish turardi. Biz go'yoki shuncha vaqtдан beri uchrashishi va bir-birini to'ldirishi kerak bo'lган ikki insonlar edik. Shu vaqtgacha eng pokiza tuyg'ularimizni nomunosib insonlarga sarf qilgan bo'lsak-da, baribir bir-birimizga ko'ngil qo'ygandik. Bunga o'sha damda ham men, ham u hamda biz o'tirgan o'rindiq guvoh edi.

Havo sovuq edi. Biz o'tirgan yerning ro'parasidagi ko'chada Starbucks bor edi. Ikkимизга qahva olish uchun ko'chaning narigi tomoniga o'tib, Starbucksga kirdim. Ilkifta qahva oldim. Ishchi mendan stakanining ustiga qanday ism yozish kerakligini so'raganida, o'zimning stakanimga "Bir umr..." Jemrening stakaniga esa, "Ishq tomon..." deb yozdirdim.



Qahvalarni olib, biz o'tirgan o'rindiq tomon yo'naldim. Jemre stakanidagi yozuvni ko'rib, menikiga nima yozilganiga qiziqsinib qaradi. Ikkisini yonma-yon olib kelganda "bir umr ishq tomon..." degan yozuvni o'qib, ko'zлari quvonchdan porlab ketdi. U ilk bor o'shanda meni qattiq bag'riga bosgandi.

Bir muddat ko'zлari jiqqa yoshga to'ldi va yig'lab yuboradigandek holga tushdi. Sababini so'raganimda esa, "Iltimos meni uyga tashlab qo'y", dedi. Mashinaga o'tirganimizda Jemre moychechak ifori taralayotganini sezdi va mendan "Nega mashinangning ichidan moychechakning hidi kelyapti?" deb so'radi. Jemre bu savolni berguncha orqa o'rindiqda qolgan moychechaklarni o'zim ham esdan chiqargandim. So'ng orqa o'rindiqqa qo'limni uzatib, allaqachon so'lib ulgurgan moychechaklarni olgancha, unga "Moychechaklar so'lganida juda xushbo'y taratadi. O'sha tongda birga nonushta qilamiz deb uyingga borgan kunim bularni sen uchun olgandim. Sen esa kelmasdan so'ldirding", deya savoliga javob berdim. Ko'zlarida anduh zohir bo'ldi va meni yana bir bor bag'riga bosdi. Keyin Jemreni uyiga tashlab qo'ydim.

Qish fasli. Jemrega yanada qattiqroq bog'langandim. Suhbatlarimiz ko'paygan, har kuni qo'ng'iroqlashib turar va bu ham kamlik qilib, tez-tez uchrashardik. Bir-birimizga juda qattiq bog'lanib qolgandik. Antaliyaning har bir burchagini aylanib chiqardik. Hatto kiyimkechaklarimizni ham birga xarid qillardik. U birgaligimda go'yo huzurning tizzalariga cho'zilganman-u, halovat



degan narsa eng yoqtirgan musiqalarimni chalgancha, yelkamni silayotgandek bo'lardi. U menga shunday hislarni tuydirardi. Faqat men tushunmaydigan va menga negadir g'alati tuyiladigan bir narsa bor edi. Jemre meni har gal o'sha sohil bo'yiga chaqirardi. Sababini bilmadim-u, ammo bu menga g'alati tuyilardi. Bir muddat bu mavzuni ochmadim.

Jemre bilan ilk bor kinoteatrqa tushganimizda ko'rgan filmimiz "Ayla" edi.

Chindan ham mukammal bir film edi. Filmning oxirigacha ko'zlarim jiqla yoshga to'lib, yig'lab yubormaslik uchun o'zimni zo'rg'a ushlab turgancha tomosha qildim. Filmning so'ngida esa, o'zimni tutib turolmay yig'lab yubordim. Ayniqsa, kinoda ota qiziga "Otalar farzandlari uchun kurashadi. Ularga bergen so'zlarining ustidan chiqish uchun yashaydi", degan qismida o'zimni judayam yomon his qildim. Ming afsuski, hamma ota ham bergen so'zining ustidan chiqolmaydi. Unisi ham mayli, hamma ota ham farzandining hayotida ota nomi bilan saqlanib qololmaydi. Bizning bergen so'zlariga sodiq qolib, biz uchun kurashadigan otamiz bo'lindi. Aksincha, otalarimiz biz uchun kurashishi kerak bo'lган yerda, biz ularning ortidan tashlab ketgan g'am-anduhlari bilan kurashdik. Bu dardlar va olib borgan janglarimiz bizni bolaligimizdayoq ulg'aytirib qo'ygandi. Bu mavzuda Jemre bilan hamdard bo'lganligimiz uchun film uni ham ta'sirlantirib yuborgandi. Jemre otasi bo'lib turib, uning borligini his qilmaganlardan edi. Menda esa hech qachon ota deyoladigan odamning o'zi yo'q edi.



O'z vazifa va burchlarini ado etmasa-da, Jemrening ota deydigan bir insoni bor edi. Natijada ikkimiz ham ayni dardning o'ljalari edik. Kinoteatrдан chiqqanimizdan keyin Jemre menga qahva olib keldi. Bir-birimizga navbat bilan qahva olib kelish, munosabatlarimizning odati tusiga aylangandi. Bu safar u qahva stakanlariga bir narsalar deb yozdirgandi. Mening stakanimning ustiga "Ayni dardlar bilan..." unikida bo'lsa, "Birgalikda..." deb yozilgandi. O'sha kuni biz qahvamizni ayni dardlarning sharafiga ichdik.



G'alata qal'asiga sen bilan birga...

*G'alata qal'asiga chiqish uchun navbat kutish ham
ishq bilan bog'liq...*

Jemrening qaysarligini deb G'alata qal'asiga chiqishga qaror qildik. Aslida, samolyot bilan ham ketishimiz mumkin edi. Ammo birgalikda uzoq yo'l yurishni xohladik va Istanbulga boradigan avtobusga chipta oldik. Bir kun davomida maqsadimizga yetib, ketgan kunimizning tungi mahalida Antaliyaga qaytib kelmoqchi edik. Yo'l bizni charchatgan edi, ammo bir-birimizni g'oyat sevganimiz va oldinda ilk bor G'alata qal'asiga birga chiqishning zavqi bunga arzirdi. Arzidi ham. Yoki men shunday o'ylagandirman, bilmadim. Biz Istanbul avtobus bekatiga kelib tushgan tongimizda, kasalxonada qilgan nonushtamizchalik chiroyli bo'lmasa-da, qahvaxonada o'tirib, nonushta qildik. G'alata qal'asining rivoyatini bilib turib, G'alata qal'asi tomon yo'l oldik. G'alata qal'asi tomon har qadam bosganimiz sari meni ulkan hayajon va g'ussa qamrab olar, tushkunlikka solayotgan edi. Bundan avval G'alata qal'asiga hech kim bilan birga chiqmagandim. Jemre G'alata qal'asiga birga chiqayotgan ilk insonim edi.

Shanba kuni edi. Haftaning oxiri bo'lganligi sababli G'alata qal'asiga chiqish uchun odamlar uzun navbat tizib olishgandi.

Navbatga qo'shilganimizdan keyin ko'zim birdan G'alata qal'asining nariroqdagi choyxonaga tushdi. Bir muddat o'tib, choyxonaga qadalgan ko'zlarimni Jemre o'ziga qaratdi. Keyin G'alata qal'asiga chiqdik. Jemre menga



biroz g'alati vasov uq muomala qilayotgan edi. G'alata qal'asiga chiqqanimizda yuqoridagi kafeda ishlaydiganlar Jemre bilan salomlashishdi. Ofitsiantlardan biri Jemrega qarab, "Ahvoling qalay, o'zingga kelib qoldingmi?" deganini eshitib qoldim. O'sha onda gap nima haqidaligini bilmasam ham, qiziqqanimni oshkor qilmagandim. Biz qal'a to'g'risidagi rivoyatning rost yo yolg'onligini bilmasakda, ayni lahzada go'zallikdan huzurlangandik. Quyoshli bir havo edi va chag'alaylar G'alata qal'asining tepasida biz uchun qo'shiqlar kuylashardi. G'alata qal'asidan chiqqanimizdan so'ng Jemre "Yuraqol, anavi qahvaxonaga kirib, bir narsalar ichamiz", dedi. Men esa bir og'iz ham gapirolmadim. O'sha onda o'zimni juda yomon his qilar, ammo buni Jemrega sezdirmasdim. Hayotim bo'yi o'zimni eng chorasiz va notavon his qilgan kunim, aynan G'alata qal'asidan chiqib, Jemre bilan qahvaxonada o'tirgan kunim edi. Chunki u yer Zumro bilan ilk tanishgan joyimiz edi. Boshqa joyda o'tiraylik deyolmadim. Qachonlardir sevgan insoning bilan borgan joylaringning yonidan o'tganiningda yoki o'sha joyda boshqasi bilan birga o'tirganiningda qalbingda simillaydigan og'riq – hayotning biz bilan qiladigan bir o'yini edi.

O'sha kuni biz choy buyurgandik, ammo men choyni ichmasdan Sovutgandim. U yerdan chiqqandan keyin biroz G'alata qal'asining ko'chalarida aylandik va o'tirib baliq bilan non yedik. Qaytish vaqtimiz yaqinlashgani uchun avtobus bekatiga qaytdik. Antaliyaga qaytishimizda avtobusda Jemrening G'alatadagi sovuq va g'alati muomalasi xayolimdan ketmadi.



O'zini xuddi men uning qo'lidan ushlab, majburlab olib borgandek tutardi. Bu holat meni anchagina bezovta qildi. Yana hech narsa demadim. Biror narsa yuz bergenida, doim bir chetga chiqib, o'zimni xuddi hech narsa bo'limgandek tutishimning boisi, qarshimdagi inson men aytmasam ham, nima gapligini o'zi tushunib olishi uchun edi. Biroq men jim bo'lgan sarim, buning tili yo'q ekan deb o'yashib, battar boshimga chiqishdi. Qarasam, bu usulning foydasi yo'q, keyin men ham kim nima qilsa yuziga aytishga qaror qildim. Bilasizmi, buning foydasi hor ekan. Ancha yengillashganimni his qildim. Vaholanki, doimiy tarzda ichimga yutib yurishim va qarshimdagi insonlar xatosini o'zлari tushunib olishini kutishim o'ta ketgan ahmoqona ish ekan. Buni juda kech angladim.

Ro'yobini topadi deb o'ylamayman-u, ammo qilgan xatolarini, ochgan jarohatlarini siz aytmasangiz ham o'zлari payqaydigan insonlar bilan yo'lingiz kesishishini tilayman...

Mirach Chag'ri Oqtosh

**Butun borlig'ingiz bilan sevgan insoningizning
hayotida zarracha o'rningiz yo'qligini ko'rganingizda
qalbingiz og'riqdan titraydi.**



To'siqlarga qaramay sevdik



Doktorlar uydagilarga "Bu odamning har bir kunini g'animat biling", degancha bobomga kasalxonadan javob berishdi. Har kamyoterapiyaning vaqt kelganida uy bilan kasalxona o'tasida halak bo'lardik. Jemrening otasi ham hanuz kamyoterapiya muolajasini davom ettirayotgan edi.

Yana o'sha dilimni xufton qiladigan haftaning ma'lum kunlarining ma'lum soatlarda Jemrening g'oyib bo'lib qolishlari ko'paygandi. Chunki Jemre yo'qolib qoladigan ma'lum kun va soatlarda u bilan sira ham bog'lanolmasdim. Qo'ng'iroq qilsam, go'shakni ko'tarmasdi. Xabar yozsam, javob yozmasdi. Keyin esa mendan osongina qutilardi. Bu ishi ichimga g'ulg'ula solgan edi. Men ham sira erinmay, u har safar yo'qolib qoladigan chorshanba kunining tongida barvaqt uyg'onib, Jemrening uyi yonida, meni ko'rmaydigan bir pana yerga yashirindim va uni kuzatish uchun uydan chiqishini sabr bilan kutdim. U soat ikkiga yaqin uyidan chiqdi. Borgan joyigacha uni uzoqdan kuzatib bordim. Bir qabristonga kirib ketganini ko'rdim. U qabrlar oralab yurib, atrofi moychechaklar bilan o'ralgan bir qabrga kelib to'xtadi. Moychechaklarni ko'rGANIM zahoti qalbimga qabrning atrofidagi moychechaklarning sonicha qo'rg'oshin quyligandek bo'ldi. Bu moychechaklar men Jemrega atab olgan moychechaklarim edi.

O'z-o'zimga "Bu qanaqasi bo'ldi?" dedim. Jemrening ortidagi qabrnning panasiga yashirinib, uning qabr bilan gaplashayotganini tingladim. Bu ishimning odam o'z joniga suiqasd qilishi bilan biron bir farqi yo'q edi.

Jemre yum-yum yig'lashni boshladi. Uning



oqayotgan ko'z yoshlarini ko'rdim va yoniga borib, ko'zyoshlarini artgim keldi, ammo ichimdagi g'azab va alam tuyg'ulari bunga yo'l qo'ymadidi. Ayni dam Jemrening yig'layotganidan ham ko'ra muhimroq narsa mening ahmoq qilinganim edi. Jemrening ko'zyoshlarining o'rnnini chinqiriqli tovushi egalladi va u shu yo'sinda qabr bilan gaplashishni boshladi.

"Axir nima uchun? Nima sababdan meni yolg'iz tashlab ketding? Albatta, sen uchun bu muammo emas. Sen u yerda xotirjam uxlayapsan, azobini esa men chekyapman. Tushlarimga kirasan, men seni tutolmayman. Buning beradigan og'rig'ini hech kimga izohlab berolmayman. Hech kimga aytolmayman. Seni unutolmayman. Ammo sen bo'lмаган hayotga allaqachon ko'nikishimkerakekan, mensening eng maydabelgilaringni ham unutolmayapman! Qanday qilib seni bunchalar sevishim mumkin? Hayotimda yo'qsan, biroq men o'zimni sensiz tasavvur qilolmayman. Uni sevishga urinyapman, ammo eplolmayapman. Mensizlikka sira ko'nolmagan insonning, menga atab olgan moychechaklarini xuddi avvallari sen menga keltirgandek, endi men senga keltirayapman. Unga qilayotgan bu nohaqligimning badalini qanday to'layman, bilmayman. Sevaman deb o'ylagandim, bu yarani u bilan birga davolayman deb o'ylagandim, lekin undan ham battar dardga giriftor bo'ldim. Balki meni chin dildan sevgan insonning uvoliga qolarman. Agar sen ketmaganingda bularning hech biri yuz bermasdi. Men ham boshqasini sevishga urinmasdim. Shu boisdan sendan biroz xafaman. Biroq joyingda tinch



yot. Senga bo'lgan sevgimni qayerga borsam ham, kim bilan birga bo'lsam ham, qalbimda asrayman..."

Jemre bu so'zlarni qichqirib so'zlar ekan, ko'z yoshlarim yanoqlarimni yuvdi. U meni ko'rди. Ko'zimiz ko'zimizga tushdi. Ko'rди-yu qotib qoldi. Hech kutilmaganda ko'zimiz ko'zimizga tushgandi.

Qo'ngan shohidan endi uchib ketaman deganida ovchining to'riga tushgan nozik bir kabutar kabi ojiz va chorasiz edi. Va biroz uyalgan... Jim turdik. Daraxtlar jim turdi. Qabr toshlari jim turdi. Moychechaklar jim turdi. Eng ko'p men jim turdim. Go'yo barcha tomirlarim gapirmaslikka qasam ichgandek jim turdim. Bir moychechaklarga, bir unga qaradim. Keyin esa ularni o'sha joyda yolg'iz qoldirib, sukutda, xayollari chilparchin bo'lgan va sevganiga pushaymon bo'lgan bir suratda uyga qaytdim. Yomg'irli bir chorshanba kunida uchratgan sevgilimdan boshqa chorshanba kuni voz kechdim...

"Men bunga arziydigan nima qildim?" deya o'zimga savol berar va o'zimni yig'idan to'xtatolmasdim. Telefonim jiringladi. Qarasam, u ekan. Ko'tardim, lekin gapirmadim. U yig'lagancha gap boshladи: "Men unga ham, senga ham, o'zimga ham, ishqqa nisbatan ham nohaqliк qildim. Qaytib aslo yo'lingdan chiqmayman", dedi. Mendant nimalardir deyishimni kutdi. Sukutimni buzmaganidam so'ng go'shakni qo'ydi. "Ketma", deyolmadim. Ichimdan bir narsalar nurab tushar ekan, "ketma" deyolmasdim.

Ayni damda menga Izmirdan jo'natgan e-mail xabarini o'qiyapman. Otasining muolajasini ammasining qistovi bilan Izmirda davom ettiradigan bo'lishibdi



va shoshilinch tarzda u yerga jo'nashibdi. Izmirda imkoniyatlar ko'proq ekan, ammasi shunday debdi. U xuddi oramizda bo'lgan narsalarni darrov unutgandek edi.

Yana kimnidir sevishning badalini bir o'zim eng og'ir shaklda to'lashim kerak edi. Va yana shunga amin bo'ldimki, bizning hikoyamizda baxtli yakun uchun o'rinn yo'q edi.

Yonimdaligini his qilganimda chindan ham sevadi deb o'yladim. Vaholanki, bir o'lik bilan aldanibman. Ahmoq qilinibman! Yaraga darmon sifatida foydalanilibman. Inson deyishga ham tilim bormaydi, ammo sobiq sevgilisini unutolmagan bir insonni sevibman. Noto'g'ri insonga ishonibman. Aslida, qanchalik haq ekan Emre Aydin "Bilaman, aslida birov birovni haqiqatan ham sevmaydi", deya ta'kidlar ekan...

Endi tushunayapman nega meni o'zligimdan ayirib, boshqa qolipga solishga uringaningni. Endi tushunayapman, nega meni o'zgartirishga harakat qilganingni. Endi tushunayapman nega meni har doim sohil bo'yiga chaqirganiningni. Endi tushunayapman nega meni G'alata qal'asiga olib borganiningni. Sen o'lgan insonni mening qiyofamda yashatishga urinib, menga bu razillikni ravo ko'radiganchalik shafqatsiz ekansan.

Men seni hech qanday manfaatsiz, sababsiz, ayblashlarsiz sevdim! Men seni hech narsaga qaramay, shu iflosliklarning ichida ham top-toza sevdim! Sen o'lgan odamni yashatishga urinib, yashayotgan insonni o'ldirding! Sen meni tiriklayin yerga ko'mding! Men bilanligingda uni har kuni yashatib, meni har kuni



o'ldirgan ekansan. Men bu razilliginga arziydigani nima qilgandim senga? Bu savolning javobi senga asoslarsiz ishonganimmi? Men senga ishondim! Ammo hayotimning eng katta xatosini senga ishonib va seni sevib qilgan ekanman. Hech qanday to'siqlarga qaramay sevishimga arziysan deb o'ylagandim, yanglishgan ekanman. O'zimni ko'rib turib olovga tashlabman-a? Ahmoqman! Mening ko'zlarimning tub-tubiga boqib turib, uvolimga qolding. Sening ham uvolingga qolishsin.

**Senga so'nggi so'zim: boshimga
solganlaring boshingga
tushmagunicha o'lma...**



G'alata qal'asidan uzr so'rayman

O'lgan sevgilisi bilan avval borgan joylariga men bilan bongan, sobiq sevgilisini erkalagan so'zлari bilan meni ham erkalagan bir qizni sevibman. Insonlardan yarasiga darmon sifatida foydalanadigan bir insonga ishonibman. Bunga arzimas ekan, keyin bildim.

Men ham G'alata qal'asiga oshiq edim. Toki Jemrening o'lgan sevgilisi bilan G'alata qal'asida tanishganini va birgalikda G'alata qal'asiga chiqishganini bilgunimgacha... Bu haqiqatni bilganimdan keyin G'alata qal'asidan nafratlandim. Uzoq muddat na nomini tilga oldim, na u bor ko'chaga kirdim. Ammo biroz muddat o'tib, tushundimki, u bunga loyiq emas. Men oshig'i bo'lgan G'alata qal'asiga ortimni o'girishimga u munosib emas. Chunki u bunga noloyiq va arzimaydigan bir inson edi. Nomunosib insonni deya bir muddat g'azabimga yengilib, nafrat hissim qo'zg'agani uchun G'alata qal'asidan uzr so'rayman.

**G'alata qal'asiga oshiq bo'lmaydilar,
G'alata qal'asi shusiz ham Ishq timsolidir.**



Mirach Chag'ri Oqtosh

Sadoqat va vafo nimaligini
bilmaganlarga sevish ta'qiqlansin.



To'siqlarga qaramay sevdik



Oshiq insonning bahonasi bo'lmaydi

Agar bir insonning qalbida seni sevish uchun mittigina xohish bo'lsa, u sening finjonni qanday ushlappingga ham oshiq bo'la oladi. Hatto tishning kovagiga ham sig'maydigan bahonalar topib, sevishdan qochayotgan insonning harakatlari senga bo'lgan tuyg'ularining tugaganini bildiradi. O'rtadagi masofalarni to'siq bilib va boshqa mayda narsalarni asos qilib ko'satgan holda, seni sevishdan va sen bilan birga bo'lishdan qochgan inson uchun bir tukingni ham qimirlatma. O'zingni bekorga ovora qilma. Chunki bunday turdag'i insondan na senga yo'l dosh chiqadi va na yor chiqadi. Chiqsa yo dard chiqadi yo yara chiqadi. Sevadigan inson sen bilan chindan ham birga bo'lish niyatida bo'lsa, uning yo'lini hech narsa to'solmaydi. Senga haqiqatan ham ko'ngil qo'ygan inson o'zini sensiz tasavvur qilolmaydi. Behudaga chiramma, sevishning o'rniqa bahonalar to'qigan insonlarning qalbi ishq uchun torlik qiladi.

**O'zingni ovora qilma,
qalbi yo'q odam ishqni tushunmaydi.**



O'rtadagi masofalarni to'siq bilgan insonning sevgisidan yaxshilik chiqmaydi

Menga o'rtadagi masofalarni bahona qilma. Umr yo'ldoshi o'lganiga necha yillar bo'lsa ham, hanuz uni sevib, sodiq yashayotgan qanchadan qancha insonlar bor. Qora tuproq bilan qorishgan insonni hamon ilk kundagi kabi qalbida yashatayotgan insonlar bor. Aslida, masofa deganing sening qalbingda. Asl masofa – o'zingsan. Menga nafasimchalik yaqin bo'lib turib, olislikni tanlagan o'zingsan. Bizning baxtli bo'lmasligimiz uchun, birga bo'lmasligimiz uchun qo'lingdan kelganini qilgan o'zingsan.

Sening masofa deganing bor-yo'g'i bir qog'oz parchasi edi va hamma narsa birgina chiptaga bog'liq edi, hamma narsa birgina chiptachalik yaqin edi. Biroq sen buni bir davlat muammosi kabi kattalashtirdingki, masofalarni ro'kach qilib, buni o'zingga bahona qilib olding. Shunga qaramay men barcha chiptalarimni sen uchun oldim. Senga olib boradigan yo'llar uchun oldim. Aslida sira mavjud bo'limgan "biz" uchun oldim. Meni sevmagan sen uchun oldim. Menden tashqari hamma narsa va har kimga qiziqadigan, ammo menga kelganda har gal ko'rmaslikka oladigan sen uchun oldim! Senga yetaklaydigan har bir qadamimda o'z jonimga o't qaladim. Asli oshiqlik bu edi, jonio azoblansa ham aslo orqaga qadam bosmadim.

**Bir inson yuragi urishdan
to'xtaganida emas, bir qalbda azasi ochilganida o'ladi.**

Men har on sen tomonga...

Mening qalbimdagi senga oid sevgining go'zalligi bilan, sening o'sha sevgini his qilmasligingning badbaxtligi ajal bilan olishadi.

"Oz narsa bilan qanoatlanmaydigan odam, ko'p narsaga erisholmaydi", deyishadi, ammo men oz ham deb bo'lmaydigan sening yo'qliging bilan qanoatlandim.

Sen mening qilgan ishlarimni shunchaki orqaga suyanib, beparvolarcha tomosha qilding. Sendagi qanday vijdon bo'ldiki, sen uchun dard chekib, adoyi tamom bo'lganimni ko'rib turib, hech narsani his qilmading. Chunki yuraging toshga aylangan. Sen hayotimning butun borlig'i ekansan, men sening hayotingda nuqtachalik qiymatga ega emasdim. Ehtimol aynan shuning uchun meni sevmagandirsan. Biroq shuni bilib qo'yishingni istardim men, meni sevib qolishi uchun hech kim bilan bunchalik andarmon bo'lmadim. Kimgadir tuygan sevgim uchun bunchalik ahamiyat bermadim. "U bunga arziydi", degandim, adashibman. Arzimas ekansan. Seni shu qadar sarhadsiz sevganmanki, shuncha harakatimga qaramay sen uchun bir nuqtachalik ahamiyatsiz bo'lsam ham, meni sevmasliginga qaramay, men uchun butun borliqsan! Men senda yo'q ekanman, sen mening qalbimdan zarracha ham kamaymading.

Men seni hammadan ko'proq sevgan odamman, sen meni bir lahza ham sevmagan insonsan. Seni sevishni boshlagan ondan tugab bordim. Sen tomondan sariq



chaqaga chiqarildim. Sensiz edim. Yolg'iz edim. Chorasiz edim. Ammo baribir senga oshiq edim. Bu og'riqni har kuni qon-qonimgacha his qilsam ham, voz kechmadim. Men har doim senga keldim. Hech qachon meniki bo'lмаган senga! U uchun zarracha qadrim yo'q holda, menda sira tugashni bilmagan senga! Bormanmi, yo'qmanmi ahamiyat ham bermagan senga! Sevgim bilan qiziqmagan senga!

Har on senga... Har on dardga... Har on ishqqa...

**Boshi berkligini bilsam ham, baribir o'sha
ko'chaga kiradiganchalik seni sevgandim.
Meni unut, buni unutma...**



Ota mehrini ko'rmaganlarga...

Ota mehri nimaligini bilmagan, his qilmagan, ayniqla, bayramlarda, tug'ilgan kunlarda va yana boshqa muhim kunlarda bunday mehrdan mahrum bo'lgan bir insonni hech narsaning yo'qligi bilan qo'rqitilmaysiz. Chunki u yarim bo'lib qolishni, tark etilishni va qayg'uning eng tubini ko'rib bo'lgan. Qolgan narsalardan mosuvo bo'lish uni cho'chitmaydi. Vahołanki, u ko'nikishi kerak bo'lgan eng og'ir narsaga ko'nikib bo'lgan. Endi uni nima bilan ham qo'rqita olardingiz? Nimaning yo'qligi bilan ham sinay olardingiz? U yolg'izlik nima ekanligini yaxshi biladi. Men ham bu dardning bir bo'lagi bo'lganligim uchun bu dardning nimaligini yaxshi bilaman. Mening ham qadrlagan insonlarim bor edi, sevgan insonlarim bor edi. Bergan qadrimga munosib qadr topmaganimda yoki sevilmaganimni his qilganimda hech qachon bunga hayron bo'lmadim. Anduhga tanish bo'lganligim uchun meni bu turdag'i sinovlar ko'pam qiynamadi. Har doim "Shusiz ham otamiz bizning qalbimizda ulkan bo'shliq ochib ketgan, boshqalar to'ldirishini kutish kulgili bo'ladi", deya bu vaziyatdan chiqib ketardim. Ota mehrini ko'rmay ulg'aygan inson kuchli bo'ladi. Har qanday dardning o'tkazmoqchi bo'lgan bosimi uni yengolmaydi.

O'sha mehrsizlik bilan ko'ngli yarimlilik birlashib, u insonni himoya qilish uchun juda mustahkam bir qalqonga aylangan va hech qanday tarzda, hech narsaning yo'qligini unga yaqin yo'latmaydi. Qolaversa, himoya qilishning eng go'zal shaklini o'sha insonlarda ko'rasiz. Chunki himoya



qilinganligini his qilmaganligi uchun bu tuyg'uning yo'qligini ular yaxshi biladi va sevgan insonlarini mahkam bag'rilariga bosib, ularni juda chiroyli shaklda himoya qiladi. Ota mehrini ko'rmay o'sgan insonning qalbi sevgi va muruvvat tuyg'ulariga boydir. Ota mehridan mosuvo bo'lgan bir insonning qalbi, sevgining yo'qligini yaxshi his qilgani uchun ko'ngil qo'ygan insonini juda qattiq sevadi.

Bunday insonlarga tez-tez duch kelishingiz mumkin. Chunki farzandining boshiga og'ir kunlarni solgan, sog'inch va armonda qoldirib ketgan otalarning soni talaygina...

**Qalbimdagi otam ochib ketgan bo'shliqni sen
to'ldirmoqchimiding?
Qo'ysangchi...**



Baxtli yakunlar biz uchun juda yiroq

Birovning baxtiga ko'z olaytirgan joyimiz yo'q. Kimnidir sevilganini ko'rib, havasga berilganlardan ham emasmiz. Chunki biz yolg'izlik bilan bir butunlashdik. Vaqtida biz ham juda sevgandik. Ayrimlarga bor mehr va e'tiborimizni bergandik. Ammo shunga qaramay, na birov tomonidan sevildik va na kimnidir hayotida yo'qotishdan qo'rjadigan insoni bo'la oldik. Biz bor-yo'g'i jonimizni bergudek sevgan insonlarimiz tomonidan sariq chaqaga ham olinmaydiganlardan edik va eng ko'p yo'qotganlardan edik. Shu vaqtdan boshlab, baxtli bo'lish uchun astoydil harakat qilmay qo'ydik. Chunki baxtli yakunlar biz uchun yiroq. Juda yiroq... Va biz ikki qadam ham tashlolmaydigan darajada horidik. Sevib-sevilganlar, visolga erishganlar va haqiqiy ishq nimaligini qon-qonigacha his qilganlar ushbu baxtning gashtini surishda davom etishsin. Qolganlar bizga tegishmasin! Hech qaysingizning yolg'on sevgingizdan bizga foyda yo'q, loaqlar zararingiz tegmasin, kifoya.

**Ishonch tuyg'uyimni yo'qotishimda
Ishongan insonlarimning xizmati katta.**



Sevilmasang, sevma

Ehtimol har nedan ortiq sevib, o'zing sira sevilmagandirsan. Bor mehr va e'tiboringni berib, oxiri o'zingni yer yuzidagi eng qadrsiz insondek his qilgan bo'lising mumkin. Balki yarim yo'lda tashlab ketilganlardandirsan? Bularning qaysinidir boshingdan o'tkazganiningni yaxshi bilaman. Ammo sen ham meni tushun, bu boshingga solinganlarning badalini qarshingdan chiqqan toza qalbli insonlarga to'latmasliging lozim. Bundan avval aldanganman deya buning hisobini qolgan insonlardan so'rashga haqqingo'q. Hayotingniostin-ustun qilib, keyin tashlab ketgan bir vijdonsizni deb, yuzingni gul-gul yashnatadigan bir insondan o'chingni olishga haqli emassan. Yo'qsa seni o'sha nomussiz insonlardan qanday farqing bo'ladi? To'g'ri, yana o'tgan kurnlardagi azobni tortishdan cho'chishingda jon bor, lekin hammaga bir ko'z bilan qarashing noto'g'ri. Ko'ngling singani uchun boshqaning ham dilini sindirmasliging kerak. Agar yaralanganing uchun kimnidir yaralaydigan bo'lsang, sening ulardan zig'ircha ham farqing qolmaydi, bunga yo'l qo'yma. Yaralandingmi? Yaralama! Aldandingmi? Aldama! Sevilmadingmi? Sevma! Bu sen aytayotgandek oson ish emas deysanmi? Agar xohlasang, juda oson ish. Seni sevmagan, qadrlamagan insonning yonida qolmaysan, vassallom! Unutildingmi? Seni unutganga sen ham barcha eshiklaringni yopasan. Seni ko'rmaganga oladiganga ko'r, seni eshitmaganga oladiganga kar bo'lasan, tamom.

**Ishq o'zining azobini totishga dav'at qiladi,
agar shunga arzisa, tot.**



Agar ketar bo'lsang, kelma

Quloq sol, men o'ta ta'sirchan bir insonman. Burjim baliq emas, lekin menga boshida katta e'tibor qaratib, keyin birpasda qo'l siltab ketadigan bo'lsang, o'tirib, yosh bolaga o'xshab yig'layman. Menga sevaman deb turib, ammo buni his qildirmasang, tunlari uyqum qochadi. Chunki men hech qachon birovning tuyg'ulari bilan o'ynashmayman. Kimningdir uvoliga qolishni istamayman. Agar ketish uchun keladigan bo'lsang, yaxshisi kelma. Chunki ketar bo'lsang bardosh qilolmayman. Ikki kun o'tib unutadi deb o'ylama, modomiki men senga o'rgangan ekanman, unutolmayman. Atrofingga bir qara. Hamma qachondir ketish uchun bir-birining hayotiga kiradi. Ammo sen ketma. Ketar bo'lsang, kelma! Sen hammaga o'xshama. O'zingni mendan mahrum etma. Menga sevishingni aytib, ikki kundan keyin go'yib bo'ladigan bo'lsang, meni bunday sevma. Zero men shu hayotimdan mamnunman.

**Ketish uchun keladigan bo'lsang, ovora bo'lma.
Buning uchun qalbimda joy yo'q.**



Biz tugadik

Meni nega sevmading deya endi seni savolga tutmayman. Chunki meni sevmaganing to'g'risidagi suyollarga berilolmaydigan darjada horg'inman. Agar o'zgan bo'lsang ancha vaqtdan buyon senga sevgimni zhor qilmayapman. Ayni damda hamma narsadan shu qadar qattiq charchadimki, hatto biron bir narsalarni izga solish uchun harakat ham qilganim yo'q. Harakat qilgan tajdirimda ham bir narsalarning sira o'zgarmasligini yaxshi bilaman. Endilikda hech kim mening yonib-kuyishimga arzimasligini tushunayapman. Senga keladigan bo'lsak, bunchalik qattiq ko'ngil qo'yganim hammani shunday sevar ekan, degan o'yni miyangga keltirmasin. Bu sevgi faqat senga qaratilgan edi. Ammo oxir-oqibat sen tomondan sariq chaqaga sotildi. Shuni bilib qo'yishingni istardim, men birovni hayotimga osonlikcha kiritadiganlardan emasman. Ammo seni toza sevdim. Yangi tug'ilgan go'dakning isi kabi begunoh va sof, ilk bor suvga tushgan qayiqning suzib borishni istagan sohili singari chorasisz va yolg'iz... Biroq endi bularning ahamiyati yo'q. Ma'lum bo'lgan yagona narsa shuki, endi bu so'zlarimning va bizga tegishli nima bo'lsa hech birining ahamiyati qolmagani. Shunday so'ldirdingki, yuragimda sen deb ochilgan moychechaklarni, endi hech qanday tashrifing yashnatolmaydi.

Endi ishq bizni yo'qlab kelmaydi. Chunki biz ustiga beton quyilgan tuproqning ostida qolgan va endi sira ochilmaydigan ikki dona moychechak urug'larimiz...



Sen vijdonsizlikning inson qiyofasidagi ko'rinishisan

O'n birinchi noyabr shanba kuni Istanbul kitob yarmarkasida men tashkillashtirgan taqdimot marosimiga kelgan o'quvchilarning kitoblariga dastxat qo'yayotib, navbatda turgan odamlarning ichida ko'zim tuyqus unga tushdi. Yuzlab insonlar orasidan yana uni payqagandim. Turgan joyimda tosh qotdim. Ko'zim tushgan qiz Zumro edi. Menga shunday tuyilyaptimi yo bu rostdan ham o'shami deya u turgan tomonga bot-bot nazar soldim. Ha, men ko'rgan inson aynan u edi. Sochlarni juda kalta qilib kestirganiga qaramay uni tanigandim. Bu haqida hech kimga aytolmadim. O'sha ondag'i hayratimni va azobimni birovga sezdirmay, hech kimga hech narsa demay, xuddi hech narsa bo'limgandek ishimda davom etdim. U men tomon yaqinlashgan sari ichimdag'i hayaJon va sarosima yanada ortdi. Bu shunday bir ilojsizlik ediki, buni ta'riflab bo'lmasdi. Men tomon yana biroz yaqinlashganida yonida begona bir yigit borligini ko'rdim. Keyin bir Zumroga, bir o'sha yigitga razm soldim. Ko'rinishidan ular sevishganlar edi. Ammo yonidagi yigitning o'zini tutishidan hech narsadan xabari yo'qligi ko'riniB turardi. O'sha damda ichimdag'i tovush "Bunchalar yuzsiz bo'lishing mumkin emas!" deya hayqirardi. O'sha kuni bir Zumroning navbatda turganiga, bir meni yonimga boshqa bir yigit bilan kelganiga hayratlangandim. Ustiga-ustak uning ustida tanish yopinchig'i bor edi. Buni ataylab qilgani ma'lum edi. Navbat ularga kelganida oyoq-



qo'lim bo'shashdi. Ular men tomonga yaqinlashishdi. Ilk diqqatimni tortgan narsa uning iforining o'zgargani bo'ldi. "Xo'sh, bizga ham beradigan moychechaging bordir?" dedi beadab yuz ifodasi bilan tabassum qilgancha, stolim ustidagi moychechaklarga ishora qildi.

Men ham "Bizda moychechaklar munosiblarga tortiq qilinadi" dedim. "Menga sevaman dema, men bilan turmush qur" degan kitobimni oldimga qo'ydi va "Ulkan muhabbat bilan Zumrodan Jan uchun..." deya dastxat qo'yib berolasanmi, dedi. O'sha damda bir kitobga, bir Zumroga, bir Janning hech narsadan bexabar yuziga boqdim. Afsuski, dastxat qo'yishga majbur bo'ldim. Boshqa hech narsa deyolmadim. Kitobga dastxat yozib bo'lganidan keyin stolning ustida turgan moychechaklardan ikki donasini oldi va birini kulgancha Janga uzatdi. Ular ketganidan so'ng, men ham bir-ikki daqiqaga ijozat so'rab, gavjumlikdan tashqariga chiqdim. Hojatxonaga kirib, eshigini qulflagancha o'sha yerda nafasim bo'g'ilib qolguncha yig'ladim. Birov eshitmasin deb sassiz yig'ladim. Mening qalbimni shu tarzda sindirib, shu tarzda yoqib, shu tarzda azoblab, boshqa bir jonga hayot beradigan darajada shafqatsiz insonni deb o'sha kuni o'zimni shu qadar nochor his qil dim. Keyin esa yuz-qo'limni yuvib, xuddi hech narsa bo'lmagandek o'sha kunga yakun yasadim. U o'sha kuni meni azoblash uchun, yaralash uchun, yerga urish uchun qo'lidan kelganini qilgandi. Oradan shuncha vaqt o'tib, qarshimdan nega bu yo'sinda chiqqaniga tushunolmasdim. Zumroni sevib yurgan vaqtlarim Merich degan yigit mening o'rnimni



egallagani uchun g'azablanib yurardim. Ammo endi bilsam bekorga g'azablangan ekanman. Nomussizlik bu qizning qonida bor ekan. Hozirgi sevgilisidan ham qandaydir maqsadda foydalanayotgan edi, lekin yigit sho'rlikning bundan xabari yo'q edi.

Bilasiz, ayrim insonlar bor insonlarning tuyg'ulari bilan o'ynashdan, ularni azoblashdan, chilparchin qilishdan va yaralashdan huzurlanishadi. Sindirgan qalbining ohidan, puchga chiqargan har xayolining o'limidan zavqlanishadi. Ana o'sha insonlardan biri Zumro edi. Uni tanigan kunimga la'natlar yog'dirdi. Ammo hammaga Xudo bor. Bir kuni qilgan ishlarining badalini to'lashadi.

**Bir kuni o'zing kabilarga
yo'liqishingni tilab qolaman...**



O'limni sira xushlamadim

Ma'lumki, hammamiz bir kun kelib o'limni tatib ko'ramiz, ammo men bu jarayonni sira xushlamayman. Odamni sevgan insonlaridan judo qiladigan, bag'ridan yulib oladigan va og'ir sukunatni yuzaga keltiradigan o'limni sira xushlolmadim. Ayniqsa, hayotiga nuqta qo'yilgan yosh bolalarning o'limiga sira rozi bo'lolmadim. Hali bolalik davrini surib ulgurmagan, bahor kelganida qo'shnilarining eshidigiga boychechak aytib borolmagan, mактабга borib, alifboni o'рганолмagan bolalarning yoqasiga yopishadigan o'limni sira hazm qilolmadim. Ayniqsa, eng avval begunoh va ma'sum insonlarni olib ketadigan o'limni sira xushlamadim. Va hammasidan ham bizga Allohning omonati bo'lgan ayollarga yopishgan o'lim balosini sira qabul qilolmadim.

Hayot ekanligiga qaramay men uchun bir o'likdan farqi bo'lмаган, hatto ota deyishimga ham arzimaydigan bir insonning bizni nochor holimizda tashlab ketganini qabul qilolmadim. Ota degan odamining mehrini bir kun ham his qilmagan insonlarning olgan jarohatlarini qabul qilolmadim. Ko'chalarda dir-dir titragan qarovsiz hayvonlarning nochorligini qabul qilolmadim. Qo'shnisi ochlikdan o'lar holda ekan, o'zi to'q uxlaganlarni qabul qilolmadim. Baham ko'rmaydiganlarni qabul qilolmadim. Aslini olganda men ko'p narsani qabul qilolmadim. Hayotdan boshqa. Hayotni va hayotga doir narsalarni baham ko'rishni biladiganlardan boshqa.

Hayot qisqa. Qushlar parvoz qilar ekan, sev meni...



Ba'zi bir voz kechishlar choraszizlikdan vujudga keladi

Hammadan ham ko'ra senga ehtiyojim bor paytlarda boshqalarning yaralariga malham bo'lganining uchun seni kechirmayman. Sening barmog'ingga zirapcha kirsa mening jonim og'rirdi. Darding – dardim, baxting – baxtim edi. Ammo endi men juda charchadim. Meni hammasidan ham ko'ra nima charchatganini bilasanmi? Sendan kutadigan e'tiborimning yo'qligi meni ezishi... Senga bog'lagan umidlarimning ostida qolgan vaqtlarimda menga bir bor bo'lsa-da, qo'l cho'zmaganing... Eng ko'p sen bilan birgaligimda tinchlanishim kerak bo'lgan holda, eng ko'p sen bilan birgaligimda charchashim... Baxt va halovat tuyg'ularini sendan tuyishim kerak holda, eng og'ir azoblarni sendan totishlarim... Meni senga tegishli nima bo'lsa, hammasi charchatdi... Qolganini o'zing tushun. Senga nisbatan his qilgan sevgimga bo'lgan hurmatimdan juda ajoyib tarzda foydalanding. Bizni yarim qoldirib, o'zgalar bilan qanoatlanding. Bundan keyin shularning beradigan vijdona azobi bilan yasha. Bu dard senga yetib ortadi. Allohga omonatsan...

**Uni kipriklarigacha
o'zimniki qilgandim. U esa u uchun bir tukini ham
qimirlatmagan kas tomon ketdi.**



Yolg'izlikni bag'ringga bos

Hozirgi davrda kimning yuragi kim uchun urayotgani noma'lum. Biz shunday bir zamonga duch kelib qoldik. Xuddi hamma eng toza tuyg'ularini boshqalar uchun sarf qilgan-u, menga hech narsa qolmagandek his qilaman. "Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma!" deyishadi-ku, men na nonni katta tishlaydigan va na gapni katta gapiradiganlardan emasman. Shunchaki men endi hech qanday tarzda sevilishga umid qilmayman. Chunki insonlar allaqachon sevgining, ishonchning, sadoqatning, durustlikning va eng asosiysi vijdonning boshiga yetishgan. Hozir hamma bir-birini jarohatlaydi, aldaydi, tashlab ketadi. Bunday davrda eng maqbuli yolg'izlik bilan ovunish deb o'ylayman. Oddiy insonlar kabi har suv berganga chechak ochishning o'rniغا yoki suv tutgandan yordam kutishdan ko'ra suvsiz qurib, yo'q bo'lishni afzal ko'raman.

**Har suv berganga chechak ochishdan ko'ra,
yolg'izlikdan qurib, bitganim yaxshiroq.**

Sizlar so'qirsiz

Zotan siz qayerda bir yuraksiz, his-tuyg'usiz, muhabbatingizni qadrlamaydigan, aksincha, siz sevganingiz sari boshingizga chiqishni ko'zlaydigan odam bo'lsa, o'shalarni topib, sevasiz. O'zingizni juda aqliman deb o'ylaganingiz uchun nozik tushunchalarga va nozik qalbga ega bo'lgan kishilarni ko'zingiz ko'rmaydi. Chunki siz chindan sevgan insonning muhabbatini ko'rolmaydigan darajada ko'rsiz! Siz bergen muhabbatingizni oyoqosti qilib ketganlarni deb chindan sevadigan insonlardan o'chingizni olasiz. Xuddi o'zingiz ishonchli bir odamdek, sizni sevgan insonlarga "Men hech kimga ishonmayman!" deysiz. Ayni shu asnoda siz sevgan toshyurak insonlarni bilmadim, sizni nechinchi bor aldayotganini bilishingizga qaramay, yana ularni kechirasiz va qayta ishonch bildirasiz. Sizni chindan ham sevgan insonlarga agar shu imkonni berganiningizda ular sizni gul-gul yashnatardi, ammo siz buni ko'rolmaysiz. Aniqrog'i ko'rishni istamaysiz. Aldaganni, xiyonat qilganni qayta-qayta kechirasiz. Sizni chindan sevganga parvo qilmaysiz. Sizni benuqson sevib, sevgingizga ega chiqadigan insonlarni ko'rolmaydigan darajada ko'r, o'sha insonlarning hislarini ahamiyatga olmaydigan darajada qalbsizsiz!

Sof qalblarni yolg'on sevgingiz bilan iflos qildingiz. Endi bo'lsa toza qalblilarining orzusidasiz, ammo uzoq kutasiz.

Mirach Chag'ri Oqtosh

**Yenglish insonlarni deb siz qalbini sindirgan
durust insonlarning ohi yoqangizni bir umr qo'yib
yubormasin.**



To'siqlarga qaramay sevdik



Uzr so'raydigan ishlar qilishning o'rniqa, meni bag'ringga bosish uchun shoshil!

Uzr so'raganingiz bilan siz sindirgan qalb avvalgi holatiga qaytib qolmaydi. Uzr so'rashni fazilat deb hisoblab, insonlarni ikki qadam ham tashlolmaydigan ahvolga solmang. Uzr so'rash ajoyib xislat emas. Bir insonning dilini og'ritib qo'ygandan keyin uzr so'rab, kerilib yurmang. Zero eng ahamiyatlisi, avval ranjitib, keyin kechirim so'rash emas. Eng muhimi nima ekanligini bilasizmi? Inson o'zini uzr so'raydigan holatgacha olib bormasligi. To'g'ri, hamma inson ham xato qiladi, buni sira inkor qilmayman. Farqli tomoni shundaki, siz qo'lingizda turgan stakanni bilib turib yerga tashlab, keyin o'sha siniq stakandan suv ichishga harakat qilyapsiz. So'ngra o'sha stakandan uzr so'rayapsiz. Ammo sindirib bo'lgandan keyin so'ragan kechirimingiz hech narsaga yaramaydi. Menga kelsak, qalbimni sindirishlariga o'rganib ketganman. Ehtimol sizga g'alati tuyilishi mumkindir, lekin mening qalbimni sindirishganida emas, eng ko'p biror inson mendan uzr so'raganida dilim og'riydi. Insonlarning qalbini og'ritib, keyin hech narsa bo'lmagandek uzr so'ramoq qarshingizdag'i insonning yarador qalbiga zarracha ham malham bo'lmaydi.

**Mendan kechirim so'rama! O'zingni mendan uzr
so'raydigan holatgacha olib kelma. Shu ikkimizga
ham yetadi.**



Mening ko'zim har on senga boqadi

Bekorga ovora bo'lma, men o'zimning fe'limni juda yaxshi bilaman. Bu yosh boladek o'jar qalbimga sira gap uqtirolmayman. Bilasan, u juda quloqsiz. Seni hech narsaga qaramay sevishda davom etadi.

Bekorga ovora bo'lma, sendan uzoqlashish uchun bosgan har qadamim meni sening qarshingdan chiqaradi. Yuragim qon aylantirishdan tashqari bir sen uchun uradi.

Bekorga ovora bo'lma, senga va ikkimizga tegishli bo'lgan hamma narsani unutish uchun qilgan har bir harakatim meni sening hayotingning qoq markaziga olib borib qo'yadi.

Sen qoldirgan jarohatlarni silash uchun qo'lini uzatgan hamma jonimga yanada ko'proq azob beradi. Mayliga, bularning hech biri yuragimda sen nihoya yasashga urinayotgan sening yodingni zarracha ham o'chirolmaydi. So'ngan va qayta tiklanmaydigan tuyg'ularimni tiklashga urinayotganlar vaziyatni battar chigallashtiradi. Meni battar charchatishadi. Chunki men seni baribir unutmeyman... Unutolmayman...

Chunki ishq degani unutilishga nomunosib! Haqiqiy oshiqlikning sharti, dard zabitiga olganda ham qalbdagi ishqqa sodiq qolmoqdir.

O'zingni unuttirishning yo'lida qilmagan ishing qolmadi. Biroq barcha urinishlaring behuda. Men kirgan har bir ko'chamda senga qanday duch keladigan bo'lsam, sen ham o'zing nuqta qo'yishni istayotgan shu ishqning ichidan o'zingni topasan. Yonimga kel va meni eshit.



Bekorga ovora bo'lma! Meni ham o'ylamay qo'yaqol. O'zim biror yo'lini topaman. Sening sevging bilan tug'ilmadim, sensizlik bilan ham o'lib qolmayman. Sen menda yashayotgan o'zingni o'ldirishga urinsang-da, mening qalbim ikkimizni ham asrab-avaylaydi.

**"O'zingga yaxshi qara", dema menga.
Bilasan, men baribir o'zimdan ko'p senga ishq-la
qarayman...**



Qo'rquv tuyg'usi insonga xos

Har bir inson sevilishni istaydi. Shuningdek, sevilishni istashi bilan bir qatorda yana o'sha azoblarni boshdan kechirishdan qattiq qo'rqedi. "Yana o'sha hol takrorlansa-chi?" deydi. "Bu ham avvalgilariga o'xshagan bo'lqa-chi?" deydi. "Endi men qanday qilib birovga ishonaman, ishonchimni bu safar ham suiste'mol qilishsachi?" deb cho'chiydi. Sevib sevilmaslikdan, yana o'zini sevgani uchun pushaymon bo'lqa o'sha o'tmishtagi kunlardan topishdan qo'rqedi. Qadrsizlanishdan, yarim yo'lida tashlab ketilishdan qo'rqedi. Ammo bu qo'rquvning insonga his qildiradigan xavotirini bir Allohning quli tushunmaydi. Hamma ham boshida sevaman, o'laman, sen uchun tog'ni talqon qilaman, degan va'dalar bilan keladi. Keyin qarasang, oradan ikki kun ham o'tmay, ko'z o'ngingdan g'oyib bo'ladi. Eng yomoni esa qaytib hech kimni sevmasligimiz, ishonmasligimiz kerakligini, o'zimizdag'i borini fido qilgan insonlarimiz o'rgatishadi. Ishonganlarimiz bo'lqa, har doimgidek adashmaydi.

Ayniqsa, inson halovat topishni istagan joyida bezovta bo'ladi. Eng ko'p shu narsa hislarga ziyon yetkazadi.

**Qancha ko'p sevsangiz, shuncha ko'p azoblanasiz.
Sevilgan inson esa bundan faqat rohatlanadi.**



Yuragingiz faqat bir insonni deb ursin

Hayotida birov bo'lishiga qaramay, ko'zi to'yмаган, begonalardan nigohini to'sмаган, ochko'z va begonani ko'rsa qosh-ko'zi o'ynaydigan insonlardan jirkanganimchalik bu hayotda boshqa biron narsadan jirkanmadim. Bu narsa erkak yoki ayolga tegishli narsa emas. Bu insonning tabiatiga bog'liq bo'lgan masala. Zero hayotida ko'ngil qo'ygan insoni bo'la turib, ko'zi olma tergan odamning sevgisidan qanchalik manfaat bor? Qolaversa, o'zimdan kelib chiqadigan bo'lsm, sevaman degan insonimga tegishli bo'lishni va u ham menga sodiq ekanligini his qilishning beradigan lazzat hamda baxtni atrofdagi hech kimga va hech narsaga alishmayman. Vaholanki, hozirgi zamonga kelib, faqatgina bir insonga sodiq bo'la olish san'at darajasiga chiqqan deb hisoblayman. Ammo ming afsuski, hamma inson ham "san'atkorlik" darajasiga ko'tarilolmaydi. Sevganiga sadoqatli bo'lish hammaning ham qo'lidan kelmaydi. Sevgisida sobit qolomaydi. Yo yarim yo'lga yetmay tashlab ketadi yo xiyonat qiladi yoki bo'lmasa oxiri sevaman degan insonining la'natiga duchor bo'ladi. Yoki ham sevaman deydi, ham atrofdagilardan na ko'zini, na umidini uzadi.

Begonalarga ko'zlari ko'r bo'lib, faqat siz bilan kifoyalangan, atrofdagilarning tovushlarini eshitarga quloqlari kar bo'lib, birgina sizning ovozingizga mahtal bo'ladigan, qisqasi sadoqatning timsoli bo'lgan insonlarga duchor bo'lishingizni tilayman...

**Agar sevmoq san'at bo'ladigan bo'lsa, sen
qalbimning eng go'zal asarisan.**

Mirach Chag'ri Oqtosh

Qalbning qasami kimnidir
sevib qolgunga qadardir.



To'siqlarga qaramay sevdik



Mening qalbim soxta ishqlar uchun to'q

Men seni sensiz ham seva olaman. Istanasang, meni o'z holimga qo'y, men seni sensiz qanday sevish mumkinligini ko'rsataman. Agar iloji bo'lsa, sen meni sevma. Chunki ikki kundan keyin meni sevganining minnat qilasan. Meni sevganining yukini gardanimga ortasan va bu ham yetmagandek meni o'sha holatda yolg'iz tashlab ketasan. Qo'yaver, men senga bo'lgan ishqim bilan sensiz ham baxtiyor bo'laman. Chunki sen menga o'zing bilan zarba berasan, undan ko'ra men senga olislardan termulay. Ko'zlarimni yangidan ochgan har bir tongimda senga bo'lgan sevgimni yangilay. Yonimga bir kun bo'lsada kelma, hayotimda mavjud bo'lmasang ham, men senga bo'lgan ishqimni manguga saqlay. Qo'yib ber, men seni sendan so'roqsiz, sendan iznsiz, sensiz, bizsiz sevay. Qo'yib ber, bir insonga nisbatan qo'yilgan muhabbatga u bo'lmasa ham sodiq qolish mumkinligini insonlarga ko'rsatib qo'yay. Qo'yib ber, sevgan insoni yonida bo'lmasa ham, yashash uchun ishqning o'zi kifoya qilishini ularga isbotlab beray. Hozirgi davrda bir-birini og'izda sevib, bir tomon voz kechishi bilan narigi tomon ham darhol voz kechishini va ko'pchilikning tillarda doston sevgisi aslida, shu darajada omonat ekanligini ishqqa isbotlab beray.

So'nggi so'z o'rnida chin oshiqlarning qarg'ishiga qolganlarga shivirlayman: "Yelkangizda ko'tarib yurgan bir qancha insonning la'nati bor ekan, boshqasi bilan baxtiyor bo'lomaysiz..."

Seni sevishim uchun senga ehtiyojim yo'q. Chunki endi qalbimda soxta munosabatlarga o'rinn to'q.



Tirikligida qadrini bilmaganlaringiz uchun...

Antaliyaga joylashganidan keyin qarshi tomondagи xonadonga Nasiba ismli bir xola ko'chib o'tdi. Bir muddat bu xolamning uni ham chiqmadi. Keyin esa ko'chish tashvishlari orqali bir-birimiz bilan tanishdik.

Nasiba xolam yolg'iz o'zi yashar, ushbu xonadonga ham bir o'zi ko'chib kelgandi. Xuddi qolgan umrida birovg'a ehtiyoji yo'qdek, barcha buyumlarini o'zi tashib kirdizgan edi. Men ham bolaligimda berilgan tarbiyaga muvofiq tarzda hijolat tortgancha Nasiba xoladan nima uchun eshigimni taqillatmaganini so'raganimda, "Qo'yaver, o'g'lim. Men o'zim epladim", degan qisqagina javobni oldim. Qo'lidagi buyumlar eski bo'lishiga qaramay, uning uchun o'zgacha qadri borligi ko'rinish turardi. Va nigohim tuyqusdan televizorning yonida turgan fotoramkaga tushdi. Ramkaning bir tomonida Nasiba xola va narigi tomonida esa notanish kishining surati bor edi.

Suratga tikilib qolganimni ko'rib, Nasiba xola biroz o'z hikoyasidan gapirdi:

"Uni ilk bor ko'rganimda yoshim o'n yettida edi. Tabiiyki, o'sha paytlari shaharlarimiz hozirgidek rivojlanmagan edi. Biz oilam bilan qishloqda yashardik. Uni biz istiqomat qiladigan qishloqda uchratgandim. Men uni sevib qolgandim, o'g'lim. Uning yoshi menikidan biroz katta edi. Shu zaylda oradan ikki, uch yil o'tdi. Bizning munosabatlarimizga otam rozi bo'lmadi. Qishloqning badavlat oilalaridan birining o'g'liga uzatish uchun oylab meni siquvga olishdi. Men esa yoqtirmagan insonim



bilan turmush qurib, hayotimni zaharlamoqchi emasdim. Biznikilarning menga o'tkazayotgan bosimlariga munosib javob berdim. Biz Bahjot amaking bilan birga qochib ketdik. Ya'ni, shu yo'l bilan turmush qurdik. Bir-birimizga atalgan sevgi va hurmat tuyg'ulari yillar davomida goh unday, goh bunday oilamizni saqlab keldi Oilamni kechirgandim, lekin ularga nisbatan gina bilan yashadim. Ammo o'zingdan qolar gap yo'q, oiladan voz kechib bo'lmaydi. Bahjotning o'limi meni tamoman gangitib qo'ydi. Uning o'limidan keyin tushib qolgan bo'shlig'imdan o'zimni chiqarolmadim.

Yoningda turgan stol bilan ikki o'rindiq, bizning uyimizdagи suyukli go'shamiz edi. Sen o'tirgan divanda oz-muncha uxlamaganmiz. Sovutkichim, pardalarim, gilamim, kir yuvish mashinam, hatto birgalikda qahva ichgan finjonlarimizni ham o'sha kundan buyon asrab kelaman. Ehtimol u o'lgan bo'lishi mumkindir, qaro tuproqqa ko'milgan bo'lishi mumkindir, ammo men unga bo'lgan muhabbatimni qalbimga ko'mib yubora olmayman. U mening har nafasimda yashaydi. Men uni ko'chib o'tgan shu uyda ham yashataman. Go'yo yonimdadek faraz qilaman. Chunki boshqa choram yo'q. Hayot juda achchiq, Mirach o'g'lim. Hayotning bergen shu qisqa muddati ichida haqiqiy baxtni topganidan nima foyda? Baribir bir kuni hammasi tugaydi. Bir umr birga umrguzaronlik qilgan bo'lsang ham oxiri yoningda faqat xotiralar qoladi..."

O'sha kuni Nasiba xolam bilan birgalikda ko'z yoshlarimizga egalik qilolmadik. Ochig'ini aysam, o'sha kuni go'yo Nasiba xola o'tmishdagi sevgan insonlarimni



va meni sevishini aytgan hammani qarshimga yig'ib keldi va ularga "Sizning sevgingizga tupuraman! Ko'rib qo'ying, sevgi degani mana shunaqa bo'ladi!" degandek bo'ldi.

Men o'sha suhbatdan keyin anchagacha o'zimga kelolmadim. Ammo Nasiba xola allaqachon bu dardga ko'ngan, qayerga borsa ham o'lgan turmush o'rtog'ini qalbida tirik holda ko'tarib yurardi. Xolaning bu hikoyasi menga bot-bot "Nahotki bunaqa muhabbat hali ham bor bo'lsa?" degan savolni berardi. Chindan ham Nasiba xolaning Bahjot amakiga nisbatan tuygan muhabbatni meni qattiq ta'sirlantirgan edi. Va o'sha onda hech kim tomonidan bu darajada sevilmasligimga yana bir bor amin bo'ldim. Amin bo'lganim sari azoblandim. Chunki hozirgi zamonning insonlari bir-birini bu darajada go'zal sevolmaydi. Go'zal sevishni qo'yib turing, umuman sevolmaydi. Sevmaydi. Chunki ularga bu qiyinchilik tug'diradi. O'lganidan keyin ham sevgan insoniga sodiq qolib, unga bo'lgan tuyg'ularini ichiga qamab, undan aslo voz kechmagan bir ayol edi Nasiba xola. Bir hozirgi zamonaning sevgisiga qarang, bir umr yo'ldoshi o'lganiga qaramay, uni va unga bo'lgan muhabbatini shu ongacha tirik saqlashni uddalagan, hatto uyidagi buyumlarni ham u bilan birga ishlatganman deb o'zgartirmagan, agar o'zgartirsam, unga xiyonat qilgan bo'laman, go'rida bezovta bo'ladi deb o'ylaydigan darajada buyuk muhabbat bilan seva bilgan Nasiba xolaga qarang. E'tibor bilan qarang.

Chunki bu hayotda bunday go'zal qalbli insonlarga osonlikcha duch kelmaysiz. Ehtimol bunaqalar o'n



mingtadan bittaga to'g'ri kelar. O'lgan insonga nisbatan yillab sodiq yashashni hamma ham eplolmaydi. O'lgan inson bilan birgalikda unga bo'lgan sevgisini ham tuproqqa topshirishadi. Ortidan uch kun motam tutib, keyin dardini ham unutishadi. Sevgan insoni o'lsa ham unga bo'lgan tuyg'ularini qalbida yashatishga hech kim harakat qilmaydi. Bunday narsa haqida birov o'ylab ham ko'rmaydi. Ikki kun to'kadigan ko'zyoshlari, keyin esa usiz yashashga qiladigan harakatlari... Sanab tugata olmaymiz, yana bir qancha urinishlari. Ko'rib turganingizdek ular zamonamiz insonlari...

Hayotligida qadrini bilmaganlaringiz ertaga o'lim rahna solganida buyuk armoningizga aylanadi. Lekin keyin vaqt ni ortga qaytarib bo'lmaydi. Sevgingiz bir o'chovli bo'lmasin. Sevgan insoningiz o'lgan taqdirda ham uning xotiralari bilan yashashni istaydiganchalik go'zal bo'lsin...

Koshki Nasiba xolaning yuragini va muhabbatini klonlashtirishning iloji bo'lsa edi. Agar shunday imkoniyat berilsa, xolaning yuragini klonlashtirib, zamonamiz insonlarining ko'tarib yurgan yuraklariga almashtirgan bo'lardim. Koshki qo'limda bo'saydi.

Sizni yaxshi ko'raman, Nasiba xola.



Insonlarni o'zingiz xohlagan qolipga solib emas, boricha qabul qilib seving

Bir insonga ko'ngil qo'yib, keyin uni o'zgartirishga urinish – go'yo bir gulni bandidan uzib, so'lmasligini kutishga o'xshaydi. Bu bir ahmoqona, bir keraksiz va bir xudbinlarcha kutishdir.

Insonlarni faqat o'z manfaatlaringiz yo'lida sevasiz. Qarshingizdagi insonning ham o'z tuyg'ulari va hislari bor, buni sira tushunmaysiz. O'zingizga qanday qulay bo'lsa shunday sevasiz. Agar sevadigan bo'sangiz, manfaatlaringiz yo'lida emas, o'zgartirishga harakat qilib emas, boricha qabul qilib, seving. Unday sevolmaysizmi? Unda behudaga birovga umid berib, unda ko'nglingiz borligini aytmang. Bir gul yulib olingenidan so'ng ikki kun o'tib, qo'lingizda so'lib qolishi afzalmi yoki bir gulga mehr berib, vaqtida suv quyib, uni bandidan uzmagan holda parvarishlab, har kuni iforidan bahramand bo'lish afzalmi? Hech narsani o'zingizga qulay holga keltirib sevmang. Ishqingizning chegarasi siz ko'ngil bog'lagan insoningizni o'zgartirish darajasida bo'lmasin.

Va qarshingizdagi insondan sizga bo'lgan hislarini isbotlashi uchun o'zgarishini zinhor talab qilmang. Zero isbot va dalilga kuni qolgan sevgidan biror yaxshilik chiqmaydi. Qolaversa, bir insonga nisbatan qilinishi mumkin bo'lgan eng tuban nohaqlik – bu uni o'z manfaatlaring uchun o'zgartirishga urinishdir. Bir insonga nisbatan qilinishi mumkin bo'lgan eng buyuk fidokorliklardan biri esa uni boricha qabul qilmoqdir.



O'zing tanla. Yo xudbinga aylanasan yoki bir moychechakni yulishning o'rniga uni o'z bandida sevib, har kun uning chiroyidan bahra olasan...

**Sizni boringizcha qabul qilib, ko'ngil
qo'ygan insonlarni seving. O'z manfaatlari yo'lida
o'zgartirmoqchi bo'lganlarni emas.**



Koshki sira uchrashmaganimizda edi

Koshki sen bilan sira tanishmagan bo'lganimizda edi. Ismingdan, borligingdan va tuyg'ularingdan boxabar bo'lmasam qaniydi... Agar charchog'imning ustiga charchoq qo'shishingni bilganimda, qasam ichib aytamanki, ismingning bir dona harfini ham tilimga olmasdim. Agar biz tanishmaganimizda hamma narsa pokiza bo'lib qolardi. Masalan, "Seni sevaman!" degan izhorlarning biror ma'nosi qolardi. Bir finjon qahva stolning ustiga yanada qaynoqroq holda yetib kelardi. Musiqalar quloqqa ta'sirliroq eshitilardi. Agar biz sen bilan tanishmaganimizda shu ishq deganlari insonlarga yanada ishonchliroq tuyulardi. Hech kim yolg'onlarga aldanib qolmasdi.

Men shu vaqtgacha qarshimda kim turgan bo'lsa ham, eng mayda hisni tuymagan holda "Seni sevaman" degan yolg'onlar to'qimadim. Bo'yimdan baland gaplarni gapirib, keyin o'sha gaplarning orqasiga berkinmadim. Agar sevsam, sevdim dedim. Aksincha bo'lsa, his qilmagan tuyg'ularim haqida bong uradigan darajada tubanlashmadim. Ammo sen menga nisbatan zarracha ham sevgini his qilmagan holda, bo'yingdan baland yolg'onlar to'qib, doim menga umid berib kelding... Sen tubansan va shu boisdan ham seni sira tanimagan bo'lishni istardim...

**Hamma narsa sen ila go'zal bo'lishiga ishonardim.
Vaholanki, sen eng katta dardim ekansan,
yanglishgan ekanman.**



Sen qalbim uqmaydigan so'zsan

Biron bir shaharni faqat u yashayotgani uchun sevasan. Sen xushlamaydigan narsalar uning uchun sevimli ekanligini bilganingda, o'zing ham o'sha narsalarni yoqtirib boshlaysan. Hammadan, hamma narsadan, hattoki butun borliqdan ham qochib, faqat u bilan ovunishni istaysan. U to'g'risida "Sen undan afzallariga loyiqsan. Senga undan boshqa odam qurib qolganmi? U senga umuman munosib emas!" deganlarga quloqlaringni berkitgancha eshitmaslikka olib, faqatgina uning og'zidan chiqadigan kalomlarga quloq solasan. Uning ovozini gul tuvaklariga ekishni xohlaysan. Hatto tark etilganingdan keyin ham uning ortidan qoldirib ketgan azoblariga sodiq qolib, yashashda davom etasan. Begonalar bilan birga ekanligini ko'rsang ham, u uchun baxtiyorliklar sog'inasan. Tinglaydigan har bir musiqangning naqoratida unga duch kelasan. U endi o'zgasiga tegishli ekanligini bilsang ham o'qigan har bir kitobingda uni eslatgan jumlalarning ostini chizasan. U tomonidan ko'rmaganga olinayotganiningni his qilib tursang ham, ko'zlarining undan boshqasini ko'rmaydi.

Iforiga to'yolmay, isini bir xumga qamab qo'yishni istaysan. Aslida, e'tibor berib qarasangiz, inson chindan ko'ngil qo'rganida ko'p narsa istamaydi. Shunchaki bu qadar go'zal tuyg'ularga munosib insonning o'zi yo'q. Ammo shu yoddan ko'tarilmasinki, zolimning zulmi bor bo'lса, mazlumning Allohi bor.

Xotirjam bo'l, hozir qalbimda emassan. Chunki endi qalbim sensiz halovat ichida. Seni yuqorida sanab o'tganlarimni qilishga tayyorchalik, qiladiganchalik



qattiq sevdim. Sen yashayotgan shaharni nafas olib, chiqarayotganing uchun sevdim. Xushlamagan narsalarim sening sevimli narsalaring ekanligini bilib, men ham ularni sen bilan birga sevdim. Hammadan qochdim. Butun insoniyatdan yuz o'girib, bir senga keldim. Sen bilan ovunishni istadim. "Sen undan afzallariga loyiqsan. Senga undan boshqa odam qurib qolganmi? U senga umuman munosib emas!" deganlarga quloqlarimni berkitdim. Seni ayblagan hammaga qarshi chiqdim. Endi bo'lsa o'sha insonlarning oldida uyatdamani...

O'zimni sening soxta muhabbating bilan ovuttdim. Men seni, hatto "Seni istamayman!" degan o'sha so'zingni ham balkonimdagи gul tuvaklariga ekishni istaydigan darajada telbalarcha sevdim. Meni yarim yo'lда tark etganingda ham, ortingdan qoldirib ketgan azoblarga sodiq yashagancha, ularga, hatto gard ham qo'ndirmadim. Meni tugatib, mana ko'rib qo'y degandek ko'zimning o'ngida o'zgalar bilan vaqtichog'lik qilishingga qaramay, seni baxtli bo'lishingni istadim. Tinglayotgan har musiqamning naqoratida, o'qiyotgan har bitta kitobimning har jumlasida senga duch kelishimga qaramay, o'sha musiqani tinglashda va o'sha kitobni o'qishda davom etdim.

Yer yuzida mavjudligimga shubha qiladigan darajada meni ko'rmaslikka olganingda ham ko'zlarim sendan boshqasini ko'rmadi. Seni bag'rimga bosgan vaqtimda iforingdan ich-ichimga to'ldirib olishni istaydigan darajada senga oshiq edim. Bularning barchasini faqat seni sevganim uchun qildim. Pushaymonmanmi? O'lgudek!



Albatta, sening yuraging yo'qligi uchun bunday tuyg'ularning farqiga bormaysan. Agar inson sevib qolsa, yuragi uning jilovini o'z qo'liga olar ekan va o'zi istagan tomonga burar ekan. Ovozing boricha sevma deb baqirsang ham u bunga sira qulq solmas ekan. Qalbingga so'zingni o'tkazolmas ekansan. Men ham o'tkazolmadim. Noiloj edim. Chunki oshiq edim. Ammo oshiqligimni deb qadrsizlandim. Hozir tashlab ketgan joyingdan senga shivirlayman: Noloyiqsan!

**Senga borimni fido qilgan holda sevganimni bilib
turib qadrimni yer bilan yakson qilding.
Butun boringni berib sevgan insoning ham sening
qadringga yetmasin.**



Qo'lidan chiqarmang

Hech qachon sevmagan insonlar baxtiyor ekan. To'g'rirog'i, shunday deyishadi. Ammo men buning yo'l-yo'rig'i qandayligini bilmayman. Ochig'i bu to'g'risida aniq bir fikrim yo'q. O'yashimcha, buning aniq qonun-qoidasi bo'lmaydi. Ammo bir narsani aniq bilamanki, chinakamiga baxtni his qiladigan on – bu sevgisiga munosib inson bilan uchrashgan va u tomonidan qadrlangan ondir. O'sha insonni deb voz kechgan narsalariga uning arzishini his qilgan ondir. Inson haqiqiy baxtni ana o'sha lahzada his etadi. Qolaversa, bir inson sevishni va sevilishni bilgani kabi o'zi uchun amalga oshirilganlarga loyiq bo'lishni ham bilmog'i kerak. Masalan, fidokorliklarga, u uchun tortilgan azobga, unga ajratilgan vaqtga, o'ziga berilgan qadrga, qalbiga mehmon bo'lgan muhabbatga munosib bo'lishni bilishi kerak.

Biz bunday turdag'i insonlarga hali duch kelib ulgurmadik. Ammo bir kun sizning yo'lingizdan shunday inson chiqadigan bo'lsa, o'sha inson shubhasiz bu hayotda siz yo'liqqan yagona mo'jizangizdir. Uni qo'lidan chiqarmang.

**Sizni tushunishni uddalagan,
siz uchun qo'llarini duoga ochgan,
sizning baxtli bo'lishingizni istagan
va sizni chinakamiga sevgan insonlarni qo'lidan boy
bermang. Albatta, bunday insonlar
yer yuzida qolgan bo'lsa...**



Xotiralar burchagi

Insonning sog'inib, qo'msagan onlari bo'lgani kabi o'sha damlarni endi ortga qaytarishning iloji yo'qligini ham yaxshi biladi. Ba'zan choraszilik ummonining tubiga shu qadar chuqur sho'ng'ib ketamiz. Gohida o'zimga "Hozir qo'limizda mavjud bo'limgan narsalar balki biz uchun yaxshilikkadir?" degan savolni beraman. Keyin esa bir muddat sassiz qolib, o'ylashga tushaman. Ammo aniq javobini topolmayman. Chunki ushbu savolning javobini topgan taqdirimda ham hech narsa o'zgarib qolmaydi. O'tkazib yuborilgan lahzalar qaytib kelmasligini yaxshi bilaman. Shunchaki hayot bilan hamohang qadam bosyapman. Chunki hayot biz bilan o'yinlar o'ynaydi, biz esa bor-yo'g'i u bilan birga hamqadam bo'lamiz. Bu yo'lda ba'zan to'siqlarga uchraymiz, ba'zan pastga qulaymiz, gohida esa keskin burilishlar qilamiz... Aslida, hayotning yo'llari hamisha o'nqir-cho'nqir. Asosiysi, inson o'z yo'lini topa olishidir.

Masalan, men doim bolalik davrimdagi biror yerga mehmonga borganimizda yoki bir chekkada uxlab qolganimda, ertalab ko'zlarimni ochsam o'zimni o'z yotog'imda, ustim ko'rpa bilan yopilgan holatda ko'rgan davrlarimni sog'inaman... Qo'msagan onlarimdan yana biri maktabdan qaytayotib hovlimizga kirishim bilan onam tushlik uchun pishirayotgan bo'g'irsoqlarining isi dimog'imga urilishi va butun hovlini shu is tutib ketishi... Yozgi ta'tillarda sindosh do'stlarim bilan bolalar oromgohlarida haftalab qolib ketishimiz...



Mening xotira burchagim sizlarnikidan biroz farqi bo'lishi mumkin. Ayrimlar sevgilisini quchishni, sevgan insonining ovozini, qo'llarini sog'inadi. Ehtimol bu tabiiydir. Ammo mening aynan bir insonga bog'liq bo'lgan xotiralarim va sog'inchim yo'q. Gapning qisqasini aytadigan bo'lsam, men yo'qotganlarimning orasidan bolaligimni eng ko'p sog'inaman. Biroq endi u davrlarga qaytib bo'lmasligini yaxshi bilaman. Menimcha, hayotning eng og'riqli nuqtasi shu bo'lsa kerak. Biz esa hayotga shu og'riq bilan hamohang qadam bosamiz.

**Boshingda otang va onang omon bo'lsa-da,
qalbdagi eng katta armon bolalikka qayta
olmaslikdir...**



Sevgining mohiyati

Ishqning asl mohiyatini bilmaguncha huzur va saodatga erisholmaysiz. Qani, menga aytinchisi, sizningcha ishqning asl mohiyati nimada? Tanishganing hali ikki kun bo'lgan odamga sevgi izhor qilib, o'zingni va uni aldashdami? Yoki bir-biriga moyillik tuygan qalblarning bir yerda kesishishidami? Ikki yurakning bir vujudda yashashiga erishishdami? Yo bo'lmasa bir-birovni baxtli qilishdami? Yoki chindan ham sevib, sevilmaganini bilgan holda unga nisbatan his qilgan tuyg'ularidan bir on bo'lsada tonmaslikdami?

Ehtimol siz uchun biroz sodda tuyulishi mumkindir, ammo o'yashimcha, ishqning asl mohiyatini ushbu jumla oydinlatadi: "Asl oshiqlik – yordan mahrum bo'lganda ham sevishda davom etmoqdir..." Har qanday inson sevib qolishi, oshiq bo'lishi yoki shunchaki yoqtirib qolishi mumkin. Bu juda tabiiy holat. Negaki biz insomiz, ta'sirchan mavjudotlarmiz. Albatta, bu so'zlarim hammaga ham taalluqli emas. Har qanday inson odam bo'limgani kabi, men tilga olgan nozik tuyg'ular ham hammaga birdek beriladigan narsalar emas.

Mavzudan chetlashib ketmaylik. Biz har doim ko'ngil qo'ygan insonimiz bizni ham sevishini istaymiz. Tuyg'ularimizga munosib javob olishni xohlaymiz. Ammo bu oshiqlik emas, kutishdir. Lekin biz buni anglamaymiz. To'g'rirog'i, anglashni istamaymiz.

Shunga qaramay, ayrim ikki tomonli muhabbatlarda ham xolislik bo'lishi mumkin, ammo har ikki tomonli munosabatlarni ham samimiyl va rost sevgiga quriladi, deb aytolmaymiz. Albatta, ikki tomonli sevgi



mavjud. Buni ikki qalbning o'rtadagi masofa qanchalik olis bo'lsa ham bir-biriga talpinishidan bilishingiz mumkin. Ammo men bir-biriga munosib bo'lgan-u, lekin ikkisining o'rtasida tog'lar va uzun yo'llar yastangan bo'lishiga qaramay, baribir sevgisidan tonmagan insonlarning sevgisiga va samimiyatiga ishonaman, sevishini iddao qilgancha, har Xudoning bergen kunida bir-birini zaharlab, zarar berganlarnikiga emas. Ularniki sevgi emas, yaltiroq jildga o'xshaydi. Bilasiz, bizda hamma yaltiragan narsaga uchadi. Haqiqiy sevgi sovuq havoda asqotadigan to'qima sviterga o'xshaydi. Kim bирgina o'sha sviter bilan qanoatlansa va isinadigan bo'lsa, ishq o'sha insonga yarashadi. Zotan ishq degani boriga qanoatlanib, shukr qilish emasmi?

Balki oshiqdilsiz. Kimnidir jondan ortiq sevarsiz. Ammo bir tomonli munosabat bilan faqat bir joygacha borishingiz mumkin. U ham kuchingiz va sabringiz yetgan yerning so'nggi manzilidir. Allaqachon voz kechgan bo'lishingizga qaramay, o'sha damgacha sevishni uddalagan bo'lsangiz, ko'nglingiz xotirjam bo'laversin. Qayerda bo'lsangiz ham haqiqiy baxt bir kuni eshigingizni taqillatadi.

Eslatma: Bir inson sizni chindan sevish yo sevmasligini bilmochi bo'lsangiz, bu munosabatni xohlamasligingizni aytganingizdan keyin qo'l siltab ketadimi yoki yanada qattiqroq kurashadimi, shunisiga e'tibor bering. Aynan shu vaziyatda uning qanday yo'l tutishi sizga bo'lgan munosabati qat'iy yoki beqaror ekanligini ko'rsatadi.

**Yor tark etgan bo'lsa-da,
Uni sevishda hanuz davom etishga Ishq deyiladi.**

Ko'nikasiz

Ishonch bildirasan-u, ishonching puchga chiqadi, ko'nikasan. Ko'ngil qo'yasan-u tark etilasan, ko'nikasan. Qilmagan fidokorliging, sarf qilmagan harakating, to'kmagan ko'zyoshing, his qilmagan azobing qolmaydi, ammo kelib-kelib o'rningga qiymatsiz bir insonni almashtirishadi, ko'nikasan. Eng yaqin do'stingdan eng og'ir zARBANI yeysan, ko'nikasan. Hatto o'z otang seni tashlab ketgan bo'lsa ham, qolganlar seni sevishiga umid qilasan, ammo u yerda ham xato qilasan, ko'nikasan. Eng ko'p ishonganlaring tomonidan qazilgan chohlarga qulaysan, ko'nikasan. Bu safar adashmayman, bu safar yaralanmayman deb o'ylaysan, ammo ko'zlarining ochsang, o'zingni qop-qorong'u bir tunnelning ichida ko'rasan, ko'nikasan. Qisqasi, sen insonsan! Yengolmayman deb o'ylagan narsangni yengasan, usiz yasholmayman degan insoningsiz ham yashaysan, qaytib turolmayman degan joyingdan oyoqqa turasan. Chunki sen insonsan va har qanday dardga bardosh qila olasan.

**Barchamiz hayotda nimagadir bardosh qilib
yashaymiz. Hech qachon ko'nikolmayman degan
narsalarimizga esa kun kelib ko'nikamiz.**



Sizda qalb degan narsa yo'q

Qalbida muhabbati bo'lgan inson vafoli bo'ladi. Ammo bu his sizga begona. Vafodor insonning qiyofasiga kirib olib, har kulib boqqanga eshik ochdingiz. Har suv uzatganga kurtak yoydingiz. Begona insonlarga ham xuddi hayotingizdag'i yaqin insonga qaragandek qaradingiz. O'tkinchlarga ham sizga "sevaman" degan insonlarga bog'langandek bog'landingiz. Sizni doim yangi insonlar qiziqtirardi, undan nariga o'tolmadingiz. Asl narsaning ma'nosini bilmadingiz. Haqiqiy bilan qalbakini ajratolmadingiz. Faqat bir insonga tegishli bo'lish nima ekanligini bilmadingiz. Sizga nisbatan eng go'zal tuyg'ularni uvol qildingiz. Sevmaydigan insonlaringizga umid berdingiz. Bu ham yetmagandek, eng go'zal shaklda sevadigan insonlarni hissiz insonga aylantirdingiz. Ulkan ma'noga boy bo'lgan narsalarni oddiylashtirdingiz. Chunki o'zingiz ham oddiysiz!

**Eng go'zal tuyg'ularni isrof qildingiz,
zero, isrof eng og'ir gunohdir.
Bu ham sizning bo'yningizga bir yuk bo'lsin.**



Biz hech qachon benuqson sevilmadik

Insonlar doim tuyg'ularimga nisbatan ojizligimdan foydalanishdi. Zero boshimga nimaiki tushgan bo'lsa hamma-hammasiga ko'ngilchanligim va qarshimdagi insonni o'zimdek o'ylashim sababidan bo'ldi. Sevgi borasida kimning eshigini taqillatsam, yuzimga qarsillatib yopilgan eshiklar haqida gapiraymi, yo bor-u yog'imni o'rtaga tashlab sevgan holda shu bilan kifoyalanib qolmay, sevishimni isbot qilishimga qaramay, boshqalarga almashtirilganimni aytaymi yoki vaqtida qiymati ikki chaqaga qimmat bo'lgan insonlarning yaqinlarim boshiga solgan og'ir ko'rguliklarning o'rnnini tuzatish uchun qilgan harakatlarim haqida gapiraymi? Ammo shunga qaramay, mening yo'lim vafo, sadoqat, qadr-qimmat va fidokorlik tuyg'ularining asl mohiyatini anglagan insonlar bilan sira kesishmadi. Kesishgan bo'lsa ham oxiri doim hijron bilan yakunlandi. Insonlar sizning og'riqli nuqtangiz qayerda joylashganini bilganida bundan juda yaxshi foydalanishadi. Ammo bunda bir haqiqatbor, kimgadir ko'ngil qo'ygangizda hamma narsa o'zgarib ketadi. Kimgadir ishonmaslik va sevmaslik uchun ichgan qasamlaringizni aynan shu onda buzasiz. Zero biz hammamiz aynan mana shu nuqtada yo'qotamiz. Men boshqa birov ochgan jarohatni tuzatishga majbur emasdim.

Men boshqa birovlar ochgan yaraga malham qo'yishga majbur emasdim. Men noto'g'ri insonlarga ishonishning va suyanishning badalini to'lashga majbur emasdim. Bularni qilishga umuman majbur emasdim.



Ammo men hammasini qildim. Ortig'i bilan qildim! Nomard insonlarga omonat qilingan qalblarning zararlarini doim men qopladim. Toptalgan ishonchlarni avvalgi holatiga har gal men keltirdim. So'ngan tuyg'ularga qaytadan men jon berdim. Noloyiq insonlarga atalgan toza sevgining totini o'sha noloyiq insonlar totar ekan, men Xudoning har bergen kuni o'sha sevgining jafosini chekdim. Oxir-oqibat esa sevgisiz va e'tiborsiz bir chekkaga uloqtirilgan ham men bo'ldim.

Hayotingizga kiritish u yoqda tursin, hatto ko'chada ko'rsangiz Allohning salomiga arzimaydigan insonlarning toshga aylantirgan qalblarini deb o'sha pokiza ishqlarga hasratda qoldik. Bizga qarab, hech narsani his qilmayapman deyishdi, endi menga his-tuyg'ular begona, hatto qalbimni his qilmayapman, deyishdi. O'zlaridan ham ko'ra yuraksiz insonlar mavjuddek, "Sen bundan ko'ra yaxshilariga munosibsан!" deyishdi. Ammo hamma ayb bizga bu so'zlarni aytganlarda emas, boshida o'zlarini ishonchli odamdek ko'rsatib, keyin xayollarni puchga chiqarib ketgan vijdonsizlarda edi.

**"Menga ishon" deya ishonchni poymol qilib
ketganlarning bog'i bahor, tuproqlari yomg'ir
ko'rmasin...**

Bir kun kelib...

Insonni har gal “Axir men shularga arzirmidim?!” deyish charchatadi. Biz munosib bo'lмаган azoblarni boshdan kechirishimiz jo'sh urgan tuyg'ularimizni borgan sari so'ndirib boradi. Bu borada qo'lidan hech narsa kelmayotgani uchun inson o'zini juda notavon his qila boshlaydi. Bu narsa esa hayotga toqat qilishimizni tobora qiyinlashtiradi. Ular o'zlari noloyiq bo'lgan baxt-u saodatning gashtini surishayotganida, biz o'zimiz munosib bo'lмаган azoblarning jafosini chekdik. Ishonib, qalbimizni ochgan insonlarimizning bizga qoldirgan armonlari bilan kurashib yashadik. Lekin borgan sari bu qiyinchiliklarning soyasida toblandik va bundan sira ham nolimadik. Noloyiqlar yashayotgan baxtli hayotning ham oxiri bor, biz buni bilardik. Kun kelib, mutlaqo hamma o'ziga munosib hayot bilan taqdirlanishi kerak. Ammo baxtli bo'lіshga munosib bo'lgan insonlar bir chekkada o'z dardlari bilan kurashayotganida, o'zingizga nomunosib baxtga ega ekanligingizni dardmandlarga ko'z-ko'z qilib yashadingiz. Chunki sizda baxtga noloyiq ekanligingizni tan oladigan vijdonning o'zi yo'q edi. Siz bu haqiqatni hech qachon ko'rolmaydigan darajada xudbin edingiz.

Ehtimol bugun emasdir, ammo bir kun kelib bizning ham ekkan moychechaklarimiz gullaydi...



Ilk bo'lish afzalmi yoki so'nggi bo'lishmi?

Hamma birinchi bo'lishga harakat qiladi. Zero birinchi bo'lish bilan birga oxirgi bo'lish ham muhim ahamiyatga ega. Ammo bu tomoniga hech kim e'tibor bermaydi. Yoki e'tibor berishni istamaydi. Ilk bo'lish afzalmi yoki so'nggi bo'lishmi, degan savolning javobini o'zimning shaxsiy tushunchalarim orqali siz bilan bo'lishishga harakat qilaman.

Ilk so'zi o'ta chuqur bir ma'noga ega so'zdir. Ushbu so'z o'z ichiga juda ko'p ma'nolarni jamlagan. Soflik, ishonch, ma'sumlik, azob, qayg'u, nadomat singari... Hayotingning so'nggi bekati bo'lib qolish uchun kelganlarning ham "ilk" larga o'xshab ketganlardan farqi bo'lmaydi. Menimcha bir insonning hayotida birinchisi bo'lish o'sha insonning hayotida chuqur bir iz qoldirish degani. Men uchun birinchisi emas oxirgisi bo'lib qolish mantiqlidek tuyuladi. Sababi bir insonning hayotida birinchisi ekaningiz, ming afsuski, oxirgisi bo'lib qolishingizni bildirmaydi. Atrofga qarang. Diqqat bilan qarang. Hayotimizga ilk o'laroq kirgan insonning oxiri boshqasiga tegishliligini ko'rasiz. Muhimi birinchi bo'lishda emas, birinchi bo'lish bilan bir qatorda oxirigacha qolish, so'nggi bo'lib qolishdir eng muhim masala. Agar hamma ish "ilk" bo'lish bilan bitganida hamma bir insonning hayotiga ilk bo'lib kirganidan keyin ko'ngli xotirjam tortardi. Biroq oxirgisi bo'lib qolish zahmatli ish bo'lganligi uchun hech kim bunga jiddiy yondashmaydi.

Aslida, hayotiga birinchi bo'lib kirgan insoningizga o'tkazgan ta'siringizning o'ndan birini qo'llasangiz, o'sha



To'siqlarga qaramay sevdik

insonning hayotida oxirgisi bo'lib qolishingiz mumkin.
Qisqasi, men "ilk bo'lish afzalmi yoki so'nggi bo'lishmi?"
degan savolga, albatta, oxirgisi bo'lish, degan javobni
beraman...



Ado bo'ldim

Hamma narsadan charchadim. Qadrlab, qadrsizlanishdan charchadim. E'tibor berib, ahamiyatga olinmaslikdan charchadim. Sevib, sevilmaslikdan charchadim. Aldanishdan charchadim. Ahmoq qilinishdan charchadim. Xiyonatdan charchadim. Yaralanishdan charchadim. Ayrim narsalarga doim ko'z yumishdan charchadim. Meni tinglashlarini istagan insonlarim tinglamasligidan charchadim. Bu safar hammasi yaxshi bo'ladi, deya umid bog'lagan narsalarim avvalgidan ham rasvo bo'lishidan charchadim. "U shunga arziydi", deb yuksak baho bergen insonlarim aslida hech narsaga arzimasligiga guvoh bo'lishdan charchadim. Yuragimga yaqin olgan insonlarimga begona bo'lishdan charchadim. Dastlabki qarorlarimning ta'siridan charchadim. Insonlarning bahonalariga aldanishdan charchadim. Arzimas insonlar boshimga solgan kulfatlarni daf qilishdan charchadim.

Men hamma narsadan haddan ziyod charchadim. Hech qayerda va hech kimning yonida orom ololmaydigan darajada charchadim. Kimdir menga "Bir og'iz ham gapirma, shusiz ham men seni juda yaxshi tushunaman!" degancha mahkam quchish ehtimoli yo'qligini bilib yashashdan charchadim. Men charchashdan ham charchadim. Menga ozgina bo'lsa-da, mehnati singgan hammadan minnatdorman...

**Inson degani charchashdan ham charchaydimi?
Charchaydi. Charchatishadi.**



Sizning haqqingiz yo'q

Sizni sevgan va sizdan ko'ngil uzolmagan insonlarning dilini og'ritib, ulardan xohlaganingizcha foydalanishga haqqingiz yo'q. Agar siz o'sha pokiza tuyg'ularini isrof qilgan go'zal qalbli insonlarning qadrini bilgan bo'lganiningizda, derazadan qaraganingizda gullarning tikonlarini ko'rishning o'rniga bahorning va sevgining mujdasini keltiradigan moychechaklarni ko'rardingiz. Dunyoda faqatgina haqiqiy muhabbatning ko'p narsaga qodir ekanligini idrok eta olganingizda, haqiqiy ishqni o'z ichiga olgan yurakka hech qanday yomonlik ravo ko'rilmasligi kerakligini payqardingiz.

Chorasizligidan taslim bo'lgan insonlardan foydalanishdan ko'ra, ularni tushgan nochor vaziyatidan qutqarib oling. Hatto o'zi tushgan nochor holatda ham sizni sevishdan bir on to'xtamagan insonlarni pastga urmang. Tuyg'ular o'yinchoq emas, ular bilan zinhor o'ynamang. Orzular osonlikcha vujudga kelmaydi, ularni puchga chiqarmang. Hayotda faqat orzulari bilan ovunadigan insonlarning qo'lidan shu imkoniyatni ham tortib olmang.

**Siz boshiga tinmay qaro kunlar solgan insonlaringiz
bir kun sizning halokatingiz bo'ladi.
Shunda sizni hech kim qutqara olmaydi.**



Yonimdaligida vaqtni to'xtatib qo'yishni istagan insonimsan

Tomosha qilganlar juda yaxshi eslaydi "Amaliya" filmini. O'sha filmda "Inson vaqtni to'xtatib qo'yishni istagan joyiga tegishlidir" deydigan sahnasi bor. Juda to'g'ri fikr, shunday emasmi? Inson chindan ham qayerda vaqtni to'xtatib qo'yishni istasa yo u o'sha joyga tegishli yoki o'sha yerda abadiy qolishni istaydi. Qisqa va lo'nda. Bu vaziyatda mening qayerga tegishli ekanligimni tilga chiqarishga hojat bormikan? Albatta, bor. Men senga tegishliman. Butun borlig'im bilan senikiman. Gohida inson o'zi amin bo'lgan narsaning tasdig'ini qarshisidagi insondan eshitishni istaydi. Men senga tuyg'ularimni izhor qilishdan tortinmayman. Boshi berk ko'cha ekanligingni bilsam ham, baribir qadamlarimni sen tomon buraman. Bilaman, sen moychechaklarni juda sevasan va men ularni aynan sen uchun yuragimning eng go'zal joylariga ekib chiqdim. Eng pok tuyg'ularimni senga atadim. Zinhor ularning uvoliga qolma! Yo'lingga moychechaklardan poyandoz to'shayman-ki, qadam bosishga ko'zing qiymasin...

Sen o'z bandida ifor sochayotgan bir moychechak eding. Men seni uzish u yoqda tursin, hatto hidlashga ko'zim qiymasdi...



Puch xayollar

Inson surgan xayollari puchga chiqishidan ham yomonroq holat bo'lmasa kerak. Barchamiz ham hayot atalmish manzilga safarga chiqar ekanmiz, onda-sonda bunday ko'chalarga bo'yplashga majbur bo'lamiz... Baxtli hayotga erishish uchun o'zimizni urgan ko'chalarga, noto'g'ri qaror qilib kirgan ko'chalarga, arzimas insonlarga yuksak baho berib, bo'ylagan ko'chalarga, pok tuyg'ularimizni g'araz niyatli insonlarga sarf qilgan ko'chalarga, mutlaqo xayollarimizni puchga chiqargan ko'chalarga bo'ylaymiz umr bo'yi... Xayollari puch bo'lib chiqqan insonning tortadigan azobini ta'riflashga hojat bo'lmasa kerak? Vaholanki, ayrim dardlarni izohlab bo'lmaydi, ular faqat his qilinadi va shundagina buning qanday azobligi anglab yetiladi. Shuning uchun ham sarobga aylangan xayollarning insonga torttiradigan azobini tushuntirishga hojat yo'q. Zero bu azobni bir bor bo'lsa-da totmagan insonning o'zi yo'q. Shu boisdan, hammamiz yaxshi bilamiz, noloyiq insonga ishonishning oxiri azob va uqubat olib kelishini. Ammo Tangrining buyukligini va kim kimning boshiga qanday kun solsa, u ham bir kuni ayni shu holatga tushishini aytmasdan o'tishni istamayman. Axir aytishadiku: "O'kinma, Allohnинг nazaridan hech narsa chetda qolmaydi." deya...

Sizning ishtirokingizda surilayotgan xayollarni puchga chiqarmang. Sizga ishongan insonlarning nadomatiga aylanmang. Chunki birovning la'natiga qolgan odamga Allohnинг mag'firati yo'qdir...



**Agar muhabbatingni oshkor qilmasang,
qancha sevsang ham foydasi yo'q**

Sevgining chek-chegarasiz bo'lishi emas, uning sof va beg'arez bo'lishi muhim ekanligi haqida gapirdik. Faqat sevish bilan cheklanib qolmay, balki uni his qildira olish ham kerak dedik. Qalbdagi muhabbatni oshkor qilish uchun faqat chiroyli izhorlar-u jimgimador so'zlar yetarli emas dedik. Ammo chinakam sevish bilan birga chinakam sevilishning ham haqqini to'lash kerakligi haqida gapirmadik. Albatta, og'zidan chiqqan "Sevaman" degan so'zga butun borlig'i bilan kafil bo'lgan odamlarga biror e'tirozim yo'q. Ammo har bir inson sevilishning ham haqqini to'lashi kerak. Men aytmasdan o'tolmaydigan bu mavzuni qog'ozga tushirishimga sabab bo'lishgani uchun ayrim insonlardan biroz xafaman. Atrofdagi insonlarga qarang. Ularning hammasi ishq ummoniga g'arq bo'lishgan-u, ammo sevilishning qadrini hech biri bilmaydi. Qalbidagi sevgisiga egalik qilmaydi, unga sadoqat saqlamaydi. Sevilishning haqqini to'lash uchun moddiy boylikka hojat yo'q. **Bor-yo'g'i vafodor bo'ling va sizga qalbidagi muhabbatini his qildirayotgan insonni mahkam bag'ringizga bosing, shu xolos.**

Allohim, bizni qalbidagi ishqiga va unga qaratilgan muhabbatga sadoqatli bo'ladigan insonlar bilan uchrashadir...



Men istamagandim

Menga noto'g'ri vaqtda qarshingdan chiqqanimni aytding, ammo bu mening aybim emas edi. Men senga ayni kerakli paytda keldim. Ammo sen hanuz o'tmishingga muhabbat bilan yashaganing uchun meni kaftingning orqasi bilan bir chetga surding. Xo'sh, men sendan bir kun bo'lса-da, voz kechdimmi? Aslo! Ketgan joyingga bir kuni qaytib kelasan va hidlab mast bo'lasan, deya sen tark etgan joyga moychechaklar ekip, kelishingni kutdim. Boshqalarga qanchalar go'zal muhabbat qo'yganiningni olislardan tomosha qildim. Menden boshqa hammani juda go'zal shaklda sevding va sen uchun birgina men ko'rimsiz edim. Barchaning ustidan xuddi quyosh singari nurlaringni sochding, sen faqat men uchun bulutli va tund eding.

Sen o'zga qalbning ummonida suzayotganda, men seni sevgancha, bir qancha harakatlarni amalga oshirdim. Ham kutdim, ham sevdim, ham voz kechmadim. hamda sening o'zga bilan boshdan o'tkazayotgan ishqiy sarguzashtlaringni tomosha qildim. Bularni amalga oshirayotib, qattiq azoblandim va ichimni tilka-pora qilayotgan bu azobni hech kimga sezdirmadim. Mayliga, dedim. U mening yakka-yolg'iz dard yutishimga ham arziydi. Ming afsuski, arzimading. Men esa ayni shu nuqtada mahv bo'ldim...

**Ko'ngling xotirjam bo'laversin, sen voz kechgan
ishqdan men ham voz kechdim.**



Nonko'r insonning belgisi

Hammasidan ham insonning nonko'r sifatlisidan qo'rqish kerak. Hatto sen bir inson uchun amalga oshirayotgan eng kichik harakatingning ham o'sha inson uchun qadri bo'lishi lozim. Qilayotgan fidokorliklaringni qadrlashi lozim. Bergan qadr-qimmatining hayotida hech kim qo'li yetmaydigan yuksak o'ringa qo'yishi lozim. Ammo biz doim nonko'r sifatli insonlarga duch kelganimiz uchun na qilgan fidokorligimizning va na bergen qadr-qimmatimizning bir ahamiyati bo'lmaydi. Nima bo'lsa, bizga bo'ladi. O'sha inson uchun sendan avval hech kim qilmagan ishlarni qilasan. Hech kim sarflamagan vaqtingni sarflaysan. Hech kimdan ko'rmagan qadr-qimmatni ham sendan ko'radi. Ammo bularning evaziga nima olasan, bilasanmi? Tish-tirnog'ing bilan kurashganining evaziga "Kim senga harakat qil, dedi? Men senga yalinganmidim?" degan javobni olasan. Aynan mana shu lahzada yiqilasan. O'sha inson uchun qilgan fidokorliklaringni va yaxshiliklaringni qaytarib olishni xohlaysan, ammo ololmaysan. Keyin achinasan. O'zingdan jahling chiqadi, g'azablanasan. Ammo qo'lingdan bundan ortiq hech narsa kelmaydi...

**Mushuklarning nonko'rliги insonlarning
nonko'rлиги oldida hech narsa emas.**

Mirach Chag'ri Oqtosh

Sening qilgan fidokorliklaringni hech kim ko'rmaydi.
Ammo biror xatoga qo'l ur,
insonlarning og'zidan tushmaysan...



To'siqlarga qaramay sevdik



Oshkor qilma

Azalda ayrim tuyg'ular butunlay boshqacha edi. Hamma narsaning qadri bor edi. Hozirga kelib, hamma narsa shu qadar odatiy tusga aylandiki, go'yo hech narsaning ahamiyati qolmagandek... Aslida, ayrim marsalar o'z-o'zidan odat tusiga aylanmadı. Bu narsa insonlar tomonidan amalga oshirildi. Avvallari o'z his-tuyg'ularini va muhabbatini yashirgan odam yutqazardi. Ya'ni kimdir tortinganidan yoki bo'lmasa, his-tuyg'ulariga munosib javob ololmasligidan xavotirlanib, barcha hislarini qalbiga ko'mgani va hech kimga churq etmagani uchun yutqazardi. His-tuyg'ularini va muhabbatini yashirmay, oshkor qilganlar esa yutgan hisoblanardi. Bir muddat **"Sevgan insoning bilan qiziqmagan har lahzangda uni oz-ozdan yo'qotib borasan!"** degan iboraga amal qilgancha, birov-birovdan hech narsani yashirmadi. Ammo biz hozir shunday bir davrdamizki, insonlarda vafo degan narsaning nomi ham qolmagan. Odamlar uchun his-tuyg'ularning zarracha ham ahamiyati yo'q. Endilikda his-tuyg'ularini va muhabbatini oshkor qilgan hamma yutqazadi. Nimaga deysizmi? Chunki oramizda sevgining qadrini bilmaydigan va tuyg'ularga hurmat ko'rsatmaydiganlar har qadamda uchraydi. Munosabatlar esa ikkiga bo'linadi: Ikki tomonlama sevgi va bir tomonlama sevgi.

Bir tomonlama sevgiga asir bo'lgan insonning tuyg'ularini hech kim osonlikcha o'ldira olmaydi. Chunki u sevgisini qalbida yolg'iz o'zi ko'tarib yuradi. Unga hech kim hamrohlilik qilmaydi va aynan shuning uchun uning



tuyg'ulari boshqalarnikiga nisbatan mazmunli va umri uzun bo'ladi. Shu boisdan men ham o'z tuyg'ularimni yolg'iz o'zim qalbimda saqlab yashayman. Sevsam ham, bu to'g'risida Allohnинг quliga churq etmayman. Chunki endilikda men kimdir tuyg'ularimdan, hatto xabardor bo'lishga ham arziydi deb hisoblamayman. Loaqal endi ichimdagи pokiza tuyg'ularimni kimgadir oshkor qilib, gard yuqtirmayman va kimgadir ko'nglimni ochganim uchun pushaymon bo'lmayman.

**Hozirgi davrda sevsang ham
oshkor qilmasliging kerak.**

**Chunki sevilganiga amin bo'lgan har qanday inson
senga yuqoridaн qarashni boshlaydi.**

**Bora-bora bu munosabat
seni qattiq azoblaydi...**



Hammasi o'tib ketadi, ammo shu bilan birga inson ham tugab boradi

Bizga kerak bo'lgan paytlari hech kim yonimizda yo'q edi. Hayotimizning eng qorong'u ko'chalariga yolg'iz o'zimiz kirdik. Ustimizga yopirilib kelgan dardlar bilan yolg'iz o'zimiz kurashdik. O'zdemir Asafning "Men dardlashishni istab, o'zimni devorlarga urgan kechalarimda siz yonimda yo'q edingiz!" degan vaziyatlarni bir o'zimiz yengib o'tdik. Yerga yiqliganimizda hech qachon qo'limizdan tütib, oyoqqa turg'izadigan bir mehribonimiz bo'lmadni. Aksincha, bizni do'st deb bilganlarimiz oyog'imizdan chaldi. Biroz alamli, ammo biz uchun "do'st" degan ibora faqat kitoblarda qoldi.

Hayotimizning eng og'ir damlarida bizga kerak bo'lgan insonlar yonimizda bo'lmagani kabi, ba'zan, hatto o'zimiz ham o'zimizni og'ir vaziyatlardan qutqarmadik. Ammo nima bo'lganda ham oxiri hammasini yengib o'tdik. Va oxiri shunday xulosaga keldik: hammasi o'tib ketadi... Hatto toqatim yetmaydi, degan narsalarimiz ham kim bilan birga bo'lmaylik, qayerda bo'lmaylik baribir o'tib ketadi. "Men usiz yasholmayman!" deysan, ammo hammadan a'lo yashaysan. "U bo'lmasa, hatto nafas ham ololmayman!" deysan, ammo usiz ham hamma narsani eplaysan. To'rt kunlik dunyoda hamma narsaga o'rganasan. Bir qancha yo'qotishlardan so'ng yolg'iz o'zing qolganingda, aslida, bu hayotda hech kim hech narsaga arzimasligini va hamma



narsadan bir kuni mahrum bo'lishingni anglab yetasan. Anglab yetasan-u, ammo bularni tushunib yetguncha o'zing ham tugab borasan. Ado bo'lasan. Hissiz mavjudotga aylanasan.

**Ko'p vahima qilma.
Hali ne-nelarga ko'nikasan...**



Moychechak yaproqlari

Moychechakning so'nggi yaprog'ini yulganimizda "sevmaydi" deb chiqqaniga qaramay, bandini ham yulgancha, "sevadi" deb chiqarishga urinib, o'zimizni ovutadigan darajada ba'zilarga ko'ngil qo'ygandik... Xo'sh, oxiri nima bo'ldi? Hatto yaqiniga ham yo'lay olmadik. Sharafiga bor narsamizni fido qilganlarimizning yuraklari yo'q edi. Kimni sevadi deb o'ylasak, sevmadi. "Ketmayman" deganlarning hammasi ketdi. "Doimo yoningdaman" deganlar bizni o'zgalarga almashdi. Moychechak yaproqlari ana shunday insonlar uchun fido qilingan edi. Ammo ularning hech qaysisi bunga arzimadi. Meni kechiringlar moychechak yaproqlari... Bundan keyin yuragimning eng so'lim go'shasi sizlarga tegishli. Shuni angladimki, hech qaysi ishqning taqdiri bir moychechak yaprog'iga bog'liq bo'lmasin ekan. Moychechak o'z bandidan uzilmay sevilsin, ishq esa qalblarda his etilsin...

Moychechak misol nozik qalbli insonlarning ko'nglini sindirmang. Eng muhim, ularni qo'ldan boy bermang.



Hech qachon go'zal shaklda sevila olmasligimning dalilini men o'z onamda ko'rdim

Bu dunyodagi yagona aziz insonim va oradan qanday gap o'tsa ham, men sevishdan sira voz kechmaydigan yagona ayol – bu mening onamdir. Ha, yuqorida to'g'ri o'qidingiz, u menga hech qachon go'zal shaklda sevilmasligimni o'rgatgan. Qanaqasiga, deysizmi? Bu haqida hozir gapirib beraman.

Bizning oilamizda onamning to'ylarda juda chiroyli raqsga tushishi haqida ko'p gapirilardi. Qo'niko'shnilarining to'ylarida hammaning ko'zi davrada o'ynaganlarning ichida bir onamga qadalardi. Singlimning to'y oqshomi ham bo'lib o'tdi. Ammo onamning uni ham chiqmadi. Davrada raqsga tushishni qo'yib turing, hatto birov bilan durust gapplashmadi. Men uni davraga tortib, qo'llarini raqsga tushirish uchun ko'tarsam, u bo'lsa qo'llarini pastga tushirib olardi. "Ona, sizga nima bo'ldi?" degan savolimga javob ham bermas edi. Men ham bir necha bor uni majburlab, davraga olib chiqdim va qo'llarini tutib, o'ynashga undadim. Ammo u yana qarshilik qildi. Men esa biroz qizishgancha, "Ona, sizga nima bo'lyapti?" deb so'raganimda, "O'g'lim, axir otang tuproqning tagida yotganida, men uning qizining to'yida qanday o'ynayman? Qaniydi, u ham tirik bo'lsa-yu, shu kunlarni ko'rsa edi", deb yig'laganida joyimda qotib qolgan edim. Mening onam otamning vafot etganiga naqd yigirma yil bo'lganiga qaramay, uni bir on ham yoddan chiqarmagan va unga sadoqatda yashashdan zinhor charchamagan ayol edi.



U otamni shu darajada pokiza va poyonsiz sevgan edi. Va men ham o'sha onda hayotimga kimni kirtsam ham, bu darajada go'zal shaklda sevilmashligimni anglagandim. Tasavvur qilib ko'ring-a, onam sevgan insonining o'lganiga yigirma yil o'tgan bo'lsa ham hanuz o'sha ilk kungidek qaynoq ko'zyosh to'kadigan ayol edi. Va shu ayol o'sha kuni menga ko'rsatgan ediki, boshqa hech bir ayol meni u kabi sevolmas edi. Ammo bu meni ranjitmadi. Men o'sha oqshom eng go'zal muhabbatga guvoh bo'lgan edim. Bu menga yetarli edi...

**Ba'zan haqiqiy sevgini his
qilishga hojat qolmaydi. Chunki insonlarning bir-
biriga bo'lgan muhabbatini ko'rish ham insonning
qalbini to'yadiradi.**



Ishq dardi qachon o'tib ketadi?

Hayot qisqa. Eng avvalo, shuni tushunib yetishimiz kerak. Chunki to'rt kunlik hayotda siz uni deb azob chekayotgan insoningiz boshqa joyda va boshqa insonlar bilan hayot gashtini surar ekan, siz esa bu hayotning qiyinchiliklariga taslim bo'lgancha, hatto o'z joningizga qasd qilishni o'ylab yashashingiz aqli odamning ishi emas. Hattoki bir bor bo'lsa-da, sevgini deb o'z joniga qasd qilishni o'ylash o'ta ahmoqona narsa. Sariq chaqaga ham arzimaydigan biri senga ortini o'girgani uchun o'z joninga suiqasd qilishga yoki shu haqida o'ylashga ham sening haqqing yo'q. Alloh bergen jonini faqat O'zi oladi. O'zingga tashqaridan bir nazar sol. **"Men qayerdaman va kim uchun dardlarni chekayapman?"** deya o'zingdan so'ra, Keyin esa sen uni deb dard yutayotgan inson shunga arzish yoki arzimasligi haqida o'yla, taroziga sol. **O'zingdagি dardlarni va o'sha insondagi qadringni tarozining ikki pallasiga qo'y,** Xo'sh, qaysisi og'ir bosdi? Agar bu dardlar bilan anchadan buyon yolg'iz o'zing kurashib kelayotgan bo'lsang, afsusdaman, sen allaqachon ahmoq oshiq maqomiga erishibsan. Ammo seni xafa qiladigan yana bir gap aytaman, ishqning azobini faqat ko'proq sevgan tomon emas, ikki tomon ham birdek tortishi kerak. Bir tomon faqat ko'zyosh to'ksa, hech narsa yemasa, ichmasa, hayotini zaharga aylantirsa-yu, narigi tomon boshini yostiqqa qo'yishi bilan darrov uyquga ketsa, bamaylixotir sayr-u sayohat qilsa, bu ishq emas,adolatsizlikdir, haqsizlikdir.

Inson kimnidir qattiq sevgani uchun bu badallarni yolg'iz o'zi to'lashga majbur bo'lmasligi



kerak. Shuni ongingizga singdirib oling, kim uchundir alam yutayotgan bo'lsangiz, u shunga munosib bo'lishi zarur. To'rt kunlik umringizni nomunosib insonlarni deb zaharga aylantirmang. Bu hayotda hech bir inson unutilmas emasligini yaxshi bilamiz. Ammo ma'lumki, ba'zi dardlar vaqtiga qo'shilish kerak. Ya'ni, balki qattiq ko'ngil qo'ygandirsan, umringdan yillarni fido qilgandirsan, joningni bergandirsan, u bilan et va tirnoqqa aylangandirsan, ammo keyin ayrilasan, yarim bo'lib qolasan va o'sha damda buning azobini nima qilsang ham kamaytirolmaysan. Vaqt o'tib, bu dardga ko'nikkancha yashashda davom etasan. Hammasidan ham yomoni bir muddat qo'lingdan hech narsa kelmaydi. Shu sababli o'zingni juda ojiz his qilasan. Shu muddat ichida qayerga borsang ham, kimning yonida bo'lsang ham, o'sha dard sen bilan birga yuradi. Unga aloqador bo'limgan narsalar ham uni senga eslataveradi. Qayerga qarasang, ikkingizga tegishli bo'lgan xotiralarni ko'rasan. Ammo bir kuni hammasi o'tib ketadi. **Vaqt o'tib, bir go'zal tongda uyg'onasan va o'sha yara endi joningni og'ritmayotgan bo'ladi...**

**Bu dunyoda hech kim voz
kechib bo'lmaydigan inson emas. Voz kechiladigan
insonni voz kechilmaydigan insonga aylantirgan voz
kechishni istamagan insondir.**

Mirach Chag'ri Oqtosh

**Moychechaklarni oyoqlaringiz bilan ezib, oshiqqan
gullaringizning tikanlari
har yeringizga botib, azob berishini
tilayman**



To'siqlarga qaramay sevdik



Seva olmadim

Sendan keyin yuragim hech bir insonning yonida hapriqib ketmaganini payqaganidan keyin hayotimga kimnidir kiritishga harakat qilmadim. Urinib ko'rishni qo'yib tur, hatto birov bilan tanishishga ham hafsalam bo'ljadi. Go'yoki boshqaga ko'ngil qo'yolmasin deb yuragimni o'zing bilan birga olib ketganga o'xshaysan. Xuddi o'tmishim bilan birga kelajagim ham sen bilan ketgandek... Sendan boshqa bir Xudoning bandasini sevolmayapman. Boshqa birovga nisbatan qalbimda iliqlik his qilmayapman, his qila olmayapman. Go'yo tug'ilganima qulog'imga aytilgan azon bilan birga bu hayotda sendan boshqaga ko'ngil qo'yolmasligim ham shivirlangandek... Men shunday bir bo'shliqqa tushib qolganmanki, na sendan oldin kimnidir chindan sevganman, na sendan keyin birovga ko'ngil qo'yolaman. Bu menga berilgan jazomi yoki choraszlikmi, bilmayman. Birgina shu haqiqatni bilaman, men sendan boshqasini sevolmayman. Hatto sen bilan ayrilganimizdan keyin ham hayotimga boshqa birovni kiritmadim. Menda qoldirgan jarohatingni o'zgasi bilan davolashga urinmadim. Vaqt bilan tuzalishini kutdim. Yaraga mikrob tushmasin deb, kimdir unga qo'lini tekkizishiga ruxsat bermadim. Sening o'rningga kimnidir qo'yish uchun, hatto harakat ham qilib ko'rmaslikka oldim. Meni dunyolardan ortiq sevishini iddao qilganlarni eshitmaslikka oldim.

Tuyg'ularini ko'rmaslikka oldim. Vaqt o'tib esa, o'sha jarohat ortiq menga azob bermayotganini payqadim.



Vaholanki, jarohatim tuzalgan emas, yuragimdan ayrilgan ekanman. O'sha yurak bus-butunligicha sen ekansan.

Hammasi avvalgidek bo'lishiga zarracha ham umidim yo'q. Ammo shunday bo'lsa-da, bilib qo'yishingni istadim, sendan keyin hech kimning iforini dimog'imgacha simirib, hidlamadim. Hech kimni o'pa olmadim. Kimnidir qo'llaridan tutolmadim. Qahva ichish uchun o'tirgan stollarimda men ichmay sovutgan qahvalarning son-sanog'i yo'q. Chunki men ayrilgan kunimiz sendan boshqa hech qayerga va hech kimga keta olmaydigan darajada senda qolganman. Hatto endi onamning iltijolari ham meni oyoqqa turg'azolmaydi. Men seni unuttirmoqchi bo'lganlarga bir kun ham izn bermadim. Ushbu qarorimda har doim sobit qoldim. Va bu shunday bo'lib qoladi.

**Menda mavjud bo'lgan chorasizlik shu darajadaki,
sendan qochib kirgan har bir ko'cha
meni senga olib boradi...**



Ishqning poyoni bormi?

Ayrim insonlar sevgiga ishonmaydi. Ayrim insonlar sevgisiz hayotini tasavvur ham qilolmaydi. Kimdir umr bo'yni sevgining totini bilmaydi. Sevishni istasa ham, qo'lidan kelmaydi. Chunki u o'zini bir kuni hamma narsa tugashiga ishontirgan. Qolaversa, o'zim ham bir kuni hamma narsa poyoniga yetishiga o'zini ishontirib, hech qanday tuyg'u uchun qadam bosmagan insonlar bilan hamfikrman. Lekin hamma narsa bir kuni tugaydi deb, boshdan kechirish kerak bo'lgan shuncha narsadan qochishga urinish menga mantiqli fikrdek tuyulmaydi. Agar mendan so'raydigan bo'lsangiz, ishqning poyoni yo'q. Uni o'zлari tugatishadi. Qolaversa, chindan sevgan odam mayda ikir-chikirlarni deb sevgan insonidan yuz o'girmaydi. Agar sevishini iddao qilgan holda seni tark etayotgan bo'lsa, undan umidingni uz. Unday inson sevmaydi. U turdag'i insonning sevgisidan senga yaxshilik chiqmaydi. Zero, ishqning poyoni bor deb o'ylaydiganlar ishqni o'z miyalarida tugatishadi. Men bunga ishonaman. Agar ishq bor bo'lsa, u qanday tugashi mumkin? Buni menga tushuntirib berasizmi? Ko'ngil qo'ygan, qadrlagan, hammadan qizg'ongan va avaylagan insoningga nisbatan his qilgan tuyg'ularingni agar qalbingda yashatishni bilmasang, albatta, sevgi tugaydi. Ammo uni sen tugatgan hisoblanasan.

Agar ko'ngil bog'lagan insoningga yuragingdagi bor tuyg'ularni his qildira olsang, o'sha tuyg'ularga sadoqat saqlay olsang, boshingga qanaqa qiyinchilik tushmasin,



voz kechib ketishning o'rniga muammolarni yechish uchun kurashsang, o'z muhabbatining himoya qilsang ishq tugamaydi. Agar sevgan insonningizga nisbatan bularning hammasini qo'llagan taqdiringizda ham bir narsalar nihoyalanayotgan bo'lsa, tugayotgan ishq emas, o'sha insonning tuyg'ularidir, jondan ortiq sevib, boringizni fido qilgan insonning nonko'rligidir. Ishq aslo tugamaydi. Uni tugatishadi.

Bu hayotda jonini bergudek sevganlarning qadri bo'lmaydi. Eng toza tuyg'ular eng nomunosib insonlarga surf qilinadi.

**Chindan sevgan insonni ko'rmaslikka olishadi.
Nomunosiblarni doimo sevishadi.**



Azob chekmay unutish mumkinmi?

Agar bir insonni azob chekmay unuta olsang va uning xotirasi qalbingni zarracha ham tirnamasa, demak, sevmagan ekansan. Agar sen qutulmoqchi bo'lgan dard qayerga borsang, ortingdan borsa, har tong uyg'onganingda azobing kamaygan bo'lishni o'rniiga yanada ortgan bo'lsa, hamma qiyofalarni unga o'xshatayotgan bo'lsang, nafasing bo'g'ilayotgan bo'lsa, nazar solgan har yeringda uni ko'rishni istayotgan bo'lsang, demak, telbalarcha sevgan ekansan. Xo'sh, bu qadar sevgandan keyin unutish uchun qancha vaqt talab qilinadi? Sevib, ayrilgan insonning unutish davri qalbidagi sevgining hajmi bilan mutanosibdir. Gapning qisqasi, unutishning aynan tayinlangan bir muddati yo'q. Kimdir bir haftada unutadi, kimdir bir oyda, kimdir bir yilda... Kimlar bo'lsa, umrining oxirigacha sevadi, qalbidagi ishqni butun umr ko'tarib yuradi... Bir insonni qanday va qachon unuta olishing to'g'risidagi savolning javobi o'zingning qalbingda yashiringan. Unutish, unutmaslik yoki unutishni istamaslikni yuraging belgilaydi. Sen boryo'g'i uning qarorini tasdiqlaysan. Yuragingning amriga "labbay" deya bo'yosunishga majbur bo'lasan. Ammo ko'p hollarda yurakning amri insonga azob beradi.

**Unuta olsang – havas,
unuta olmasang – ishqdir...**



Oshiqning yeydigan taomi – ovunmoq

Qalbida ishq yo'qdan mehr kutib, o'zni ovutish edi
mening qiladigan ishim. Sevmasligini bilib turib, sevadi
deb o'zimni aldardim.

Aslida, hech qachon boshlanmagan narsaning
tugaganiga ishonishni istamasdim... Sira sevilmaganimni
tan olishni istamasdim... Yolg'on-yashiq va soxta umidlar
bilan to'la bir tushdan haqiqatlari bilan yuzimga tarsaki
soladigan hayotda uyg'onishni istamasdim. Kerak bo'lsa,
o'sha yolg'on-yashiq to'la tushda o'lishni istardim...

U menga befarqligini bilib turib, meni sevadi
deb o'zimni ovutib yashadim. Mendagi ishq meni
sevmasligini bot-bot sezdirsa ham, meni sevishi haqida
orzular qiladigan darajada ahmoqona bir ishq edi. Va bu
ahmoqona ishqni deb arzimaydigan inson uchun o'zimni
aldab yashashdan nariga o'tolmasdim... Ha, mana shu
ahmoq seni boshlanmagan narsaning tugaganiga o'zini
ishontirishni istamaydigan darajada kuchli sevgan edi...

**Yuragini yulib beradigan darajada sevganlar bisyor
edi. Ammo u yuraklarning qadrini hech bilishmadı...**



Umr qisqa. Yaqinlaringizni ranjitmang

“Xafa bo‘lish va kechish uchun bahonalar qidirishning o‘rniga sevish va sevilish uchun choralar qidiring.” degan hazrat Mavlono Rumiy. Aslida juda haq gapni aytgan. Ammo ming afsuski, hozirga kelib insonlar shu qadar hissizlashganki, notinchlikdan, nafratdan, urush-janjaldan, arazdan ozuqa olishadi. Bir insonni sevish uchun minglab sabablari bor holda, o’sha insonni sevmaslik uchun hatto tishning kovagini ham to‘ldirmaydigan bahonalar yaratadi.

Agar sevish uchun ko‘pgina sabablaringiz bor bo‘lsa ularni isrof qilmang. Ishoning, hayotingizga arazingiz, nafratingiz, urush-janjallaringiz go‘zallik olib kirmaydi. Albatta, urush-janjallar tabiiy hol, ammo bundan ozuqalanmang. Insonning hayotini faqatgina muhabbat tuyg‘usi go‘zallashtirishga qodir. Bu haqiqatga ishoning. Bu go‘zallikni o‘z qo‘llaringiz bilan barbod qilmang. Toki hali tirik ekansiz, nafas olayotgan ekansiz, seving va sevgan insonlaringizning qadriga yeting.

**Dunyoning ilmini bilishingizga hojat yo‘q!
Sizni jondan ortiq sevgan qalbning
qadrini biling, kifoya.**



Go'yo sevadigandek rol o'ynaganlar uchun...

Vaholanki, sevmas ekansiz, o'zingizni sevadigandek qilib ko'rsatmang. Insonlarning tuyg'ulari va ularning ojiz tomonlari bilan o'ynashishni bas qiling. Ularning yaralarini battar qonatmang. Sizni sevgan insonlarning qarg'ishiga qolmang. Ularning xayollarini chippakka chiqarmang. Nima bo'lgan taqdirda ham siz tomon kelgan insonlarning yuziga eshiklaringizni yopmang. Boshida umid berib, keyin yolg'iz tashlab ketmang. Agar ustidan chiqolmasangiz va'dalar bermang. O'tkinchi insonlarni deb butun umr yoningizda bo'ladiganlardan yuz o'girmang, ularni sariq chaqaga sotmang. Sizga ishonch bildirgan insonlarni qilgan ishiga pushaymon qildirmang. Toki kelgan ekansiz, butun umr yonida qoling. Unga ko'nglingizni ochgandan ikki kun o'tib, tashlab ketmang.

**Hali pushaymoniga aylangan insonlaringizni
kunduzi chiroq yoqib qidirasiz.
Qarg'ishini olgan insonlaringizning uvoliga qolasiz.**



Qadrsizlanganlarga...

Butun boringizni berib sevgan insoningizning hayotida zarracha ham o'rningiz yo'qligini ko'rishdan ham yomonrog'i yo'q. O'sha onda siz his qilgan azobning ta'rifi hech qayerda yozilmagan. Bu azobning nimaligini hammaga misli kaktusdek tikanli bo'lib, bиргина suygan insoni uchun moychechak kabi gullaganlar biladi...

Men uni bor-u yo'g'i bilan, baxt va qayg'usi bilan umuman aytganda, butun borlig'i bilan sevdim. O'zimdag'i bor imkoniyatlarimni ishga solgancha sevgan bo'lsam ham oxiri qadrsizga aylanganimni va bu narsaning menga berayotgan azobini ta'riflashga urinib ko'raman. Tasavvur qil, qo'lingda moddiy yoki ma'naviy nima bor bo'lsa to'kib sochasan. Shu paytgacha hayotingda kim uchundir sarf qilmagan qimmatli vaqtingni uning uchun ajratasan. Unga juda katta ahamiyat berasan. Uning yuzidagi, hatto eng mitti tabassumning sababi bo'lish uchun boringni fido qilasan. Qarshi tomondan sevilmayotganining bilib turib, yanada sevishda davom etasan. Ammo bularning evaziga olgan javobing shu bo'ladi: "Sevmasam bo'larkan..." So'ngra barcha xayollaring sarobga aylanadi. Butun dardlar sening gardaningga yuklanadi. Bu hayotda doim oshiqlarning ko'ngli olinishning o'rniqa qarg'ishini olishadi.

**Men seni butun borlig'im bilan sevgandim.
Zero sening hayotingda zarracha o'rnim yo'q ekan!
Menga bu saboqni berganing uchun sendan
minnatdorman.**

O'tib ketmaydi

Chuqur nafas ol va ushbu so'zlarni takrorla: "Hammasi o'tib ketadi. Faqat biroz sabrdan keyin..." Keyin esa, qo'lingdan kelganicha bu so'zlarga o'zingni ishontirishga harakat qil. Bilaman, hammasi o'tib ketadi, deb umid qilib yashash hozirgi insonlarni qoniqtirmaydi. Senga bir sirni ochaymi? Aslida, hech narsa o'tib ketmaydi. Aksincha, yanada battarroq tus oladi.

O'zingni behudaga aldashni bas qil. Hammasi o'tib ketadi deb o'zingni ovutma. "Havotir olma, hali hammasi yaxshi bo'ladi. Bu kunlar o'tadi", deganlarga ham ishonma. Hech narsa o'tib ketgani yo'q. O'tib ketish niyati ham yo'q. Shuncha vaqtidan beri o'tib ketmadimi, endi ham o'tmaydi. O'tib ketdi deb o'ylaysan, ammo azob chekkaningda anglaysan, hali o'tib ketgani yo'q. Har tong uyg'onganingda o'sha og'rirq ko'ksingga yanada kuchliroq bosim o'tkazayotganini his qilasan. Va o'sha lahzada tushunib yetasan, o'tib ketmadi, o'tib ketmagan, o'tib ketmaydi... Go'yo o'tib ketgandek bo'ladi, ammo har on o'sha og'rirqni his qilaverasan.

**O'zingni aldashni qo'y, hech narsa o'tib ketmaydi.
Na yuraging avvalgidek kimnidir seva oladi, na tugab
bitgan hislaring oldingi holiga qaytib qoladi.**

**Aslida, hech narsa o'tib ketmasa-da, ayrim
go'zalliklar sen bilan birga kelishiga ishongandim.
Yanglishibman, avvalgidan ham ko'proq ozorlandim.**



Sevishdan sira to'xtamadik

Orzularimiz sarobga aylangan bo'lsa ham, ishonchimiz suiste'mol qilingan bo'lsa ham, jimjimador so'zlarga va soxta samimiyatga ishonib, "U boshqalarga o'xshamaydi", degan nazar bilan qaraganlarimizning aslida, boshqalardan zig'ircha ham farqi yo'qligiga bot-bot guvoh bo'lgan bo'lsak-da, sevishdan to'xtamadik. Chindan ham shunday emasmi? Insonlarga takror-takror ishonch bildirmayapmizmi? Takror-takror ko'ngil qo'ymayapmizmi? Shu qadar kuchli ishonch bilan sevganimizdan "Bu safar azoblanmayman", deb tashlagan har qadamimizda oldingidan ko'proq yaralanib, oldingidan ko'proq azoblanayapmiz. Ammo shunday bo'lsa ham, bir on bo'lsa-da, sevishdan voz kechmayapmiz. Voz kecholmayapmiz! Ehtimol, jarohat olayotgandirmiz, ammo hech narsaga qaramay sevishdan to'xtamayapmiz. "Qaytib hech kimni sevmayman!" deb turib, baribir yuragimizga yengilmoqdamiz. Keraksiz insonlarni eng toza tuyg'ularimiz bilan qarshi olyapmiz va eng ko'p shunga kuyayapmiz...

**Bizni ham yaralashdi, ammo baribir sevdik.
Agar yana shunday imkon berilsa, yana sevamiz.
Chunki bizning qalbimiz ishqidan iborat.**



Kelma

Bilaman, meni umuman sevmaysan. Ammo shunga qaramay, men seni juda qattiq sevaman. Qolaversa, chin ishq degani faqat ikki tomonlama sevgi degani emas-ku?! Muhimi, bir tomonlama bo'lsa ham, ikki tomonga ham yetadigan darajada seva bilmoqdir. Tan ol, buni senga isbotlagan birgina mening qalbim edi. Ammo sening his-tuyg'ularing shu qadar so'qir ekanki, bu haqiqatni hech qachon ko'rolmadi. Agar meni, hatto qishning o'rtasida ham eshikdan tashqariga chiqarib qo'ysang ham, bilki, bu qalbim senga hamisha qo'rg'on edi. Ayrim insonlar sevgan insonini faqat qalbiga so'zi o'tmagani uchun sevadi. Voz kecha olmagani, unutishni istamagani uchun sevadi. Ammo mendagi tuyg'u unday emas edi. Men seni noiloj qolganidandan sevmadim. Yoki qalbimga so'z uqtira olmaganim uchun ham sevmadim. Aksincha, sendan voz kechishim uchun oldimda minglab sabablar tursa ham, hech biriga e'tibor bermadim. "Qalbga so'z uqtirib bo'lmaydi", deyishadi-ku? Ammo men uqtirdim. Qalbimga seni yanada kuchliroq sevishi uchun buyruq berdim. Seni allaqachon unutishim kerak bo'lsa ham, seni unutishim uchun qo'lingdan kelganini qilgan bo'lsang ham, sendan, mendan va birgina men tomondan yaratilgan bizdan, bir on bo'lsa ham voz kechmadim. Biroq buning evaziga sevilmadim va meni sevmaganing uchun



sendan g'azablanib, sitam yetkazmadim. Joni omon bo'lsa
bas, dedim. Sevilmasam, sevilmabman-da. **Zotan bunga**
ko'nikdik, men uning o'rniqa ham sevaman...

**Endi kelishinga hojat yo'q.
Sening "sevaman"laringga ko'nglimning ko'zi to'q.**



Sevmaganlarning sevilmaydigan kunlari albatta, keladi

Ishq uchun olingan ikki kishilik chiptalarning qaytishi doimo bir kishilik bo'ladi. E'tibor bering-chi, kim o'sha yo'ldan yolg'iz o'zi qaytyapti? Javobi taxmin qilinishi oson bo'lgan bir savol bu, shunday emasmi? Albatta, eng ko'p sevgan tomon yolg'iz qaytyapti. Havas va baxt-u saodat bilan ketgan ishq safaridan ulkan hamda ichidan qutilish o'ta mushkul bo'lgan azoblar bilan qaytyapti. Sevilgan tomonni faqat ketishini tomosha qilyapti va o'ziga qoldirilgan hasratlar bilan kurashyapti.

Ming afsuski, ishqdaadolat bo'lmaydi. Bir tomon juda chiroqli sevadi, narigi tomon juda chiroqli tark etadi. Bu sira o'zgarmaydigan qonundir. Eng ko'p sevgan tomonga aziyat yetsa ham, u sevishdan to'xtamaydi. Hatto qadam tashlashgada holi qolmasa ham sevgan insoni tomon yugurishdan charchamaydi. Haqiqiy sevgi deb mana shunga aytildi. Ammo sevilgan tomon buni tushunmaydi. U uchun qilinayotgan fidokorliklarni ko'zları ko'rmaydi. O'zi bilan unga atalgan sevgining o'rtasiga shu qadar ulkan devor qurgan-ki, na u uchun qilinayotgan harakatni ko'radi, na unga qo'yilgan muhabbatni his qiladi. Ayrimlari yarim yo'lda qoldirib ketishadi, ayrimlari senga yo'l ko'rsatishadi. Afsuski, ular bunga sevgi deyishadi...

**Go'zal shaklda sevgan insonni qadrsizlashadi.
Hech narsaga arzimaydigan insonni esa
boshga toj qilishadi.**



**O'zimni tushuntiraman deb urinma.
Anglashni istamaganga tushuntirishdan nima naf?**

Mening hech qachon dardimni bo'lishadigan bir insonim bo'lmasdi. Bir kun bo'lsa ham bir sigaretani og'zimga olgancha, tutunini puflab, o'sha puflagan tutunimga dardlarimni aytmadim. Bu tarzda yengillashmadim. Borib shisha-shisha aroq ichib, mast bo'lgancha bo'sh shishalarga sitamlarimni sotmadim. Men hamma dardlarimga uyg'oq aql bilan bardosh berdim. Turli xil vositalardan dardimga chora izlamadim. Ilojsiz qoldim, kimsasiz qoldim, ammo bir Xudoning quliga yolvorib bormadim. Dardlarim butun vujudimni qamrab olgan kechalarda ko'zimga uyqu kelmadi. Yostig'imni g'ijimlab yig'ladim. Ovozimni birov eshitmasin deb yostig'imni yuzimga bosib yig'ladim. Sovuq ko'rparmaga burkandim, ammo hech qayerga va hech kimsaga bormadim. Og'riqning eng dahshatlilarini totib ko'rdim, ammo kimdir yaramga malham bog'lashini kutmadim. Men dardlarimni har dam ichimga yutdim, biroq insonlar tomon qadam bosmadim. O'z dardlarim bilan o'zim kurashdim. Boshimga nima tushsa hammasini bir o'zim yengdim, lekin biron bandaga sezdirmadim. Ichimda ayovsiz jang ketar ekan, barchaga kulib qaradim. Meni baxtli deb o'ylashdi.

Seningcha, agar dilimni ochsam, meni tushunisharmidi? Qo'ysangchi...

Agar dardimni aytganimda ham meni tushunishmasdi. Shuncha dardni o'z ichimga yutib, yengdim.

Mirach Chag'ri Oqtosh

Ehtimol biz sevganimizchalik sevilmagandirmiz, ammo siz ozor bergenningizchalik ozorlanasiz, yaralaganingizchalik yaralanasz, yig'latganingizchalik ko'zyosh to'kasiz, aldaganningizchalik aldanasz. Kimga nimani ravo ko'rgan bo'lsangiz, hammasi o'zingizga qaytadi. Oyoqosti qilgan tuyg'ularingizga zor bo'lasiz. Sizni qarg'agan insonlarning la'nati ostida qolasiz. Bunga ilohiyadolat deyiladi. Allohga havola jazoingiz...

Yanada sevdik...



To'siqlarga qaramay sevdik

Mirach Chag'ri Oqtosh

**Seni sevmagan har insonda meni yodga ol.
Yodga olki, meni tushun.
Meni tushunki, yana senga chindan ko'ngil qo'ygan
insonga sitam yetkazma...**



To'siqlarga qaramay sevdik

Hamma bir kuni ketadi

Ishqdan masrur bo'lib, shu hol abadiy davom etadi, deb o'ylama. Hamma bir kuni ketadi. O'zingni "U ketmaydi" degan yolg'onlarga zinhor ishontirma.. Qolish uchun kelganlar ham ketadi. Aynan qachon ketishini bilasanmi? Ishonch bildirib, bor-u yo'g'ingni o'rtaga qo'yaningda ketadi. Hammadan yuz o'girib, hammadan qochib, bir u tomon talpinganingda ketadi. Sevgingni unga his qildirganingda ketadi. U shunday tark etadiki, bunday ketishga qaytib butun umr guvoh bo'lmasan. Bu ketish nafaqat sening balki uning ham yodidan chiqmaydi. Bu ketish, balki seni chuqur qayg'uga solar, ammo u senchalik beminnat sevadiganni qaytib uchratmaydi. Uchratdim deb o'ylasa ham yanglishadi.

Avvaliga u seni sevishiga ishontirish uchun hayotingning qoq markaziga kelib o'tiradi. Keyin istaganicha xayollaringni to'zg'itadi, tuyg'ularing bilan o'ynashadi, ranjitadi, yaralaydi, bezdiradi va oxiri seni tugatadi. Ammo shu asnoda o'zini seni sevadigandek ko'rsatadi. Seni ham bu yolg'onga ishontirishga harakat qiladi, ammo ishonma. Agar ishonadigan bo'lsang, bu yolg'on seni qattiq azoblaydi. Aldanma. Keyin azoblanmaslik uchun hech qachon ketmayman deganlarga ishonma...

Hamma bir kuni ketadi. Hech kim abadiy qoluvchi emas. Voz kechib bo'lmaydigan ham emas.

Jondan ortiq sevib, tark etilganlar buni yaxshi biladi.

Mirach Chag'ri Oqtosh

*"Mendan senga ziyon yetmaydi" deganlarning
bizga yetkazmagan zararlari qolmadi. "Mening yuragim
keng" deganlarning o'zidan itargan yagona insoni biz
bo'ldik. Bizni eng ko'p "Men juda ta'sirchan bir insonman",
deganlarning hissizligi qiynadi. "Men sensiz yashay
olmayman!" deganlarning bizning o'rnimizga qo'ymagan
odamlari qolmadi. "Menga ishonishing mumkin",
deganlardan eng og 'ir pandlarni yedik. Bizga kim nimani
iddao qilsa doim teskarisi bo'lib chiqdi. Ularning so'zлари
faqat so'zligicha qoldi va bu bizni hanuz qiynaydi.*

Yanada sevdik...



To'siqlarga qaramay sevdik

Men "koshki"lardan iboratman

Meni "Yaxshiyam sen bilan tanishibman", deyishning o'rniga, "Koshki sen bilan tanishmasam edi", deyishga majbur qilgan insonlardan xafaman. Ularni aslo kechirmayman.

Borgan sari "Yaxshiyam sen bilan tanishibman", deydigan insonlarim kamayib borayotgani bilan bir qatorda, "Koshki sen bilan tanishmasam edi" deydigan insonlarim ko'payib bormoqda... Chindan ham odam bolasiga yaxshilik yoqmaydi. Hech kim ko'rsatgan hurmat-e'tiboringga, qadr-qimmatingga va eng asosiysi hech kim muhabbattingga arzimaydi. Qaytanga yaxshilik qilganing uchun sen yomon bo'lasan. O'ylaganining uchun sen yomon bo'lasan, sevganining uchun sen yomon bo'lasan. Eng ma'quli hammasini uzoqdan kuzatishdir. Agar hech kim bilan ovora bo'lmay, hech kimga ahamiyat bermay, hech kimga parvo qilmay, faqat bir o'zing hammasini uzoqdan kuzatadigan bo'lsang, bilginki, sendan xotirjam inson bo'lmaydi. Vaholanki, qadrlagan tarzda qadrsiz va sevgan holingda sevilmagan sen bo'layotgan ekansan, kun kelib ko'ngil qo'ygan insoning hech narsaning qadriga yetmay, hammasiga nuqta qo'yib ketar ekan, sen dunyodagi eng toza qalbni ko'tarib yursang ham buning hech qanday ma'nosi qolmaydi. Chunki bularning badalini sen to'laysan. Va aynan buning uchun ikki karra azoblanasan.

**Bir vaqtlar "Yaxshiyam sevibman" degan qalbimni
"Koshki uni uchratmasam edi", deyishga majbur
qilganing uchun seni aslo kechirmayman.**



Tangrim, bizga qalbimizga munosibini sevdir!

Shunday insonlarni ko'rdim, xiyonatga uchraganidan keyin o'zini qayta tiklay olmay, hayotini zaharga aylantirgan. Shunday insonlarni ko'rdim, xiyonatga uchraganidan keyin bundan xulosa chiqarib, hayotini tubdan ijobiy tomonga o'zgartirgan.

Ehtimol, ko'ngil qo'ygan insoning tomonidan xiyonatga uchrab, yolg'iz qolgandirsan. Davrimizning insonlari buni boshdan kechirishi odatiy tusga aylangan. Chunki hozirgi insonlar xiyonat qilishni, tashlab ketishni va aziyat yetkazishni o'zlariga odat qilib olishgan. Ro'paralaridan kim chiqsa, hayotlariga kim kirsa, ularda o'z "hobbi"larini sinab ko'rishdan tortinmaydi. Ushbu achchiq haqiqatdan xabar topganingda seni aldagan bir nomardni deb hayotingni zaharga aylantirma. Ehtimol, sen xiyonatga munosib bo'lmagandirsan, ammo shu haqiqatni yodingdan chiqarma: sen aldanmading. Aslida, u seni aldadim deb o'ylab, o'zini aldadi! Endi aslo sendek beg'araz sevadigan insonni topa olmaydi. Hali bu qilgan ishi uchun keyinchalik pushaymon bo'ladi, ammo u payti g'isht allaqachon qolipidan ko'chgan bo'ladi.

Bu hayotda hamma o'ziga yarashgan ishni qiladi. Seni uni beg'araz va beg'araz sevib, o'zingga yarashadigan ishni qilding.

U ham o'zini shu qadar sevib, ardoqlagan insonga xiyonat qilgancha, o'zini pastga urib, o'ziga yarashadigan ishni qildi. Agar u o'ziga shu nomardlikni ep ko'rgan bo'lsa, sening qo'lingdan hech narsa kelmaydi. Sen chekingga

tushganini ado qildingmi? Sevgingni unga ko'rsatdingmi? Harakat qildingmi? Unday bo'lsa ko'nglingni xotirjam qil. Senga xiyonat qilgancha bu azobni boshinga solgan inson uqlash uchun boshini yostiqqa qo'ygan har bir tunida tinch uyquga ketolmaydi. Sening uvoling har kuni uning qulog'iga shivirlaydi. Vijdoni uyg'ona boshlaydi. O'lgudek pushaymon bo'lib, ortga qaytishni xohlaydi-yu, ammo qaytolmaydi. Bu pushaymonlik unga har nafasida azob beradi.

Nojib Fozilning ta'kidlaganidek: "Sen shunday sevki, tashlab ketgan yor uyalsin".



Erkingizni chegaralagan insonni emas, uni o'zingizga topshirgan insonni seving

Ayrim insonlar sevgan insoni uning erkini chegaralab, rashk qilishini istamaydi. Shu sababli hayotida bir inson bo'lsa-da, tashlayotgan har qadamini, qilayotgan har qarorini yolg'iz o'zi qabul qiladi. Bir qushga uchma deya olmaganing kabi, o'z erkiga ega insonga ham buni kiyma, u joyga borma deyolmaysan. Degan taqdiringda ham majburlay olmaysan. Chunki erkiga bo'lgan muhabbat senga bo'lgan muhabbatidan ustunlik qilishi mumkin. Natijada o'zing qiynalasan. Shuning uchun qizg'anishingni xushlamagan insonni rashk qilmasliging kerak. Zero rashk qilmagan insoningni seva olmaganing kabi bu turdagи munosabatlar sen uchun emas. Qolaversa, "Men rashkchi inson emasman", deganlarning kimnidir chindan ham sevishiga ishonmayman. Agar qizg'anmas ekansan, demak, sen u insonni sevmaysan, buni boshqacha tushunish mumkin emas. Men rashkchi inson emasman deganining nimasi? Bir inson o'z sevgan yorini qanday qilib boshqalardan qizg'anmasligi mumkin? Qanday ahamiyat bermasligi mumkin?

Aybga buyurmang, ammo men sevaman deb turib, lekin rashk qilmagan insonning samimiyatiga ishonmayman. Ehtimol, meni eskicha fikrlaysan deb ayblashingiz mumkindir, ammo men sevgan insonimni qizg'anaman. Qizg'anaman deganda, buni kiyma, u joyga borma degani emas. To'g'ri, yuqorida keltirib o'tganlarimni sevgan insonida qo'llab, unga hayvondek muomala



qiladiganlar ko'p. Men bunday vaziyatga duch kelib qolsam, faqat kulaman. Sevmoq bu hayotingdagi insonning erkini chegaralab, uning boradigan joylarini belgilashmi? Yoki uning kiyadigan kiyimlariga chegara qo'yishmi? Agar siz sevish deganda shuni tushunadigan bo'lsangiz, demak, sizning tushunchangiz noto'g'ri ekan. Modomiki, kimgadir ko'ngil qo'ygan ekansan, unga ishonishni ham bilishing kerak. Masalan, u qayergadir ketganida xayoling unda bo'lishining sababi undan shubhalanganing emas, undan xavotirlanganing bo'lishi kerak. Kiyim-kechagiga aralashib, uning erkini bo'g'masliging lozim. Agar sen uni chindan ham go'zal shaklda sevadigan bo'lsang, sevging unga uning kiyadigan kiyimidan ham ko'proq yarashadi. Mayda-chuya narsalarni deb ranjitishning o'rniga benuqson sevishni sinab ko'ring. Ishonishni sinab ko'ring. Chegara qo'ymay qizg'anishni sinab ko'ring. Silab-siypalash uchun qo'lingizga olgan qushni bo'g'ib o'ldirmang.



Ikki tomonlama sevgining hasratini faqat bir tomon chekmasligi lozim

Borgan sari insonlarni tushunishim qiyinlashib bormoqda. Necha yillardan buyon birga bo'lgan insoni hayotidan chiqar-chiqmas yangisini topganlarni ko'rganimdan beri insonlarni tushunish uchun qilayotgan harakatimni to'xtatdim. E'tibor bering, "yillar" deyapman. Bu aytishga oson, lekin shu yillarning ichida qancha xotiralar, qancha dardlar, qancha baxtiyorliklar, qancha tuyg'ular, qanchadan qancha og'ir va yengil kunlar mujassam. Qolaversa, inson shuncha vaqtini birga o'tkazgan, quvonch-u g'амини birga baham ko'rgan va ayni ishqdan mast bo'lgan insonini hayotidan chiqarishi bilan darhol yangisini topganiga guvoh bo'lganidan so'ng sevgiga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Sevgan odam necha yillardan buyon davom etib kelayotgan munosabatlari tugashi bilan darrov boshqasini topishga urinmaydi. O'zini go'yo hech narsa bo'limgandek tutolmaydi. Kimdandir yarasiga malham sifatida foydalanmaydi. Ammo shunday insonlar borki, ularni inson deyishga ham tilim bormaydiyu, lekin ming afsuski ulardan biri mening sobiq sevgilim edi. Uch yil ichida unga bor-u yo'g'imni berdim.

Butun qalbim bilan uni sevdim. Ota-onasidan keyin unga eng kuchli mehrni ham men berdim. Unga bo'lgan muhabbatim shu qadar yuksak edi. Ammo biz ayrildik. Kulgili tuyuladi, lekin ayrilishimiz uchun aytarli sabab yo'q edi. Uch yil o'tib, unga bor-u yo'g'imni berganimdan va deyarli yo'limizni birga tanlaganimizdan keyin u menga



mendan zerikkanini aytdi. "Qo'limdan kelmaydi", dedi. "Uzoq muddatli munosabatlar men uchun emas" dedi. "Sen mendan ham yaxshilariga munosibsan", dedi, go'yo undan ham toshbag'irroq inson bordek. Men bilan ayrilganidan bir hafta o'tib, ha, atigi bir haftadan so'ng hayotiga yangisini kirittdi. Bu shu qadar jirkanch bir tuyg'u ediki, hech bir sababsiz ayrilganimizga bir kuysam, uning sira g'am chekmay, darrov boshqasi bilan munosabat boshlaganiga ikki, shuncha dardni yolg'iz o'zim ko'tarishimga ming kuyardim. Xudo bu azobni hech kimning boshiga solmasin.

Alloh hech kimning qarshisidan bunday surbet insonni chiqarmasin.

Faqatgina ishqni emas, uning hasratini ham birga chekadigan insonlarni bizga yor qil, Allohim.



Modomiki ketar ekansiz, nega kelasiz?

Hamma ketish uchun keladi, qolish uchun keladiganning o'zi yo'q. Insonlar go'yo "Ketish uchun kelish" degan musobaqada bellashayotganga o'xshaydi. So'zda hamma ishonchli odam, hamma oshiq-u beqaror, hamma qolish uchun kelgan. "Xo'sh, unday bo'lsa ketayotganlar kim?" deb so'rasak, hech kim churq etmaydi. Kim qolish uchun kelgan bo'lsa ertasi kuni ko'zdan g'oyib bo'ladi. Asosiy narsa qolish uchun kelish kerak, ketish uchun emas. Ammo hech kim buni bilmaydi. Vaholanki, bir kuni ketish uchun kelar ekansiz, bundan nima foyda? Bundan nima o'zgaradi? Sizning ham boshqalardan farqingiz qolmaydi. Siz ham odatiy insonlarning qatoriga qo'shilasiz va bu holat esa, bizning yana yanglishmaganimizni bildiradi.

Ammo inson keluvchilarining birida yanglishishni istaydi. Chindan ham qolish uchun keldim, deb aytgan inson to'g'risida xato o'ylagan bo'lishni istaydi. Chindan ham uning qolishini istaydi. Ketmaslik uchun kelganiga ishonishni istaydi. Ammo bir tomondan qo'rqedti.

Inson bu gal hammasi boshqacha deyishni istaydi. Uning ketmasligiga ishonaman, deyishni istaydi. Ammo yana sevgan va ishongan bo'lishiga qaramay, doimgidek u yanglishmaydi...

**Inson har gal yangi umid bilan sevadi va ishonadi,
lekin oxiri pushaymon bo'ladi.**



**Bir inson unga ko'ngil qo'ygani
uchun kimnidir
pushaymon qildirmasligi kerak**

Insonlarni aldashingizga nima majbur qiladi? Nima uchun o'zi yarim holda sizni butun qilishga uringan insonlarni kamiga siz ham yarim tashlab ketasiz? Nima maqsadda qalblarni sindirasiz? Nima uchun birovning ohiga sababchi bo'lasiz? Nima uchun gashti surilayotgan har go'zal onni zulmatga aylantirish uchun qo'lingizdan kelgan harakatni qilasiz? Vaholanki, faqat bирgina insonga tegishli bo'lishning beradigan baxt-u lazzatini hech narsaga almashib bo'lmaydi. Har tong uyg'onganingda uni xuddi ilk kundagidek seva olish saodatining qiyosi yo'q. Uning o'rniga nimanidir qo'yib bo'lmaydi. Bir insonning bir inson uchun kifoya qilishi mumkinligini nima uchun ahamiyatga olmaysiz? Nega bir vaqtning o'zida bir qancha insonga ega bo'lishni istaysiz? Sizga bir inson kifoya qilmaydimi? Yoki sizning yuragingiz bir paytning o'zida bir qancha insonlarga qo'rg'on bo'la oladigan darajada kengmi? Yuragingizdagi eng go'zal go'shani faqatgina bir inson uchun ajratishning o'rniga nima uchun mitti yuragingizga bir qancha insonlardan tashkil topgan to'dani sig'dirishga urinyapsiz?! Sizdagи tuyg'ular shunchalik arzonmi? O'zingiz shunchalik arzonmisiz? Shu qadar qiymatsizmisiz? Siz shu qadar nopokmisiz?



Aldamang! Shuncha soxtakorlik va yolg'onnинг ichida sizga ishonch bildirgan insonning xayollarini puchga chiqarmang. Undan ko'ra o'sha insonni yuragingizga joylang va faqat unga sodiq yashang.

**Bir nafardan ko'proq insonga ega bo'lish uchun
qilayotgan harakatingizni ko'rgan kunimdan beri
hech qaysingizga ishonchim qolmadi...**

Hojati yo'q

Endi kelishingga hojat yo'q. Chunki bir vaqtlar borliginga o'rganib, sensiz yasholmayman deb o'ylaganim kabi, yonimda yo'qligingda sensizlikka ham o'rgandim. Bilasanmi, hattoki hayotimning qolgan yarmini sensiz ham bemalol yashay olishim mumkinligini tasavvur qilyapman. Azalda sen bilan birga yurgan ko'chalarimizda yolg'iz o'zim ham yura olyapman. Endi kelma. Ehtimol seni sog'inarman, ammo baribir kelma. Chunki endi kelishingga hojat yo'q. Chunki men endi sensiz ham kuchliman. Birga tomosha qilishni xohlagan filmlarimizni yolg'iz o'zim tomosha qildim. Birga tinglamoqchi bo'lgan musiqlarimizni yolg'iz o'zim tingladim. Birga mutolaa qilishimiz kerak bo'lgan kitoblardagi go'zal jumlalarning ostini yolg'iz o'zim chizdim. Birga ichishimiz kerak bo'lgan qahvalarni bir o'zim ichdim. Sen bilan birga bo'lishimiz kerak bo'lgan joylarda doimo yolg'iz edim. Sensiz edim. Ammo shu muddat ichida bir narsani payqadim. Men sensiz ham o'z-o'zim bilan baxtli bo'la oldim. Sensiz ham o'zimni seva oldim. Men seni sevaman, deb o'zimni yo'qotgan ekanman. Bundan keyin ortingga qaytma. Chunki buning ikkimizga ham foydasi yo'q. Agar shuncha vaqt o'tib qaytadigan bo'lsang qalbimga va hislarimga zarar yetkazasan. Chunki biz kelajak uchun kech qoldik...

**Bizni yarim holda tashlab ketganlar
boshqasi bilan saodatga yeta olmasin.**



Hayvonlarni seving, chunki ular azob bermaydi

Hech kimga oshiq-u beqaror emasman. Ishq dardida yonib kuymayman. Sog'inchida hasrat chekadigan bir insonim ham yo'q. Sovuq havolarda "Ishqilib, qalin kiyindimikan?" degan xavotir bilan o'zimni tinchimni buzadigan darajada o'ta kuchli mehr bilan ko'ngil qo'ygan insonim men bilan familyadosh bo'lgan bir begona bilan to'yi bo'lganini eshitganimdan beri insonlar sevilishga arziydigan bir mavjudot deb hisoblamayman. To'g'ri, hayvonlarga bo'lgan mehrim azaldan o'zgacha edi, lekin bu kabi voqealar ularga bo'lgan sevgimni yanada oshirdi. Chunki chindan ham inson zoti go'zal tuyg'ularga arzimaydi.

Insonlarga ko'ngil berib, ularning asl yuzini ko'rganimdan keyin hayvonlarga bo'lgan mehrim yanada oshdi. Hayvonlarni seving, chunki ular azoblamaydi. Eng muhimmi, ular hech qayerga ketmaydi.

Hattoki ko'chadagi daydi itda bor sadoqat tuyg'usini insonlardan topa olmaysiz.

**Inson kimgadir ko'ngil qo'yganidan so'ng undan
mehr va e'tibor kutadi, ammo mehrga zor qoladi...**

Mirach Chag'ri Oqtosh

**“Sensiz nafas ololmayman!” deganlarning
boshqalar uchun bamaylixotir kislorod manbayidek
yurishi sening ham ko‘nglingni aynitadimi?**



To’siqlarga qaramay sevdik



Sevgan odam tashlab ketmaydigan boshqa bir sayyorada yashashni istayman

Sevgan inson tark etadimi? Albatta, yo'q! Agar inson chindan sevsə mayda-chuyda sabablarni deb sevgan insonidan yuz burmaydi. Undan aslo uzoqlasha olmaydi. Hatto arazlashgan holatda ham sevgan insonining yonida bo'lishni istaydi. Muammo nima bo'lishidan qat'i nazar, uni hal qilishga harakat qiladi. O'zini ko'ngil bergen insonining yonida xotirjam his qiladi.

Agar bir inson seni sevaman degan holda eng mayda sabablarni bahona qilib sendan uzoqlashgan bo'lsa, demak, u seni sevmaydi. Buning boshqacha bir izohi bo'lishi mumkin emas. Bu holat shaxsan o'zim bilan ham sodir bo'lgan.

Menga ham sevishini so'ylaganlar, eng mayda sabablarni bahona qilib tark etishgan. Vaholanki, tark etganlar ilk boshida sira ketmayman deganlar edi. Ular meni shu yolg'onga ishontirib ketishdi. Gapning qisqasi, sevgan inson hech qayerga ketmaydi. Aniqrog'i, keta olmaydi. Agar ketgan bo'lsa, zotan seni sevmagan ekan.

**Shu asnoda Nozim Hikmatning mavzu bilan aloqador
ushbu so'zлari yodimga tushdi: "Unutma, sevgan
ketmas. Ketgan esa sevmas..."**

Mirach Chag'ri Oqtosh

**Men so'zida turmagan insonning
durustligiga shubha qilaman.
Shuning uchun va'dasida turmagan
insonlarni hayotingizdan chiqaring.
Chunki pokizalik – iymondandir!**



To'siqlarga qaramay sevdik



Men seni sevganda...

Qachonki, sening ovozingni eshitsam – g'oyo ko'ksimdan bir to'da kabutar ko'kka parvoz qiladi.

Qachonki, sening iforingni tuysam – go'yo ko'zlarimdan to'fonlar toshib, dunyoning changini yuvadi.

Qachonki, seni o'ylasam – bolaligimda yo'qotgan o'yinchoqlarim ko'z o'ngimda paydo bo'ladi.

Qachonki, sen haqingda xayol sursam – arg'umchoq uchishga navbatim keladi.

Qachonki, sendan go'zal izhorlar eshitsam – og'zimdan o'n ming xil kapalaklar uchib chiqadi.

Qachonki, sening kulishingni ko'rsam – kimdir oldimga yangi damlangan choyni qo'yib ketadi.

Qachonki, sening qo'llaringni tutsam – o'lkada tantanali bayram boshlanib ketadi.

Qachonki, seni...

Seni sevganimdan buyon menga nimalar bo'lyapti, bilmayman.

Go'yo farishtalar kelib, hovuchlaridan konfetlar to'kib ketayotgandek tuyiladi. Xayoliy lazzatga cho'milaman...

O'zjan Bulbul



Ikkinci imkoniyat

Ayrim insonlar shu qadar qat'iy qaror qabul qilishadi-ki, hech kim ikkinchi imkoniyatga munosib emas deb o'ylashadi. Shu boisdan ham ishonch bildirib, imkon bergen insonlari o'sha imkoniyatdan to'g'ri foydalana olmaganida, ikkinchi imkoniyat haqida o'ylab ham ko'rishmaydi. Ayrim insonlar esa ikkinchi imkoniyatni qo'yib turing, bir insonga qayta-qayta imkon beradi. Chunki haddan ziyod sevadi. Chorasiz qolganidanmi yoki bu safar hammasi o'zgaradi deb o'ylaganidanmi, bot-bot aldangan bo'lishiga qaramay yana imkon beradi. Qayta imkon berilgan insonlar esa, o'zlariga yana ishonch bildirib, yangi imkon bergen insonning bu ojizligidan juda yaxshi foydalanishadi. Yana eski xatolarini takrorlagancha sho'rlik imkon bergen insonning qalbini battar yaralashadi. Qisqasini aytadigan bo'lsam, qayta-qayta imkon bergenning bilan hech narsa o'zgarib qolmaydi.

Ikkinci imkoniyatni arzimaydigan insonlarga bermang! Sizni aldagan insonga qanday qilib yana ishonasiz? Unga yangi imkon berish u yoqda tursin, hatto yaqinidan ham o'tmang. His-tuyg'ularingizga qaramligingizni deb, bu ojizligingizdan foydalanishga uringanlarga aslo bunday fursatni bermang. Ishonch bir marta yo'qotilganidan keyin qaytarib bo'lmasligini idrok qila olmagan insonlarning o'zgarishini kutmang. O'rningizga darrov boshqalarni qo'yganlarni ham aslo sevmang. Agar ikkinchi imkoniyatga arziydi, deb o'ylasangiz imkon bering. Vaholanki, hech qaysimiz



benuqson emasmiz. Xom sut emgan bandalarmiz, hammamiz xato qilishimiz mumkin. Ammo og'ir xatoga qo'l urgan insonga aslo qayta imkon bermang. Chunki birinchisida sizni yaralagan inson, ikkinchi martasida sizni qaytib hech kimni sevmaydigan va ishonmaydigan holatga olib kelishi mumkin.

To'g'ri, hamma ham xato qiladi. Ammo sizni chindan sevgan insonlarni sizga ishonganlari uchun pushaymon qildingiz.



Mannun qila olmadim...

Men sening tarqoq holatda ekanligingni bilgan holda senga keldim. Buni bilib turib, seni sevdim. Qolaversa, tarqoq holatdagi inson horg'in bo'ladi, bu holni boshqa hech kimga ravo ko'rmaydi, deb o'yladim. Ammo sen, boshqa birov boshingga solgan kunni xuddi shu tarzda mening boshimga solding. Indamadim... "Zarar keladigan bo'lsa, faqat undan kelsin. Bu birinchi marta yiqilishim emas-ku? Boshqatdan oyoqqa turaman", dedim. Sendan keladigan har qanday sitamga rozi edim. Ammo sen menga tunning bir qismida uyg'onib, yostig'imni g'ijimlagancha tongga qadar yig'lab chiqadigan kechalarni, yolg'iz o'zim yurib o'tolmaydigan manzillarni, yelkalarim ko'tara olmaydigan dardlarni, qaytib hech kimga ko'ngil qo'ya olmaydigan darajadagi ulkan nadomatlarni qoldirding. Ehtimol sen buni sezmagandirsan, ammo men senga nima qilsam ham yoqmadim. O'zgasini sevishingni bilib turib, yaralaringga malham qo'yaman deb o'zimni qiynadim. Seni baxtli qilish va qalbingdagi azoblarni biroz bo'lsa-da, yengillatish uchun qilmagan ishim qolmadi, ammo sen hech birini sezmadning. Har gal seni xushnud qilishga uringan insonning yuziga o'tmishdagi sevgiling senga qoldirib ketgan dard-u alamlarning ko'zyoshlarini to'kdining. Nonko'rsan!

**O'zgasi uchun azob chekkaningni ko'rdim.
Seni bu holatdan qutqarish uchun hamma ishni
qildim. Loaql shuning evaziga sevsang edi meni...**



Endi ko'ngil qo'y mayman

Ortiq hech kimni sevmayman. Sevishga urinib ham ko'rmayman. Kimgadir yoqish uchun harakat qilmayman. Ko'zyoshi to'kayotgan kimnidir ko'rsam, borib bag'rimga bosmayman.

Kim nima qilsa shuni qilsin. Kim kimni sevishi bilan ham endi qiziqmayman. Xohlasangiz meni his-tuyg'usiz deng, xohlasangiz xudbin deng. Yaxshisi siz ham birovni sevmang. Chunki hech kim muhabbatga arzimaydi. Shaxsan men insonlar sevilishga arziydi, deb o'ylamayman. Kimni sevsam yoki kimgadir sevishimni bildirsam, doim azobda qolgan men bo'laman. Kimga mehr berib, mehr kutsam, doim mehrsizlikdan qiyalgan men bo'laman. Men sevsam, sevgan insonim tunlari bermalol uxlaydi, doim bedor qolgan men bo'laman. Men sevsam, sevilgan tomon juda baxtli bo'ladi, baxtsiz qolgan tomon yana men bo'laman. Men sevsam, narigi tomon hayotda yashashni davom etadi, ammo men davom etolmayman.

Sevgi azoblaydi. Pushaymon qiladi. Xayollarining puchga chiqaradi. Hasratda qoldiradi. Agar inson bularni boshdan kechirgan va bo'g'zigacha azob bilan to'lgan bo'lsa, qaytib hech kimga ko'ngil qo'yishni istamaydi.

**Agar bir inson vaqtida sevilib, tark etilgan bo'lsa,
inson zotini sevilishga munosib bir mavjudot, deb
hisoblamaydi.**



Bobomga...

Menga ko'p bor ozor berdingiz bobo. Ammo men sira ginachi bir inson bo'lmadim. Shukrki, vijdonim ham men qayerga bormay, doimo yonimda edi. Boshimda otam yo'qligi sababli, meni odam bo'lmaydi deb o'ylaganingiz uchun meni sira ham yoqtirmasdingiz. Ammo shunday bo'lsa-da, men bunga umuman e'tibor bermadim. Meni ko'zdan yo'qotish uchun qilgan harakatlariningiz meni sira qiynamadi. Bu urinishlaringiz sizga bo'lgan muhabbatimni zarracha ham kamaytirmadi. Zero muhabbat degani har doim ham ikki tomonlama bo'lavermaydi. Bu hayotda bir tomonlama sevgilar ham bor. Inson sevilmagan tomonni ham sevishi mumkin. Ko'rmaslikka oladi, eshitmaslikka oladi, ammo baribir muhabbat qo'yishi mumkin.

Men necha yillardan buyon oila bag'ridan mosuvvo ulg'aydim. Faqatgina bir haqiqatim bor edi, u ham bo'lsa onam... Balki siz men uchun yaxshi bobo bo'la olmagandirsiz, ammo siz yaxshi ota edingiz. Onamning otasi bo'lganiningiz uchun ham sizni qattiq yaxshi ko'rardim. Goh menga uyingizning eshigini ochardingiz, goh eshikdan haydab chiqarardingiz. Ammo siz baribir mening nazarimda hech qachon tashlab ketmaydigan, sabrli va uddaburon bir ota edingiz.

Otalari doimo yonida bo'lgan nabiralariningizdan tashqari, sizni sizga oshkor qilmay yaxshi ko'radigan bir nabirangiz bor edi, bilmasdingiz. O'sha men edim...

Bir kuni telefon jiringladi. "Bobong kasalxonada", deyishdi. Siz lotoreya o'yinini juda yoqtirardingiz. Bir kuni



yutuq chiqib qolar degan umid bilan ancha yillar lotoreya sotib olishdan charchamadingiz. Kasalxonaga borar ekanman, siz uchun uch dona lotoreya chiptasidan sotib oldim. Kasalxonaga yetib keldim. Onam telefonda yig'lardi. Birozdan so'ng xolalarim ham yetib kelishdi, yig'lagancha meni bag'rilariga bosishdi. Qo'limdan hech narsa kelmasdi. Kasalxonaning saratonga chalingan bemorlar joylashgan qavatiga ko'tarildim. Ichkariga ko'pchilikni kiritishmayotgan edi, faqat navbat bilan kirishimiz mumkin edi. Ichkaridan xolam chiqdi va yig'lagancha meni bag'rige bosdi. Bemorning yoniga kirish uchun navbatini menga berdi. Yoningizga kirdim. Uxlayotgan edingiz. Boshingizda biroz o'tirdim, keyin uyg'ondingiz va qo'lingizni men tomonga uzatdingiz. Ko'nglim buzildi. Xayolimga o'lim keldi. O'lim – naqadar achchiq, naqadar qochib bo'lmas narsa.

Ko'zlariningizni ochdingiz. Qorachiqlaringizda baxtni ko'rdim. Nigohingizdan "Nabira degani mana shunday bo'ladi", degan jumlanı o'qidim. Necha yillardan buyon bobo mehrini ko'rmay qalbimda ochilgan bo'shliq o'sha onda, o'sha jumla bilan to'lgandi. Sevinchdan oyoqqa turdingiz. Yoningizdagи bemorlarga qarab, "Ko'rib qo'yinglar, bu mening nabiram bo'ladi. Menga lotoreya chiptasini olib kelibdi. Agar boshqa birovdan iltimos qilganimda, yodidan chiqarardi, ammo u men aytmasam ham olib kelibdi", dedingiz. Hammaning nigohi menda, mening qalbim otashda edi. Yig'lab yubormaslik uchun o'zim bilan kurashayotgan edim. Chunki o'sha onda ilk bor meni "nabiram" dedingiz. Shu menga kifoya edi. Necha

yillarki, yuragimda saqlanib yotgan arazlar tarqaldi...
Sizni qattiq yaxshi ko'raman, bobo! Buni siz bilasiz, men
bilaman. Bu bizga yetadi...

O'lim bor. Quchishni, sevishni va kechirishni ortga
surmang...



Vidolashmayman, biroz tanaffus qilaman...

Va nihoyat xotimaga yetib keldik... Men bu qismni yozishda doim hayajonlanaman. Xotimani yozar ekanman, o'zimni go'yoki bir filmning eng ta'sirli sahnasini tomosha qilayotgandek his qilaman. Hissiyotga berilgancha, ko'zlarim jiqqa yoshga to'lib-to'lib qoralayman sahifani. Xuddi qadrli narsam bilan vidolashayotgandek tuyuladi. Mayli, gapni ko'p cho'zmaylik. Xayollar haqida gaplashaylik? Ular judayam go'zal, shunday emasmi? Garchi, haqiqatga aylanmasa ham, insonning eng ko'p yashaydigan joyi bu - uning xayollaridir...

Kimningdir cho'ntagi qappaygan, ammo suradigan xayoli yo'q. Kimdir cho'ntagi va qornini to'ydirish bilan birga ruhiga ham ozuqa berishga katta ahamiyat beradi. Kimnidir esa na boradigan biron joyi, na ovunadigan bir insoni bor. Faqatgina haqiqatga aylantirishni istagan va suyanib qolgan yolg'iz xayollari bor xolos. Bir kuni u xayollari haqida bir insonga aytib beradi va bor xayollari ham puchga chiqadi.

Men bolalik xotiralariga katta ahamiyat beradigan, ammo bolalik davrini surmagan bir insonman. Bosh suqib boradigan biror makonim va biror kimim yo'q edi. Shunda o'ylab-o'ylab shu fikrga keldim, "Modomiki, bolalik davrini surolmagan ekanman, loaqal go'zal xayollar surishim kerak", dedim o'z-o'zimga.

Xayollarimning asosiy qismi o'z mualliflik kitobimni yozib chiqarish to'g'risida edi. Ammo shunday yozuvchi bo'layki, kitoblarimni minglab insonlar o'qisin degan

xayol bo'limgan sira. Faqat bir nusxada kitob chiqarishni va o'sha kitob ham faqat o'zimda bo'lismi istardim.

Bir kuni onam bilan bir kitob do'konigabordik. Kitob sotuvchisiga kitob mavzusini va o'ylab yurgan xayollarim haqida gapirib berdim. U esa menga, sening kitobing sotilmaydi, rastalarda qolib ketadi, degan edi. O'sha kuni butun xayollarim chippakka chiqqan edi. O'sha oqshomni sira unutmayman. Uyga sarobga aylangan xayollarim bilan qaytgan edim. O'sha tunda boshimni yostiqla qo'ygancha, ko'zlarimni shiftga qadadim. O'shanda nima voqeа sodir bo'ldi bilasizmi? Men ayni o'sha lahzada, o'sha fikrimda yanada qat'iylashdim. Taslim bo'lmadim. Voz kechmadim. Chunki mening eng buyuk orzuim shu edi va men buni eng go'zal shaklda amalga oshirdim. Allohim menga shunday bir go'zal yo'lda yurishni nasib etdiki, bu ham yetmagandek o'sha yo'lda birga yurish uchun go'zal qalbli hamrohlar ham berdi. Ya'ni, sizlarni. O'sha kun bugundir va bu yo'lda men sizlar bilan birgalikda yuryapman va faqat bir nusxadagi kitob bo'lismi istardim, ammo hozir beshinchi kitobimning xotima qismini yozmoqdaman. Quvonarlisi, ushbu kitoblar insonlarning yuragidan shu qadar chuqur joy egalladiki, minglab o'quvchilar tomonidan mutolaa qilindi va mehrini qozondi...

Yaxshiyam o'sha payti orzuimdan voz kechmagan ekanman. Aytgancha, xayollarimni chippakka chiqargan o'sha sotuvchi esa kitoblarimning hammasini sotib, non puli topayapti. Undan g'azablanmayman. Yaxshiyam o'sha kuni xayollarimni chippakka chiqargan ekan. Chunki u o'zi bilmagan holda mendagi qat'iyatning oshishiga



xizmat qildi. Senga ham aytmoqchi bo'lganim, haqiqatga aylantirishni istagan va erishishni xohlagan biror bir orzu-xayoling bor bo'lsa, zinhor voz kechma. Hamda insonlarga ular haqida og'iz ocha ko'rma. Agar ularga xayollaring haqida gapirib beradigan bo'lsang xayollaringdan voz kechishga undashadi.

Hech kimga hech narsa haqida gapirma. Hamma narsani ichingda saqla va butun umidingni o'sha xayolingga bog'la. Va hayotingni shu tarzda yasha...

Qalbingdan o'tkazgan nimaiki orzuing bo'lsa, eng go'zal shaklda ro'yobga chiqishini tilayman...



Mirach Chag'ri Oqtosh

TO'SIQLARGA QARAMAY SEVDIK

Turk tilidan Nodirabegim Jamshid qizi tarjimasi

Muharrir: Mansur Abdunazarov

Texnik muharrir: Yulduz Hazratqulova

Dizayner: Odilbek Toirov

Sahifalovchi dizayner: Sohibjamol Kattayeva

Musahhih: Sultonbek Qayumov

Ushbu kitob tarjimasi uchun mualliflik huquqi "Factor press" nashriyotiga tegishli. Tahririyat ruxsatsiz kitobni turli shakl va ko'rinishda chop etish, tarqatish man etiladi va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tartibda javobgarlikka tortiladi.

Bosishga 2021-yil 25-mayda ruxsat etildi.

Bichimi: 84/108 _{1/32*} «Cambria» garniturasida ofset usulida ofset qog'ozida bosildi.

10.5 shart. b.t. hisob nashr. tab.

Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 05/21

«Reliable Print» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi 6-uy



Bizni telegramda kuzating: <https://t.me/factorpressnmk>

Instagram sahifamiz: [factor_press_nmk](https://www.instagram.com/factor_press_nmk/)

Murojaat va takliflar uchun: [@factorpress](https://t.me/@factorpress)

Kitob buyurtmasi uchun: [@factorpressnmk_buyurtmaBot](https://t.me/@factorpressnmk_buyurtmaBot)